

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

**I.OCHILOV D.SULTONOV**

# **SUG‘URTA HISOBI VA HISOBOTI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

Toshkent  
“IQTISOD-MOLIYA”  
2010

65.271

**Taqrizchilar:** i.f.d., prof. B.Hamdamiyov;  
i.f.n. Sh.G'aniyev;

Ochilov I.

**O-95** **Sug'urta hisobi.** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / I.Ochilov, D.Sultonov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. –T.: □QATISOD-MOLIYA□, 2010, -224 b.  
Sultonov D.

Mazkur o'quv qo'llanma sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishning nazariy hamda amaliy bilimlariga bag'ishlangan. Ushbu o'quv qo'llanmani dastlabki boblarida sug'urta va sug'urta munosabatlariga umumiy sharh berilgan. Keyingi boblarda sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobining tashkil qilishning o'ziga xosligi, to'g'ridan-to'g'ri sug'urta, qayta sug'urta shartnomalari, sug'urta zahiralarini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog'liq buxgalteriya hisobi hamda hisobotini yuritish usullari, buxgalteriya yozuvlari, ular bilan bog'liq operatsiyalar O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati qonunchiligiga muvofiq amalga oshirish tartibi bilan bog'langan holda yoritilgan.

**BBK 65.271ya722**

## KIRISH

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari to'liq amal qila boshladi. Bozor iqtisodiyotining samarali ishlashini va uning rivojlanganlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri uning infratuzilmasi shakllanganligi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sug'urta sohasi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, sug'urta sohasi iqtisodiyot rivojlanishining bir maromda borishini ta'minlovchi sohalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, sug'urta iqtisodiyotning rivojlanishi uchun salmoqli investitsiya kapitalini jamlashtiruvchi va iqtisodiyotga kirituvchi strategik ahamiyatga ega bo'g'inlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda sug'urta sohasining rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda. Sug'urta sohasini taraqqiy top-tirish maqsadida mamlakatimiz Prezidentining bir qancha qarorlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-618-sonli Qarori asosida O'zbekiston sug'urta tizimining 2010-yilgacha bo'lgan rivojlanish yo'nalishlari belgilab berildi.

Sug'urta sohasini rivojlantirish zaruratini uning quyidagi xususiyatlarga egaligi bilan asoslash mumkin:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday munosabatlarda xavf-xatar, risk va qaltisliklarning mavjudligi;
- sug'urta kompaniyalari tomonidan favqulodda holat natijasida korxonaning faoliyati to'xtab qolmasligi va faoliyatini davom ettirishini ta'minlanishi;
- mamlakat iqtisodiyotiga katta miqdordagi investitsiyalarni kiritishi;
- hayot sug'urtasi orqali aholining ijtimoiy himoyasini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida ta'minlashi;
- mamlakat umumiy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanishi va boshqalar.

Albatta, mazkur sohaning samarali faoliyatini ta'minlashda, ushbu soha uchun hisoblar tizimining joriy etilganligi katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda 2008-yilning 1-iyunidan boshlab, 2008-yil 5-mayda 1813-son bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan "Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasini" kuchga kirdi. Ushbu schyotlar rejasini mamlakatimizda sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta hisobini yuritish tartiblarini belgilab beradi. Schyotlar rejasiga ilova qilingan Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma ushbu schyotlar rejasini qo'llash tartiblarini belgilab berdi.

Mazkur o'quv qo'llanmada yuqorida keltirilgan schyotlar rejasini asosida sug'urta tashkilotlariga xos bo'lgan alohida operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish va operatsiyalarni hisobga olish jihatlari yoritilgan.

## **I bob. SUG‘URTA MUNOSABATLARI TO‘G‘RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA**

### **1.1. Sug‘urta munosabatlari va ularning vujudga kelishi**

Ma’lumki, uzoq asrlar davomida odamlar doimo tabiiy xavflarga duch kelib yashab kelmoqdalar. Shunga qaramay insonlar jamiyati mazkur xavflar oldida ojiz qolmaslikka harakat qilib, tabiiy xavflar bilan kurashib kelmoqda.

Uzoq yillik amaliyot natijasida insoniyat tomonidan taqdir zarbalariga qarshi turishning quyidagi shakllari ishlab chiqildi:

- mavjud xavfning oldini olish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirib, xavfni bartaraf etish;
- sodir bo‘lgan ofat bilan kurashish, uning keng tarqalmasligini oldini olish va tezroq bartaraf etish;
- sodir bo‘lgan hodisalar oqibatida yetgan zararlarni qoplash.

Baxtsiz hodisalarning oqibatlari bilan kurashish sug‘urtaning asosiy maqsadi va vazifasi hisoblanadi. Insonlar baxtsiz hodisalarning oqibatlari bilan kurashish mumkinligini, tabiiy jarayonlarning qonuniyatlarini asta-sekinlik bilan tushuna boshlaganlaridan so‘ng angladilar. Lekin, afsuski, barcha favqulodda hodisalarning amaliyotda oldini olishning yoki bartaraf etishning imkoni yo‘q. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, tasodifiy hodisalar oqibatida yetgan zararlarni sug‘urta yo‘li bilan qoplash har doim qulay va rejali tartibda amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun sug‘urta bugungi kunda har bir oila, har bir tashkilot, tadbirkor, korxon va davlat uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib qoldi.

Har bir inson shuni bilishi kerakki, u o‘z mulkiga ega bo‘lishi bilan uni yo‘qotish bilan bog‘liq riskka yuz tutadi. Yong‘in, suv toshqini, bo‘ron yoki boshqa shunga o‘xshash hodisa oqibatida mulk egasi mulkidan mahrum bo‘lishi mumkin. Mazkur hodisa natijasida mulkning yo‘qotilishi natijasidagi zarar faqatgina uning egasi zimmasiga tushadi. Shuning uchun mulk egasi o‘z mulkini saqlash uchun ma’lum chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur hisoblanadi.

Bunda yana bir jihatni hisobga olishimiz zarur, mulk egasi o'z faoliyati davomida boshqa shaxslarning mulkiga ham zarar yetkazishi va natijada ushbu zararni qoplash bo'yicha javobgar bo'lishi mumkin. Yuqoridagilardan tashqari inson o'z hayoti bilan bog'liq hodisalarni ham hisobga olish zarur.

Sug'urtaga bo'lgan obyektiv talabni vujudga keltiruvchi asosiy omil bu, tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan zararni biror bir javobgarning zimmasiga yuklashning imkoniyati yo'q. Ikkinchi omil esa sug'urta shartnomasida nazarda tutilayotgan risklar yuz berganda biror korxonaga yoki tashkilot yetgan zararni o'z mablag'lari hisobidan qoplay olmasligi mumkin. Mazkur muammoni hal etishda korxonaga sug'urta kompaniyasi yordam beradi.

Ma'lumki, talab taklifni keltirib chiqaradi. Dengiz kemachiligi rivojlana boshlagan davrda kema egalari dengizdagi tabiiy ofatlar va dengiz qaroqchiligi oqibatida o'z mulklarini yo'qotish xavfiga duch kelganlar. Kema dengizga chiqqandan so'ng bo'ron, dovul yoki shunga o'xshash hodisalar oqibatida kema va undagi yuklarning zararlanishi yoki nobud bo'lishi mumkin bo'lgan. Shuni hisobga olgan holda, kema egalari umumiy g'aznalarni tashkil eta boshlaganlar. Mazkur g'aznalarga badal to'lagan shaxs zarar ko'rgan taqdirda, to'lagan badalining ulushiga proporsional tarzda zararining bir qismi g'azna hisobidan qoplab berilgan. G'aznalarni tashkil etish baxtsiz hodisalarning yuz berish ehtimolini o'rganish va g'aznani talab darajasida to'ldirish maqsadida yetarli ishtirokchilarni shakllantirish maqsadida amalga oshirildi. Shunday qilib, o'zaro sug'urtalash tizimi vujudga kela boshladi. Bizga ma'lum bo'lgan birinchi sug'urta shartnomasi 1347-yilda Genuyada tuzilgan. Ushbu shartnomada bir shaxs ikkinchi shaxs dengizga chiqishidan oldin uning kemasi va undagi yuklarini dovul va qaroqchilarning ta'siri natijasida nobud bo'lishidan sug'urtalagan.

Sug'urta munosabatlarining rivojlanishi bilan ular nafaqat mulkning zararlanishi yoki nobud bo'lishi holatlarini, balki uchinchi shaxsning mol-mulkiga zarar yetkazish yoki nobud qilish holatlarini ham qamrab ola boshladi. Demak, mulkiy sug'urta bilan birga uchinchi shaxs oldidagi fuqarolik javobgarligini sug'urtalash turi ham vujudga keldi.

Fuqarolik javobgarligini sug'urtalashning ahamiyatiga doir bir misol keltiramiz. Bir sug'urta tashkilotining vakilining ta'kidlashicha, avtomobil haydovchisi o'z avtomobilini boshqaruvini yo'qotib, uchta avtomobilning to'qnashishiga sabab bo'lgan. Albatta, ba'zi shaxslar to'qnashuv oqibatida tan jarohatlarini ham olganlar. Jabrlanuvchi shaxslar o'zlariga yetkazilgan zararni qoplash uchun sudga da'vo kiritganlar. Lekin avtomobil haydovchisi o'z avtomobili va fuqarolik javobgarligini sug'urtalab qo'yganligi sababli, zararni sug'urta kompaniyasi tomonidan to'lab berilishi ta'minlandi va jabrlanuvchilar o'z da'volarini suddan qaytarib oladilar. Ko'rinib turibdiki, sug'urtalash mexanizmining ishlashi natijasida bir shaxs sudlanishdan qutqarib qolindi.

Sug'urta munosabatlarining yana bir yo'nalishi bu inson hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq holatlarni sug'urtalash hisoblanadi. Hozirda inson sog'lig'ining buzilishi kabi holatlar tibbiy sug'urta shartnomalari asosida sug'urtalanadi. Lekin tibbiy sug'urta vujudga kelmasdan oldin bu sug'urta turlari hayot sug'urtasi sohasida qo'llanilgan. Hayot sug'urtasi shartnomasini tuzishning asosiy maqsadi bu sug'urtalanuvchining merosxo'rlarini u vafot etgan taqdirda moddiy himoyalash hisoblangan. Bizgacha yetib kelgan birinchi yozma shakldagi hayot sug'urtasi shartnomasi Angliyada XVI asrda tuzilgan. Undan ham oldin Qadimgi Rimda kollegiyalar tuzilib, ularning vazifalaridan biri kollegiya a'zosi vafot etgan taqdirda, uning oila a'zolariga dafn marosimlarini qoplash uchun ma'lum belgilangan summalar to'langan. Mazkur xarajatlarni qoplash uchun fond a'zolikka qabul qilish badallari hisobiga shakllangan. Mazkur tizim hozirgi kundagi dafn marosimi sug'urtasining tizimi bilan bir xil bo'lib, u har qanday sababga ko'ra sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda sug'urta summasi to'lab berilishini nazarda tutadi.

Keyinchalik esa sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchi ma'lum yoshgacha yashagan taqdirda sug'urta qoplamasini to'lashni nazarda tutuvchi sug'urta turlarini taklif eta boshladilar. Natijada jamg'arish xarakteriga ega sug'urta turlari paydo bo'la boshladi. Jamg'arish xarakteriga ega sug'urta turlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda sug'urtalanuvchi shartnomada belgilangan tartibda sug'urta badalini to'lab boradi. Sug'urtalovchi to'langan

badallarni shartnomada belgilangan muddatda to‘plab boradi. Sug‘urta hodisasi sifatida shartnomada belgilangan hodisa yoki shartnoma muddatining tugashi hisoblanadi. Agar shartnoma muddati tugamasdan avval sug‘urta hodisasi yuz bersa, shartnomada belgilangan sug‘urta summasi sug‘urtalanuvchiga to‘lab beriladi. Sug‘urta shartnomasining muddati tugagan taqdirda, sug‘urtalovchi tomonidan to‘plab borilgan sug‘urta badallari shartnomada belgilangan foiz ustamasi bilan sug‘urtalanuvchiga sug‘urta summasi sifatida to‘lab beriladi.

## **1.2. Sug‘urta munosabatlarida qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar**

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatlari 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining sug‘urtaga bag‘ishlangan 52-bobi hisoblanadi.

Sug‘urta tushunchasiga “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida ta’rif berilib, unga ko‘ra “**Sug‘urta** deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi”.

Sug‘urta munosabatlarida ikki tomon ishtirok etadi:

– **sug‘urta tashkiloti yoki sug‘urtalovchi** – sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta puli) to‘lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisalari yuzaga kelishini bartaraf etish va oldini olishga oid chora-tadbirlarni moliyalashtirishi mumkin;

– **sug‘urtalanuvchi** – sug‘urta tashkiloti bilan sug‘urta shartnomasini tuzgan yoki qonunchilikda belgilangan tartibda sug‘urta tashkilotlari bilan munosabatlarga kirishgan yuridik yoki jismoniy shaxs hisoblanadi.

**Sug‘urta obyekt** sug‘urtalanuvchining hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va pensiya ta’minoti (hayot sug‘urtasi), qo‘l ostidagi



mol-mulkini tasarruf etish (mulkiy sug'urta) va boshqa shaxslarning unga yetkazgan zarari uchun javobgarlikni olib borish (javobgarlikni sug'urtalash) bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlar hisoblanadi.

Sug'urtalanuvchi yuqorida ko'rsatilgan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sug'urta tashkiloti bilan sug'urta shartnomasini tuzadi. Sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchining manfaatlarini himoya qilganligi evaziga shartnomaga muvofiq o'z haqini, ya'ni **sug'urta mukofotini** undiradi. Sug'urta mukofoti sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasining ehtimoligini hisobga olinib, statistik ma'lumotlar, ehtimollik va katta sonlar qonuniyatlari asosida hisoblab chiqiladi.

Sug'urta mukofotlari sug'urtalanayotgan obyektning summasiga nisbatan foizlarda hisoblab chiqilgan **sug'urta tariflari** asosida aniqlanadi. Sug'urta tariflarini hisoblash tartiblari, qoidalari va uslublarining yig'indisi **aktuar hisob-kitoblar** deb nomlanadi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs) ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi.

Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'lash) majburiyatini oladi.

Sug'urtalanuvchi yoki shartnomada ko'rsatilgan boshqa shaxslarning xatti-harakati yoki harakatsizligi oqibatida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini keltirib chiqaruvchi xavflarni sug'urtalash sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasida shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Qonunchilikka muvofiq sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchining og'zaki yoki yozma arizasiga asosan yozma ravishda tuziladi.

Mulkiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urta obyekti bo'lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to'g'risida;
- yuz berishi ehtimol tutilib, sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi) ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta tovonni miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida, agar shartnomada uni sug'urta pulidan oz miqdorda to'lash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi) ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng sug'urtalanuvchi shartnomada belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lab bo'rishga majbur hisoblanadi. Agar shartnomada boshqacha tartib na-

zarda tutilmagan taqdirda sug'urta shartnomasi sug'urta mukofoti yoki birinchi badal to'langandan so'ng kuchga kiradi.

Sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti evaziga sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug'urta qoplamasini to'lash majburiyatini qabul qiladi. Qabul qilingan sug'urta majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash uchun sug'urtalovchilar ham so'mda, ham chet el valutasida to'langan sug'urta mukofotlaridan sug'urta zaxiralarini shakllantiradi hamda joylashtiradilar. Sug'urta zaxiralarining mablag'lari qat'iy maqsadlarda, ya'ni sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, uning natijasida yetgan zararni qoplash uchun sarflanadi.

**Sug'urta zaxirasi** sug'urtalanuvchi bo'lgan ko'p sonli korxonalar, tadbirkorlar, yuridik va jismoniy shaxslarning to'langan sug'urta mukofotlari evaziga shakllantiriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, sug'urta mukofotlari sug'urta hodisalarining yuz berish ehtimoli inobatga olingan holda hisoblab chiqiladi. Demak, shakllantirilgan sug'urta zaxirasi sug'urtalovchining o'z zimmasidagi javobgarlikka muvofiq bo'lishi zarur.

Masalan, Sug'urta tashkiloti 100 ta 50000 so'mlik uyni yong'indan sug'urtalashi zarur. Bir yilda 100 ta uydin 2 tasida yong'in yuz berishi ehtimoli bor. Demak, sug'urta tashkilotining zaxirasi 100000 so'mdan ( $2 \cdot 50000 = 100000$ ) kam bo'lishi mumkin emas. Barcha uy egalari uchun sug'urta mukofotlari esa muvofiq ravishda 1000 so'mni ( $100000/100 = 1000$ ) tashkil etadi. Bu holatda shartli ravishda sug'urta tashkilotining xarajatlari hisobga olinmagan. Sug'urta tashkiloti o'z xarajatlarini sug'urta mukofotlarida hisobga oladigan bo'lsa, uning summasi yana bir oz oshadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sug'urta tashkilotlari sug'urta zaxiralarini shakllantirish bilan birga ularni joylashtirishi, ya'ni investitsiya qilishi mumkin. Ma'lumki, sug'urta shartnomasi bir yilgacha bo'lgan muddatga (umumiy sug'urta tarmog'ida) yoki bir necha yilga tuziladi (hayot sug'urtasida) va shartnoma, odatda, sug'urta mukofoti to'langandan so'ng kuchga kiradi. Sug'urta hodisasi sug'urta mukofoti sug'urta tashkilotiga kelib tushgandan keyin ma'lum muddat o'tgandan so'ng yuz berishi yoki umuman yuz bermasligi mumkin. Sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar sug'urta mukofotlari sug'urta tashkilotining ixtiyorida bo'sh qoladi


va sug'urta tashkiloti undan foyda olish maqsadida maxsus vakolatli organ belgilab bergan tartibda ularni investitsiya qiladi hamda daromad ko'radi. Investitsiya faoliyati ham sug'urta tashkilotining faoliyat turlaridan biri bo'lib, undan sug'urta tashkiloti salmoqli daromadga ega bo'ladi.

Ba'zi hollarda sug'urta tashkilotlari o'z zimmasiga olayotgan javobgarlikning hajmi ularning imkoniyatlaridan ortib ketishi mumkin. Bunday hollarda sug'urta tashkilotlari o'z mijozlarini ushlab qolish maqsadida javobgarlikni qabul qiladi va o'z imkoniyatidan ortiqcha javobgarlikni qayta sug'urtalash orqali boshqa sug'urta tashkilotiga shartnoma asosida o'tkazib yuborishi mumkin.

**Qayta sug'urta (sessiya, risklar transformatsiyasi)** – bu bir sug'urtalovchi (qayta sug'urtalanuvchi) tomonidan o'z zimmasiga olingan sug'urta javobgarligining bir qismini yoki to'liq shartnoma asosida boshqa sug'urta tashkilotiga (qayta sug'urtalovchi) o'tkazish hisoblanadi. Qayta sug'urtalashda sug'urta shartnomasi ikki sug'urta tashkiloti o'rtasida tuzilib, mazkur risk bo'yicha sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug'urta qoplamasining to'liq summasi sug'urtalanuvchi bilan shartnoma tuzgan sug'urta tashkiloti tomonidan to'lab beriladi. Sug'urta qoplamasining qayta sug'urtalovchiga tegishli qismi qayta sug'urtalanuvchiga o'tkazib beriladi. Ya'ni sug'urtalanuvchi oldidagi barcha javobgarlikni asosiy sug'urta tashkiloti (qayta sug'urtalanuvchi) olib boradi.

Qayta sug'urtalash tartibining barcha shartlari sug'urta shartnomasida ko'rsatiladi. Qayta sug'urtalanuvchi qayta sug'urta shartnomasining talablarini to'liq bajarib borgan taqdirda qayta sug'urtalovchi tomonidan unga **komission to'lovlar** yoki **tantemalar** shaklidagi siylovlar beriladi. Qayta sug'urtalash sug'urta faoliyatida foydali mexanizm hisoblanib, undan foydalanib sug'urta tashkiloti o'z zimmasidagi ortiqcha majburiyatdan qutilish, shu bilan birga, mijozni o'zida saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'kidlash joizki, jahon sug'urta bozorida qayta sug'urtalash munosabatlari yuksak rivojlangan bo'lib, mamlakatlarning sug'urta bozoriga yetarli darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. Qayta sug'urtalash munosabatlari sug'urta tashkilotlarning to'lov qobiliyatining barqarorligini ta'minlashda ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Qonunchilikka muvofiq qayta sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan majburiyatni boshqa sug'urta tashkilotiga qayta sug'urtaga berishi yoki o'tkazishi mumkin. Birlamchi qayta sug'urtalash sessiya deb nomlansa, ikkilamchi qayta sug'urtalash **retrotsessiya** deb nomlanadi (1-chizma).



**1-chizma.** Sug'urta bozorida risklar transferi, transformatsiyasi va retrotsessiya

Jamiyatda sug'urta munosabatlarning rivojlanishi bilan sug'urtalashni amalga oshirishning turli shakllari vujudga keldi va rivojlandi. Sug'urtalash shakllari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: birgalikda sug'urtalash, o'zaro sug'urtalash, ko'p tomonlama va qisman sug'urtalash va boshqalar.

**Birgalikda sug'urtalashda** bir obyekt biron riskdan bir nechta sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanishi mumkin. Bunda har bir sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan majburiyat doirasida sug'urtalanuvchi oldida javobgarlikni olib boradi. Ba'zi bir yirik obyektlarni sug'urtalashda bir sug'urta tashkilotining moliyaviy imkoniyati yetmasligi mumkin, shunda bir nechta sug'urta tashkilotlari birgalikda ushbu obyektни sug'urtalashlari mumkin bo'ladi. Amaliyotda sug'urta tashkilotlari yirik obyektlarni sug'urtalash uchun jamiyatlarni, ya'ni **sug'urta pullarini** tashkil etadilar. Sug'urta pullarining a'zolari o'z ulushi doirasida javobgarlikni olib borsa-da, ulardan bittasi sug'urtalanuvchi bilan munosabatlarni olib borishi ham mumkin. Mazkur sug'urtalovchi pul a'zolari tomonidan ixtiyoriy ravishda belgilanadi.

**O'zaro sug'urtalash** munosabatlari qadimdan rivojlanib, hozirgi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda. Qonunchilikka muvofiq

o‘zaro sug‘urtalash ma‘lum shaxslarning o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlariga birlashishi orqali amalga oshiriladi. O‘zaro sug‘urtalash jamiyatlarining a‘zolari o‘rtasida shartnoma tuzilib, ularning turli manfaatlari sug‘urtalanadi. Jamiyatning biror a‘zosi sug‘urta hodisasiga duch kelgan taqdirda, uning zarari jamiyatga kirish uchun to‘langan a‘zolik badallari evaziga shakllantirilgan fond evaziga qoplab beriladi. O‘zaro sug‘urtalash jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu uning notijorat faoliyat yuritishi hisoblanadi. Ya‘ni uning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki jamiyat a‘zolariga turli hodisalar oqibatida yetkazilgan zararlarni bartaraf etishda ko‘maklashish hisoblanadi.

**Ko‘p tomonlama sug‘urtalash** sug‘urtalanuvchi bir obyektning bir necha sug‘urtalovchiga sug‘urtalatgan taqdirda vujudga kelishi mumkin. Bir necha sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urtalangan obyektga sug‘urta hodisasi oqibatida zarar etgan taqdirda, sug‘urtalanuvchi barcha sug‘urtalovchilardan sug‘urta qoplamasini talab qilishga haqli, lekin sug‘urtalovchilar tomonidan to‘langan sug‘urta qoplamalarining summasi sug‘urta zarari summasidan oshib ketmasligi zarur. Mazkur qoida faqatgina mulkiy sug‘urta turlariga taalluqli bo‘lib, hayot sug‘urtasida mazkur qoida qo‘llanilmaydi.

Sug‘urta obyektlarini **qisman sug‘urtalash** ham amaliyotda uchray turadi. Masalan, biror binoning 50 %i shikastlanishdan sug‘urtalangan taqdirda, agar sug‘urta shartnomasida boshqa tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta hodisasi oqibatida binoga yetkazilgan zararining 50 %i sug‘urtalovchi tomonidan qoplab berilishi mumkin.

### **1.3. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatining tashkil etilishi va o‘ziga xos xususiyatlari**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, o‘z iqtisodiyotining rivojlanish yo‘nalishlarini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida belgilab oldi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichma-bosqich o‘tish yo‘li tanlandi. Mazkur jarayonda iqtisodiyotning sohalarini erkinlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarishga katta e‘tibor berildi. Shu o‘rinda sug‘urta sohasi ham bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining tarkibiy ajralmas qismi sifa-

tida davlat monopoliyasidan chiqarildi va erkinlashtirildi. Hozirgi kunda sug'urta faoliyati mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biriga aylandi. O'zbekistonda sug'urta faoliyatining jadal rivojlanish bosqichlari asosan 1997-yildan "O'zagrosug'urta" DASK, "O'zbekinvest" EIMSK, "Kafo-lat" DASK kabi yirik sug'urta kompaniyalarining tashkil etilishi bilan boshlandi. 1998-yil 8-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan Moliya vazirligi huzurida Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Mazkur inspeksiyaning tashkil etilishi O'zbekiston sug'urta bozorining tartibga solinishiga va sug'urtalanuvchilar manfaatlarini davlat tomonidan himoyalash mexanizmining vujudga kelishiga olib keldi.

2002-yil 5-aprelda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi. Mazkur Qonunga asosan mamlakatimizda sug'urta sohasi ikki tarmoqqa ajratildi. Bular umumiy sug'urta va hayot sug'urtasi tarmoqlaridir.

Umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyasi uchun hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yuritishi taqiqlandi va aksincha, hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta tarmog'idagi sug'urta kompaniyasining umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat yuritishi taqiqlandi.

Sug'urta tashkiloti u yoki bu tarmoqda faoliyat yuritishi uchun maxsus vakolatli davlat organidan berilgan litsenziyaga ega bo'lishi zarur. Hozirda O'zbekistonda maxsus vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisoblanadi. Bundan tashqari, Moliya vazirligi sug'urta tashkilotlarini nazorat qilish ishlarini ham amalga oshiradi.

Ushbu Qonunda sug'urta faoliyatining professional ishtirokchilari ham belgilanib, ular sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari va boshqa sug'urta bozorida ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Sug'urta vositachilari sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti hisoblanadi. Bulardan sug'urtalovchi va sug'urta brokerlari o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lishi zarur.

Ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2007-yil 10-apreldagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'isida"gi PQ-618-sonli Qarori asosida sug'urta bozorining yangi professional ishtirokchilarining qonuniy bazasi shakllantirildi. Bularga ajaster, syurveyer, aktuariy va assistanslarni misol qilib keltirish mumkin.

Adjaster yoki adjaster tashkiloti – bu sug'urtalovchining topshirig'i bo'yicha quyidagi xizmatlarni ko'rsatadigan tegishli ravishda jismoniy yoki yuridik shaxs:

- sug'urta hodisasi yuz bergandan keyin sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

- sug'urta hodisasining holatlari va risk majburiyatlarini tahlil qilish;

- sug'urta obyektini shikastlanishi sabablarini va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash;

- sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda sug'urta hodisasi oqibatida paydo bo'lgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini aniqlash;

- sug'urtalovchining majburiyatlaridan kelib chiqib to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'lovlari summasini aniqlash;

- sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi bo'yicha ekspert xulosasi tuzish.

Aktuariy yoki aktuar tashkilot – bu tegishli ravishda quyidagilarni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlar ko'rsatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs:

- sug'urta hodisasi yuz berishining matematik jihatdan muqarrarligi hisobini amalga oshirish, ham alohida risk guruhlarida, ham umuman jami sug'urta bo'yicha zarar yetkazish oqibatlari og'irligi chastotalari va darajasini aniqlash;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik asoslash va hisoblash, ularni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish;

- sug'urtalovchi tomonidan investitsiyalar sifatida yig'ilgan badallardan foydalanishda kapital qo'yish normasi va netto-stavka



miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash, bu tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadi;

- sug'urtalash jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisoblash;

- sug'urtalashning (qayta sug'urtalashning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xarakterini hisobga olgan holda belgilash;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisoblashdan foydalangan holda baholash;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) daromadlarini sug'urtalash (qayta sug'urtalash) ning har xil turlari bo'yicha rejalashtirish.

Assistans xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar sug'urtalash shartnomasi doirasida sug'urtalanuvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, foyda ko'ruvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatadilar, shuningdek, ularga moliyaviy yordam ko'rsatadilar.

Sug'urta syurveyeri – quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs:

- sug'urta shartnomasi tuzilgungacha sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

- barcha faktlarni va risk holatlarini tahlil qilish, sug'urta shartnomasi tuzilgungacha risk darajasini aniqlash;

- sug'urtalashning tekshirilayotgan objekti bo'yicha ekspert xulosasi tuzish.

Mamlakatimizda faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlarining barqaror faoliyat yuritishi va sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini himoyalash maqsadida eng kam ustav kapitali miqdorlari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-618-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida"gi nizomga asosan eng kam ustav kapitali miqdori:<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-yil, 15-son, 158-modda.

– umumiy sug‘urtalash tarmog‘ida faoliyatni amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun – 500 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan summani;

– hayotni sug‘urtalash tarmog‘ida faoliyatni amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun – 750 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan summani;

– majburiy sug‘urtalash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun – 1000 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan summani;

– faqat qayta sug‘urtalash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun – 3000 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan summani tashkil etadi.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-maydagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-872-sonli Qarori asosida 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab quyidagi sohalarda faoliyatni amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlari belgilandi<sup>2</sup>:

– umumiy sug‘urta sohasida – 750 ming yevroga ekvivalent summada;

– hayotni sug‘urta qilish sohasida – 1000 ming yevroga ekvivalent summada;

– majburiy sug‘urta bo‘yicha – 1500 ming yevroga ekvivalent summada;

– faqat qayta sug‘urta qilish bo‘yicha – 4000 ming yevroga ekvivalent summada.

Umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yurituvchi sug‘urta tashkilotlari quyidagi turlar bo‘yicha litsenziya olishi mumkin (1-jadval).

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-yil, 20-21-son, 172-modda.

### Umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha sug'urta turlari

Tur t/r	Turning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
1-tur	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish	<p>Quyidagi hollarda:</p> <p>a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud;</p> <p>b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud;</p> <p>v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-tur va IV tur bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami</p>
2-tur	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	<p>Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi) ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV turi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda</p>
3-tur	Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish	<p>Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami</p>
4-tur	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	<p>Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami</p>
5-tur	Aviatsiya sug'urtasi	<p>Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunolari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami</p>

6-tur	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
7-tur	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
8-tur	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yerosti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7- turlarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
9-tur	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	8-turda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-turlarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
10-tur	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	Yer usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
11-tur	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
12-tur	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

13-tur	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	10, 11 va 12-turlarda ko'rsatilmagan risklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
14-tur	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
15-tur	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
16-tur	Boshqa moliyaviy risklardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-turda ko'rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
17-tur	Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

Hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari quyidagi keltirilgan sug'urta turlari bo'yicha litsenziya olishlari mumkin (2-jadval).

## Hayot sug'urtasi tarmog'i bo'yicha sug'urta turlari

Tur tartib raqami	Turning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I tur	Hayot va annuitetlar	<p>Quyidagi hollarda sug'urta summolari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi;</li> <li>– sug'urta qilinuvchining vafot etishi;</li> </ul> <p>shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar), III tur bundan mustasno</p>
II tur	Nikoh va tug'ilish	<p>Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami</p>
III tur	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	<p>Umrbod renta to'lanishi bilan birga, hayotni sug'urta qilish turlari jami</p>
IV tur	Sog'liqni sug'urta qilish	<p>Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga yetguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summolari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirishi mumkin emas</p>

Hozirgi kunda sug'urta tashkilotlari litsenziyada ko'rsatilgan sug'urta tur(tur) lari doirasida o'z faoliyatlarini amalga oshirib kelmoqdalar.

## Tayanch soʻzlar

- ♦ *Sugʻurta*
- ♦ *Sugʻurta faoliyati*
- ♦ *Sugʻurta tashkiloti*
- ♦ *Sugʻurtalanuvchi*
- ♦ *Sugʻurta obyekti*
- ♦ *Sugʻurta mukofoti*
- ♦ *Sugʻurta tariflari*
- ♦ *Sugʻurta pullari*
- ♦ *Sugʻurta javobgarligi*
- ♦ *Sugʻurta zaxirasi*
- ♦ *Sugʻurta shartnomasi*
- ♦ *Komission toʻlovlar yoki tantemalar*
- ♦ *Retrotsessiya*
- ♦ *Umumiy sugʻurta*
- ♦ *Hayot sugʻurtasi*
- ♦ *Qisman sugʻurtalash*
- ♦ *Birgalikda sugʻurtalash*
- ♦ *Oʻzaro sugʻurtalash*
- ♦ *Koʻp tomonlama sugʻurtalash*
- ♦ *Aktuar hisob -kitoblar*
- ♦ *Sugʻurta turlari*
- ♦ *Qayta sugʻurta*

## Nazorat savollari

1. “Sugʻurta” tushunchasiga taʼrif bering.
2. Sugʻurta munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday mulkiy manfaatlar sugʻurta obyekti hisoblanadi?
4. Sugʻurta shartnomasini tuzishda sugʻurta qildiruvchi bilan sugʻurtalovchi oʻrtasida qanday shartlar kelishib olinadi?
5. Sugʻurta tashkilotlari sugʻurta zaxirasidan investitsiya maqsadida foydalanishi mumkinmi?
6. Sugʻurta tashkilotlari oʻz zimmasiga olayotgan javobgarlikning hajmi ularning imkoniyatlaridan ortib ketishi mumkinmi? Bunday hollarda sugʻurta tashkilotlari qanday yoʻl tutadi?
7. Qayta sugʻurta deganda nimani tushunasiz?
8. Birlamchi va ikkilamchi qayta sugʻurtalashning oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta faoliyati qanday meʼyoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
10. Adjuster, aktuariy, assistans tushunchalariga taʼrif bering.
11. Umumiy va hayot sugʻurtasi tarmogʻi boʻyicha qanday sugʻurta turlari mavjud?

## **II bob. SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI**

### **2.1. Sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos jihatlari va sug‘urta tashkilotlari uchun alohida buxgalteriya hisobini yuritish tartibining zarurligi**

Sug‘urta faoliyati sug‘urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy xizmat turlaridan biri hisoblanadi. Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish jarayonining bir qancha o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ular tovar ishlab chiqarish va boshqa xizmat turlarini ko‘rsatish jarayonlaridan keskin farq qiladi.

Masalan sug‘urta shartnomasini tuzish va sug‘urta polisini sotib olish jarayonini ko‘rib chiqsak, sug‘urtalovchi sug‘urta xizmatini ko‘rsatishda, ma‘lum miqdordagi javobgarlikni o‘z zimmasiga olishdan avval sug‘urtalanuvchidan sug‘urta mukofotini undiradi, ya‘ni daromad qiladi. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta hodisasi ro‘y berganda sug‘urta qoplamasini amalga oshiradi, ya‘ni xarajat qiladi. Mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda esa aksincha, avval xarajat qilinib, tovar ishlab chiqariladi va u sotilgandan so‘ng daromad olinadi.

Sug‘urta tashkilotlari sug‘urtalanuvchilardan kelib tushgan sug‘urta mukofotlaridan sug‘urta zararlarini qoplash zaxirasini tashkil etadilar. Mazkur zaxira sug‘urta muddati tugamagunga qadar sug‘urtalovchining majburiyati hisoblanadi. Sug‘urta muddati tugaganidan so‘nggina ushbu mablag‘lar sug‘urta tashkilotining daromadi sifatida hisobga olinishi mumkin. Ba‘zi hollarda sug‘urta zaxirasidagi mablag‘lar kunma-kun shartnoma muddatining o‘tgan muddatiga nisbatan proporsional ravishda hisobga olib boriladi.

Bundan tashqari, sug‘urta tashkilotlari o‘z zimmasidagi majburiyatlarni ma‘lum haq evaziga boshqa sug‘urta tashkilotlariga o‘tkazishi yoki ulardan qabul qilib olishi mumkin. Sug‘urta tashkilotlari o‘z zimmasidagi majburiyatlarni boshqa sug‘urta tashkilotlariga o‘tkazib yuborgan taqdirda ham sug‘urtalanuvchilarning oldida javobgar bo‘lib qolaveradilar.



Ma'lumki, sug'urta tashkilotiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi sug'urta muddati davomida bo'sh qolishi mumkin. Sug'urta tashkiloti ushbu mablag'larni bo'sh qolgan muddatga investitsiya obyektlariga joylashtirishi va qo'shimcha daromad ham olishi mumkin. Hozirgi kunda jahon amaliyotida sug'urta kompaniyalari iqtisodiyotga investitsiyalarni kirituvchi yirik institutsional investorlarga aylangan.

Yuqoridagi keltirilgan barcha xususiyatlar, sug'urta tashkilotlari uchun sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi buxgalteriya hisobini yuritish tartibini ishlab chiqishni talab etadi va bu tartib mamlakatimizda 2008-yilning 1-iyunidan boshlab, 2008-yil 5-mayda 1813-son bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan "Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi" asosida kuchga kirdi.

## **2.2. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning umumiy qoidalari va schyotlar rejasining farqli jihatlari**

Sug'urta tashkilotlarida ham buxgalteriya hisobi umumiy tartib-qoidalarga asoslanib, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho'ba korxonalar, filiallari, vakolatxonalar va boshqa tarkibiy bo'linmalari singari buxgalteriya hisobi subyektlari hisoblanadi.

Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajatlar foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari esa buxgalteriya hisobining obyektlaridir.

Barcha tashkilotlardagi singari sug'urta tashkilotida ham buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlash hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

– buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;

– samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;

– moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish.

Buxgalteriya hisobining yuqoridagi vazifalari quyidagi asosiy qoidalar asosida amalga oshiriladi:

– buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish;

– uzluksizlik;

– xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda baholanishi;

– aniqlik;

– hisoblash;

– oldindan ko'ra bilish (ehtiyotkorlik);

– mazmunning shakldan ustunligi;

– ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi;

– moliyaviy hisobotning betarafligi;

– hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi;

– aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari bilan, shu jumladan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi. O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mulkchilik shaklidan qat'i nazar barchasi O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-son milliy standarti asosida faoliyat yuritishi shart. Budget muassasalari, sug'urta tashkilotlari va banklar bundan mustasno. Ma'lumki, banklar va budget muassasalari uchun alohida buxgalteriya hisobini yuritish tartiblari ishlab chiqilgan. Sug'urta tashkilotlari uchun mazkur tartib 2008-yil 5-mayda 1813-son bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan "Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi" asosida o'rnatib berilgan. Ushbu schyotlar rejasida sug'urta faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan.

Quyida sug'urta tashkilotlari uchun belgilangan schyotlar rejasi va umumiy schyotlar rejasi o'rtasidagi farqli jihatlarini ko'rsatib berish uchun solishtirma jadval keltirilgan.

**Umumiy schyotlar rejasi va sug'urta tashkilotlari uchun  
belgilangan schyotlar rejasi o'rtasidagi farqlar bo'yicha  
solishtirma jadval**

<b>№</b>	<b>Xo'jalik subyektlarining schyot rejasi</b>	<b>Schyot raqami</b>	<b>Sug'urtalovchilar schyot rejasi</b>
1	Ishchi va mahsuldor hayvonlar	0170	Ishchi hayvonlar
2	Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar	1020	Butlovchi buyumlar
3	O'stirishdagi hayvonlar	1110	
4	Bo'rdoqidagi hayvonlar	1120	
5	Asosiy ishlab chiqarish	2010	Sug'urta ishini yuritish xarajatlari
6	O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar	2110	
7		2210	Hisobot davrida to'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari
8		2220	Muddatidan oldin tugatilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta tovonlari
9		2230	Qayta sug'urta qilishga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta tovonlari
10		2410	Qayta sug'urta qilishga oid komission va brokerlik rag'batlantirishlar, tantyemalar va yig'implarni to'lash bo'yicha xarajatlar
11	Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar	2610	
12	Ombordagi tayyor mahsulotlar	2810	
13	Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar	2820	
14	Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar	2830	
15		4030	Sug'urtalanuvchilardan olinadigan schyotlar
16		4040	Sug'urta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar
17		4050	Qayta sug'urta qilish bo'yicha qabul qilingan risklar bo'yicha olinadigan

			schyotlar
18		4051	Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirishlar, tanyemalar va yig'implar bo'yicha olinadigan schyotlar
19		4060	Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha olinadigan schyotlar
20		4070	Hayot sug'urtasi bo'yicha berilgan ssudalar bo'yicha olinadigan schyotlar
21		4080	Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo zarari
22		4090	Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo mukofotlari
23	Boshqa berilgan bo'naklar	4330	Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun berilgan bo'naklar
24		4340	Boshqa berilgan bo'naklar
25		6011	Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha pudratchilarga to'lanadigan schyotlar
26		6030	Berilgan veksellar
27		6040	Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar
28		6050	Sug'urta agentlari va brokerlariga to'lanadigan schyotlar
29		6060	Qayta sug'urta qilish bo'yicha olingan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar
30		6070	Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar
31		6080	Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha depo mukofotlar
32		6090	Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirish, tanyemalar va yig'implar bo'yicha to'lanadigan schyotlar
33		6270	Qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari
34		6280	To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari

35	Boshqa olingan bo‘naklar	6330	Sug‘urtalanuvchilardan olingan bo‘nak sug‘urta mukofotlari
36		6390	Boshqa olingan bo‘naklar
37		7011	Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha pudratchilarga to‘lanadigan uzoq muddatli schyotlar
38		7030	Berilgan veksellar
39		7040	Sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan uzoq muddatli schyotlar
40		7050	Sug‘urta agentlari va brokerlariga to‘lanadigan uzoq muddatli schyotlar
41		7060	Qayta sug‘urta qilish bo‘yicha olingan risklar bo‘yicha to‘lanadigan uzoq muddatli schyotlar
42		7070	Qayta sug‘urta qilishga berilgan risklar bo‘yicha to‘lanadigan uzoq muddatli schyotlar
43		7080	Qayta sug‘urta qilishga berilgan risklar bo‘yicha depo mukofotlar
44		7090	Qayta sug‘urta qilishga oid komission rag‘batlantirish, tantyemalar va yig‘imlar bo‘yicha to‘lanadigan uzoq muddatli schyotlar
45		8010	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi
46		8020	Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi
47		8030	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi
48		8040	Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi
49		8050	Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi
50		8060	Falokatlar zaxirasi
51		8070	Zararlilikning tebranishi zaxirasi
52		8090	Hayot sug‘urtasi bo‘yicha zaxira
53		8110	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi qayta sug‘urtalovchilarning ulushi
54		8120	Xabar qilingan, lekin bartaraf

			etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi
55		8130	Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi
56		8140	Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiradagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi
57	Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar	9010	
58	Tovarlarni sotishdan daromadlar	9020	
59	Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar	9030	Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar
60	Sotilgan tovarlarning qaytishi	9040	Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari
61		9060	Sug'urta vositachisi xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar
62		9070	Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha zararlar ulushining qoplanishi bo'yicha daromadlar
63		9080	Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirishlar, tanyemalar va yig'imlar bo'yicha daromadlar
64		9090	Syurveyer va adjaster xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar
65	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi	9110	
66	Sotilgan tovarlarning tannarxi	9120	
67	Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi	9130	Ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi
68		9230	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi o'zgarishining natijasi
69		9240	Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi
70		9250	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi

			o'zgarishining natijasi
71		9260	Falokatlar zaxirasi o'zgarishining natijasi
72		9270	Zararlilikning tebranishi zaxirasi o'zgarishining natijasi
73		9280	Hayot sug'urtasi zaxirasi o'zgarishining natijasi
74		9290	Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi o'zgarishining natijasi
75		9431	To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, o'tgan davrda xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari
76		9432	To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, lekin hisobot davrida xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari

Yuqorida keltirilgan jadvalni tahlil qilib shuni ko'rish mumkinki, sug'urta tashkilotlari uchun mo'ljallangan buxgalteriya schyotlarida umuxo'jalik schyotlar bilan o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Barcha o'xshash schyotlarda operatsiyalar odatdagidek olib borilishini hisobga olib, sug'urta tashkilotlari uchun mo'ljallangan schyotlarga to'xtalib o'tamiz. Ushbu o'quv qo'llanmada asosan sug'urta faoliyatiga tegishli bo'lgan schyotlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish tartibini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sug'urta tashkilotlari uchun mo'ljallangan schyotlar rejasida bevosita mahsulot va tovar ishlab chiqarish bilan bog'liq schyotlar chiqarilib, ularning o'rniga sug'urta faoliyatiga taalluqli schyotlar shartli ravishda kiritilgan.

Sug'urta faoliyatiga taalluqli schyotlarni ko'rib chiqadigan bo'lak, ulardan biri bu – 6280 “To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari” schyotidir. Ushbu schyotda sug'urta shartnomalari bo'yicha olingan sug'urta mukofotlari hisobga olinadi. Sug'urta mukofotlarining to'lanishi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti 6280 “To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari” schyotining krediti bilan bog'langan holda rasmiylashtiriladi. Bundan tashqari, ushbu schyot quyidagi schyotlar bilan ham bog'lanishi mumkin:

- sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan schyotlar (6030);
- to‘lanadigan dividendlarni hisobga oluvchi schyotlar (6610);
- xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar (6710).

Sug‘urta shartnomalari sug‘urta tashkilotining o‘zi yoki sug‘urta agentlari va sug‘urta brokerlari tomonidan tuzilishi ham mumkin. Sug‘urtalanuvchilar, sug‘urta agentlari va sug‘urta brokerlari bilan bog‘liq hisob-kitoblar **6040 schyot “Sug‘urta agentlari va brokerlariga to‘lanadigan schyotlar”** va **4040 schyot “Sug‘urta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar”**da olib boriladi.

Sug‘urta tashkiloti o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish maqsadida kelib tushgan sug‘urta mukofotlaridan shakllantirgan sug‘urta zaxiralari quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

8010 schyot “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi”;

8020 schyot “Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi”;

8030 schyot “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”;

8040 schyot “Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi”;

8050 schyot “Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi”;

8060 schyot “Falokatlar zaxirasi”;

8070 schyot “Zararlilikning tebranishi zaxirasi”;

8090 schyot “Hayot sug‘urtasi bo‘yicha zaxira”;

To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta va qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha hisoblangan sug‘urta tovonlari to‘g‘risidagi axborotni jamlash quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

2210 “Hisobot davrida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha sodir bo‘lgan sug‘urta hodisalari bo‘yicha sug‘urta tovonlari”;

2220 “Muddatidan oldin tugatilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta tovonlari”;

2230 “Qayta sug‘urta qilishga qabul qilingan risklar bo‘yicha sug‘urta tovonlari”;

9431 schyot “To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha o‘tgan davrlarda sodir bo‘lgan, o‘tgan davrda xabar qilingan sug‘urta hodisalari bo‘yicha sug‘urta tovonlari”;

9432 schyot “To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha o‘tgan davrlarda sodir bo‘lgan, lekin hisobot davrida xabar qilingan sug‘urta hodisalari bo‘yicha sug‘urta tovonlari”.



Agar sug'urta tashkiloti sug'urta qoplamasini to'lab bergandan so'ng sug'urta hodisasining sodir bo'lishida aybdor bo'lgan shaxsdan zararni undirib olish huquqiga ega bo'lsa, bu bilan bog'liq hisob-kitoblar **4860 schyot "Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar"** da olib boriladi.

Sug'urta tashkilotlari o'z moliyaviy holatining barqarorligini ta'minlash maqsadida o'z zimmasidagi javobgarlikni boshqa sug'urta tashkilotlariga o'tkazishlari ya'ni qayta sug'urta qilishlari mumkin. Bunda sug'urta tashkiloti qayta sug'urtalayotgan sug'urta tashkilotiga ma'lum miqdordagi to'lovni amalga oshiradi. Qayta sug'urtaga o'tkazilgan risklar bo'yicha sug'urta mukofotlari summalari **9040 schyot "Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari"**da hisobga olib boriladi.

Sug'urta qoplamasini to'lash bo'yicha zararning qayta sug'urtalash bo'yicha olingan ulushlarining hisobi **9070 schyot "Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha zararlar ulushining qoplanishi bo'yicha daromadlar"**da yuritiladi.

Qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha qayta sug'urtalanuvchi va qayta sug'urtalovchi o'rtasidagi umumiy o'zaro hisob-kitoblar quyidagi schyotlarda amalga oshirilib boriladi:

6050 schyot "Qayta sug'urta qilish bo'yicha olingan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar";

6060 schyot "Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar";

6070 schyot "Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha depo mukofotlar";

6080 schyot "Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirish, tanyemalar va yig'imlar bo'yicha to'lanadigan schyotlar";

4050 schyot "Qayta sug'urta qilish bo'yicha qabul qilingan risklar bo'yicha olinadigan schyotlar";

4051 schyot "Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirishlar, tanyemalar va yig'imlar bo'yicha olinadigan schyotlar";

4060 schyot "Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha olinadigan schyotlar";

4080 schyot "Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo zarari";

4090 schyot “Sug‘urtalovchining boshqa sug‘urtalovchilardagi depo mukofotlari”.

Mazkur schyotlar asosida olib boriladigan hisob-kitoblar keyingi mavzularda batafsil ko‘rib chiqiladi.

### **Tayanch so‘zlar**

- ♦ *Buxgalteriya hisobining vazifalari*
- ♦ *Buxgalteriya hisobining qoidalari*
- ♦ *Ikki yoqlama yozuv usuli*
- ♦ *Ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi*
- ♦ *Mazmunning shakldan ustunligi*
- ♦ *Moliyaviy hisobotning betarafligi*
- ♦ *Umumiy schyotlar rejasi*
- ♦ *Uzluksizlik*
- ♦ *Xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda baholanishi*
- ♦ *Aniqlik va hisoblash*
- ♦ *Oldindan ko‘ra bilish (ehtiyotkorlik)*
- ♦ *Hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi*
- ♦ *Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi*
- ♦ *Sug‘urta faoliyatiga tegishli schyotlar rejasi*

### **Nazorat savollari**

1. Sug‘urta tashkilotlari buxgalteriya hisobini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning umumiy qoidalari nimalardan iborat?
3. Buxgalteriya hisobining vazifalari nimalardan iborat?
4. Umumiy schyotlar rejasi va sug‘urta tashkilotlari uchun belgilangan schyotlar rejasi o‘rtasidagi farqlarni sanab bering.
5. Sug‘urta mukofotlaridan shakllantirilgan sug‘urta zaxiralari qanday schyotlarda aks ettiriladi?
6. Qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha qayta sug‘urtalanuvchi va qayta sug‘urtalovchi o‘rtasidagi umumiy o‘zaro hisob-kitoblar qaysi schyotlarda aks ettiriladi?

### **III bob. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI SUG‘URTALASH BO‘YICHA SUG‘URTA MUKOFOTLARINING HISOBI**

#### **3.1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalash bo‘yicha hisob-kitoblar**

Har qanday tijorat tashkiloti bir qancha turdagi tovar, xizmat yoki ishlarni ishlab chiqarish yoki sotish evaziga foyda olish maqsadida faoliyat yuritadi. Shuning uchun umumxo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi deganda, eng avvalo, tovar, ish yoki xizmatlarni sotishdan tushgan daromad va ushbu tovar, ish yoki xizmatlarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarning hisobini amalga oshirish tushuniladi. Ma‘lumki, buxgalteriyada tovar, ish va xizmatlarning sotilishi ularning tushirilishi holatiga yoki haqi to‘lanishi holatiga buxgalteriyada hisobga olinishi mumkin.

Har qanday sug‘urta tashkiloti ma‘lum haq evaziga o‘zining sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida sug‘urta shartnomasi, agar boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta mukofoti to‘langandan yoki mukofot bo‘lib to‘lansa, birinchi to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng kuchga kiradi. Demak, mazkur holatni tovarlarni sotish jarayoni bilan tenglashtiradigan bo‘lsak, sug‘urta tashkiloti sug‘urta xizmatlarining sotilishi hisobi faqatgina ularning haqi to‘lanish holatigagina olib borilishi mumkin.

Sug‘urta shartnomasi sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng kuchga kirar ekan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining tushumi 6280 “To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari” da olib boriladi. Bunda ushbu schyot Kassadagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000), Chet el valutasidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5200), Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5100) bilan korrespondensiyalanishi mumkin. Masalan,

**Debet 5010 (5110,5210) – Kredit 6280**

Ma‘lumki, sug‘urta mukofotlari o‘zaro kelishuvga asosan bir martada emas, ma‘lum davrlar oralig‘ida bo‘lib to‘lanishi ham mum-

kin bo‘ladi. Mazkur holatda sug‘urtalanuvchi mukofotning bir qismini to‘lagandan so‘ng turli sabablarga ko‘ra sug‘urta shartnomasini tugatish to‘g‘risida ariza berishi yoki sug‘urtalanuvchi navbatdagi sug‘urta mukofotini o‘z vaqtida to‘lamasligi oqibatida shartnoma o‘z kuchini yo‘qotishi va sug‘urtalovchi to‘langan sug‘urta mukofotlariga proporsional ravishda majburiyatni olib borishi mumkin. Bunday hollarda ham kelib tushgan sug‘urta mukofotlari 6280 schyotda aks ettiriladi va davriy to‘lanadigan mukofotlar har bir to‘lov amalga oshirilganda hisobga olib boriladi.

Yuqoridagilardan tashqari 6280 schyot kredit bo‘yicha quyidagi schyotlar bilan ham korrespondensiyalanishi mumkin:

- sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan schyotlar (6030);
- to‘lanadigan dividendlarni hisobga oluvchi schyotlar (6610);
- xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar (6710).

Quyidagi provodka orqali sug‘urta tashkilotining o‘z xodimlari tomonidan ular bilan tuzilgan sug‘urta shartnomasiga asosan to‘langan sug‘urta mukofotlari aks ettiriladi:

#### **Debet 6710 – Kredit 6280**

Quyidagi provodka orqali esa ta‘sischilarga tegishli dividendlar evaziga ular bilan tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini ushlab qolish aks ettiriladi:

#### **Debet 6610 – Kredit 6280**

Ushbu provodka orqali sug‘urta tashkiloti tomonidan sug‘urta qoplamasini to‘lashda sug‘urtalanuvchi tomonidan to‘lanmagan sug‘urta mukofotining ushlab qolinishi aks ettiriladi:

#### **Debet 6030 – Kredit 6280**

### **3.2. To‘liq rasmiylashtirilmagan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini hisobga olish**

To‘liq rasmiylashtirilmagan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini hisobga olish tartibiga to‘xtalishdan avval sug‘urta shartnomasini rasmiylashtirish tartibini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchining yozma yoki og'zaki arizasiga asosan tuziladi. Sug'urta shartnomasining yozma shaklda tuzilmasligi uning kuchga ega emasligi bilan ifodalanadi. Yozma shaklda sug'urta shartnomasini tuzishni talab etmaydigan yagona istisno holati davlat majburiy sug'urtasida vujudga keladi. Bunda sug'urtalash shartlari va tartibi, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar qonunchilik asosida belgilanadi.

Sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalanuvchi quyidagilarga majburdir:

- barcha sug'urtalanayotgan obyektlarni sanab o'tishi, agar hayot sug'urtasi bo'lsa, barcha sug'urtalanuvchilarni sanab o'tish;
- sug'urta shartnomasida nazarda tutilayotgan sug'urta hodisasining xarakteri to'g'risida ma'lumot berish;
- mulkiy sug'urtada sug'urtalanayotgan obyektning qiymatini yoki mulkiy manfaatlarining maksimal qiymatini ko'rsatishi;
- sug'urta obyekti bo'yicha sug'urta hodisasining yuz berish ehtimoliga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni sug'urtalovchiga ko'rsatish.

Agar sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng sug'urta hodisasining ehtimolligi yoki uning natijasida etadigan zararning hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sug'urtalanuvchi tomonidan yolg'on tarzda sug'urtalovchiga yetkazilganligi ma'lum bo'lsa, sug'urtalovchi muddatidan oldin sug'urta shartnomasini bekor qilishni talab etish huquqiga ega.

Mulkiy sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalovchi mulkni ko'rikdan o'tkazishi yoki uning haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida maxsus ekspertlarni jalb qilish huquqiga ega. Hayotni sug'urtalash shartnomasini tuzishda sug'urtalovchi sug'urtalanuvchidan sog'lig'ining haqiqiy holatini aniqlash maqsadida meditsina ko'rigidan o'tishni talab etishi mumkin.

Tomonlar sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urta obyektlarning ro'yxati, sug'urta hodisalarining turlari, sug'urta summasi va sug'urta shartnomasining amal qilish muddati borasida o'zaro kelishuvga erishishlari zarur. Ushbu sanab o'tilgan shartlar sug'urta shartnomasining muhim shartlari hisoblanib, sug'urta shartnomasida albatta keltirilgan bo'lishi qonunchilik asosida talab etiladi.

Sug'urta obyektining sug'urta summasini belgilashda, ushbu sug'urta summasining sug'urta obyektining qiymatidan oshib ketmasligiga e'tibor qaratish zarur.

Mol-mulkning haqiqiy qiymatini aniqlashning asosiy ikki turi mavjud:

Birinchisi, mulkning sug'urta shartnomasini tuzish sanasi holatiga balans qiymatini olish. Mazkur qiymat mulkning balansdagi qiymati va qonunchilik asosida unga hisoblangan eskirishning qayta baholanishi hisobga olingan holdagi farqi asosida hisoblanadi.

Ikkinchi usulda sug'urtalanayotgan mulkni sotib olish xarajatlarini eskirishni hisobga olgan holda qiymati belgilanadi.

Sug'urta obyektining qiymati sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng o'zgartirilishi mumkin emas, faqatgina obyektning qiymatini baholashda sug'urtalovchini sug'urtalanuvchi tomonidan chalg'itish holatlari yuz bergan holatlar bundan mustasno.

Tadbirkorlik risklarini sug'urtalashda sug'urta summasi yetkazilishi mumkin bo'lgan sug'urta zararining maksimal hajmidan oshib ketishi mumkin emas. Agar mulkiy sug'urtada yoki tadbirkorlik riskini sug'urtalashda sug'urta summasi etishi mumkin bo'lgan sug'urta zararining maksimal hajmidan oshib ketsa, sug'urta shartnomasi sug'urta summasining maksimal sug'urta zararidan oshiqroq qismida kuchga ega bo'lmaydi.

Hayot sug'urtasi va fuqarolik javobgarligini sug'urtalashda sug'urta summasi tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan belgilanadi.

Sug'urta objekti to'g'risida sug'urtalanuvchi tomonidan berilgan ma'lumotlar va sug'urta hodisasining ehtimolligini hisobga olgan holda sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi asosida to'lanadigan sug'urta mukofotining summasini va to'lash tartibini belgilaydi.

Sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchining arizasi asosida ikki tomonlama imzolangan shartnoma yoki sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini berish orqali ham tuzilishi mumkin. Sug'urta polisini olgan shaxs sug'urtalash shartlari va talablari bilan rozi ekanligini namoyon etadi.

Sug'urta shartnomasidagi sug'urtalash shartlari va talablari sug'urtalovchi tomonidan tuzilgan tasdiqlangan va Moliya vazirligi sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan deponent qilingan sug'urta qoidalarida belgilanishi mumkin. Bunda sug'urtalash shart-

lari sug'urta polisining orqa tomonidan ko'rsatiladi yoki alohida shartnomaga ilova qilinadi. Shuningdek, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'zaro kelishgan holatda standart sug'urta shartnomalarining ba'zi jihatlariga o'zgartirishlar kiritgan holda shartnoma tuzishlari ham mumkin.

Sug'urta qoidalarida yuqorida keltirilgan sug'urtalashning muhim shartlaridan tashqari quyidagilar keltirilgan bo'lishi lozim:

- sug'urta shartnomasi bo'yicha tomonlarning o'zaro majburiyatlari, shuningdek, sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlar;

- sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta hodisasining yuz berish ehtimolligiga ta'sir etuvchi voqealarning sodir bo'lganligi to'g'risida sug'urtalovchiga xabar berish tartibi va shartlari;

- sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasining sodir bo'lganligi to'g'risida sug'urtalovchiga xabar berish tartibi va shartlari;

- sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasini berish to'g'risidagi da'volarni ko'rib chiqish va uni to'lashni rad etish shartlari va tartibi;

- sug'urta shartnomasining shartlariga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritish tartibi;

- sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi va shartlari.

Sug'urta shartnomasi unda ko'rsatilgan muddatdan yoki sug'urta mukofoti to'langan kundan kuchga kiradi. Lekin sug'urtalovchi sug'urta mukofoti to'lanmasdan oldin sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug'urta javobgarligini olib bormaydi.

Ba'zi sug'urta tashkilotlari sug'urta polislarini rasmiylashtirishning quyidagi tartibini amalga oshirib boradilar.

Odatda, sug'urta polisi sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasi tuzish to'g'risida bergan arizasi asosida rasmiylashtiriladi. Mazkur ariza ikki nusxada tayyorlanadi. Uning bir nusxasi sug'urta tashkilotida qoladi ikkinchisi esa sug'urta mukofoti to'lash tartiblari ko'rsatilgan holda sug'urtalanuvchiga qaytariladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta tashkilotiga sug'urta mukofotini to'laydi. Sug'urta mukofoti to'langandan so'ng belgilangan muddatda

sug'urta tashkiloti sug'urta polisini rasmiylashtiradi va sug'urtalanuvchiga taqdim etadi.

Bunday holatda sug'urta mukofotini qabul qilib olish quyidagi provodka asosida hisobga olinadi:

**Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 6330**

**“Sug'urtalanuvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari”**

Sug'urta polisining rasmiylashtirilishi va sug'urtalanuvchiga taqdim etilishi quyidagi provodka bilan hisobga olinadi;

**Kredit 6330 “Sug'urtalanuvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari” – Kredit 6280**

Mazkur tarzda provodkalarini amalga oshirish, odatda, sug'urta tashkilotlari tomonidan yuklarni sug'urtalashda amalga oshiriladi. Chunki mazkur holatda, yuklarni sug'urtalashda ariza berilgandan so'ng sug'urta tashkiloti uchun yuklarni ko'rikdan o'tkazish va tegishli ma'lumotlarni olishi uchun vaqt talab qilinadi. Bunday ma'lumotlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- yukning aniq nomi, uning o'rami og'irligi va hajmi;
- konosament va boshqa yuk tashish hujjatlarining sanasi va raqamlari;
- transport turi (dengiz transportida kemanding tonnaji va qurilgan yili sanasi);
- yukni jo'natish tartibi;
- yukni jo'natish sanasi va riskni baholash uchun kerakli boshqa ma'lumotlar.

Ko'p hollarda sug'urtalanuvchi barcha savollarga bir vaqtning o'zida javob topa olmaydi. Shu bilan birga, sug'urta shartnomasi to'lov amalga oshirilgandan so'ng kuchga kiradi. Shuning uchun sug'urta tashkilotlari taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlar asosida dastlabki sug'urta mukofotini hisoblab chiqib dastlabki sug'urta shartnomasini tuzishi mumkin. Bunday shartnomaning asosiy sharti shundaki, sug'urtalanuvchi belgilangan vaqt davomida sug'urtalovchiga sug'urta riski darajasini aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlarni taqdim etishi kerak. Ushbu ma'lumotlar taqdim etilgandan so'ng yakuniy sug'urta mukofoti hisoblab chiqiladi va yakuniy sug'urta shartnomasi tuziladi.

Agar sug'urtalanuvchi tomonidan kerakli ma'lumotlar taqdim etilmasa, yoki sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini to'lashni rad



etsa, sug'urta shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi va sug'urta mukofoti qaytarilib beriladi. Bundan tashqari, yakuniy hisoblangan sug'urta mukofoti dastlabki sug'urta mukofotidan kam bo'lsa, ortiqcha summa sug'urtalanuvchiga qaytarib beriladi.

Yuqorida keltirilgan tadbirlarni buxgalteriyada aks ettirish tartibini ko'rib chiqamiz.

Dastlabki sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng sug'urtalanuvchi ma'lum miqdorda sug'urta mukofotini to'lashi zarur. Mazkur holatda sug'urta shartnomasining to'liq rasmiylashtirilmaganligini hisobga olib quyidagi provodkani berish mumkin:

**Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 6330**

**“Sug'urtalanuvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari”**

Agar sug'urta shartnomasi tuzilmasa, sug'urta mukofotlari sug'urtalanuvchiga to'liq qaytariladi:

**Debet 6330 “Sug'urtalanuvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari” – Kredit 5000 (5100,5200)**

Agar yakuniy sug'urta shartnomasi tuzilib, ortiqcha to'langan sug'urta mukofoti qaytarilishi zarur bo'lgan holda, qaytariladigan summaga yuqoridagi provodka amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, yakuniy sug'urta shartnomasi tuzilishi bilan sug'urta mukofoti summasiga quyidagi provodka beriladi:

**Debet 6330 – Kredit 6280**

Agar yakuniy sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng sug'urta mukofoti dastlabkisidan ortiq bo'lsa, dastlabki mukofot uchun yuqoridagi provodka, yetishmagan summa uchun esa quyidagi provodka amalga oshiriladi:

**Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 6280.**

### **3.3. Bosh shartnomalar bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarini hisobga olish**

Amaliyotda ba'zi hollarda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 928-moddasida nazarda tutilgan tartibda Bosh polis bo'yicha sug'urtalash amalga oshiriladi. Bunda bir turdagi tovarlarning turli vaqtlarda yetkaziladigan partiyalari sug'urtalanishi sug'urta shartnomasida belgilab o'tiladi.

Sug'urta tashkiloti bilan tuzilgan sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchining butun tovar oborotiga tegishli sug'urta mukofoti sug'urtalanuvchiga bo'nak sifatida o'tkazilib berilishi mumkin. Bo'nakning to'liq summasiga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 6330**

Keyinchalik har bir partiya tovar uchun rasmiylashtirilgan polisda ko'rsatilgan summaga bo'nakning hajmi kamaytiriladi:

**Debet 6330 – Kredit 6280**

Bosh sug'urta shartnomasining muddati tugashi bilan depozitning foydalanilmay qolgan summasi sug'urtalanuvchiga qaytarib beriladi:

**Debet 6330 – Kredit 5000 (5100,5200)**

Ba'zi hollarda bosh polis bo'yicha sug'urtalash shartnomalarida shartnoma muddatining tugashi bilan depozit qoldig'iga nisbatan kelishilgan foizda daromad ham hisoblanishi mumkin. Foizlarni belgilash qarzdorlikmunosabatlariga xos ravishda amalga oshiriladi, lekin depozit qoldig'i qarz sifatida hisobga olinmaydi.

### **3.4. Sug'urta agentlari va brokerlari bilan olib boriladigan hisob-kitoblarni amalga oshirish**

Ma'lumki, sug'urta agentlari o'z faoliyatini faqatgina o'zi emas, balki sug'urta agentlari va brokerlari orqali ham amalga oshirishi mumkin. Agar sug'urta agentining vazifasi faqatgina sug'urtalanuvchini topish shartnoma tuzish uchun sug'urta tashkilotiga olib kelish bo'lganda ular bo'yicha qo'shimcha hisob-kitoblarni amalga oshirish talab etilgan bo'lardi.

Lekin sug'urtalovchi bilan sug'urta agenti o'rtasida tuzilgan o'zaro agentlik kelishuviga asosan sug'urta agenti sug'urtalovchining nomidan sug'urta shartnomasini tuzishi va o'z vakolati doirasida sug'urta mukofotlarining summalarini belgilashi hamda to'langan sug'urta mukofotlarini qabul qilishi mumkin. Sug'urta agenti sug'urta mukofotlarini sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazib beradi.

Qonunchilikka asosan sug'urta shartnomasi agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti to'langan-

dan soʻng kuchga kiradi. Bunda sugʻurta agenti bilan tuzilgan sugʻurta shartnomasining toʻlovi sanasi sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta agentiga sugʻurta mukofotining oʻtkazilgan sanasi hisoblanadi. Shuning uchun sugʻurta mukofotlarining sugʻurtalovchiga kelib tushgan sana emas, balki sugʻurtalanuvchining hisob raqamidan olingan sana sugʻurta mukofotining toʻlangan sanasi sifatida hisobga olinadi.

Sugʻurta mukofotlarining kelib tushishi 6280 schyotda hisobga olib boriladi. Lekin sugʻurta mukofotining toʻlovi amalga oshirilib, hamon sugʻurta tashkilotining kassasiga yoki hisob raqamiga kelib tushmagan taqdirda ularga quyidagicha provodka berish notoʻgʻri hisoblanadi:

**Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 6280**

Sugʻurta agenti va brokerlari bilan hisob-kitoblarni 6040 schyot “Sugʻurta agentlari va brokerlariga toʻlanadigan schyotlar” va 4040 schyot “Sugʻurta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar”da amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Shuning uchun sugʻurta agenti tomonidan sugʻurta shartnomasi tuzilganligi toʻgʻrisida xabar berilgandan soʻng sugʻurta mukofotining butun summasiga quyidagi provodkani berish maqsadga muvofiq:

**Debet 4040 – Kredit 6280**

Agentlik kelishuviga asosan sugʻurta agenti belgilangan muddatda sugʻurtalovchiga sugʻurta mukofotini oʻtkazib beradi:

**Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 4040**

Agentlik shartnomasi asosida sugʻurta agenti sugʻurta shartnomasini tuzganligi sababli, tegishli komission mukofotlarni oladi. Komission mukofotlarning summasiga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 2010 “Sugʻurta ishini yuritish xarajatlari” – Kredit 6040**

Haqiqatda toʻlangan sugʻurta mukofotlari quyidagi provodka orqali hisobga olinadi:

**Debet 6040 – Kredit 5000 (5100,5200)**

Agar sugʻurta agentiga oʻz komission mukofotlarini oʻzi hisoblashiga ruxsat berilgan boʻlsa, sugʻurta agenti kelib tushgan sugʻur-

ta mukofotlaridan o'ziga tegishli komission mukofotlarni chegirgan holda sug'urta tashkilotiga o'tkazib berishi mumkin. Ushbu holatda komission mukofotlarni hisobdan chiqarish quyidagi provodkalar orqali amalga oshiriladi:

**Debet 4040 – Kredit 6280**

O'tkazilgan sug'urta mukofoti summasiga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 4040**

Sug'urta agentiga to'lanadigan komission mukofotga quyidagicha provodka berish orqali hisoblanadi:

**Debet 2010 – Kredit 6040**

Sug'urta agenti tomonidan ushbu qolingani komission mukofot summasiga quyidagi tartibda hisobdan chiqariladi:

**Debet 6040 – Kredit 4040**

Bu holat sug'urta brokerlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda ham kuzatiladi.

**Tayanch so'zlar**

- ♦ *To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomasi*
- ♦ *To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash bo'yicha sug'urta qoplamalari*
- ♦ *To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari*
- ♦ *Bosh polis yoki shartnoma bo'yicha sug'urtalash*
- ♦ *Sug'urta vositachilari*
- ♦ *Komission mukofotlar*
- ♦ *Ish yuritish xarajatlari*
- ♦ *Sug'urtalanuvchilar bilan hisob-kitoblar*
- ♦ *To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash bo'yicha sug'urta qoplamalari*
- ♦ *Xodimlarga ish haqi to'lash bo'yicha hisob-kitoblar*
- ♦ *Sug'urta agenti*
- ♦ *Sug'urta brokeri*

## Nazorat savollari

1. Sug'urta shartnomasi qachondan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi?
2. Davriy to'lanadigan sug'urta mukofotlari hisobda qanday aks ettiriladi?
3. Sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish tartibi qanday?
4. To'liq rasmiylashtirilmagan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini hisobga olish tartibini tushuntirib bering.
5. Qanday hollarda sug'urta shartnomasi bekor etilishi mumkin?
6. Sug'urtalovchi sug'urta mukofoti to'lanmasdan oldin sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, sug'urta javobgarligini olib boradimi?
7. Yuklarni sug'urtalashda sug'urta qildiruvchidan qanday ma'lumotlarni olish talab etiladi?
8. Sug'urta shartnomasining to'liq rasmiylashtirilmaganligini hisobga olishda qanday schyotlardan foydalaniladi?
9. Bosh shartnomalar bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarini hisobga olish tartibini aytib bering.
10. Sug'urta agentlari va brokerlari bilan olib boriladigan hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?
11. Xodimlarga ish haqi to'lash bo'yicha hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?

## **IV bob. SUG‘URTA SHARTNOMALARINI TUZISHDA IMTIYOZ VA CHEGIRMALAR BERISH VA TO‘LANGAN SUG‘URTA MUKOFOTLARINI SUG‘URTA AGENTLARI, BROKERLARI HAMDA SUG‘URTALANUVCHINING BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH**

### **4.1. Sug‘urta shartnomalarini tuzishda imtiyoz va chegirmalar berishni hisobga olish**

Sug‘urta munosabatlarida sug‘urtalovchilar ba‘zan ko‘p yillik mijozlari uchun sug‘urta hodisalari yuz bermagan taqdirda ularni rag‘batlantirish maqsadida, yangi sug‘urta shartomasini tuzishda ba‘zi imtiyozlar va chegirmalar berishi mumkin. Sug‘urtalovchi belgilangan sug‘urta tarifidan pastroq tarifda sug‘urtalanuvchiga beradigan chegirmasi, sug‘urtalovchi foydasi hisobidan amalga oshiriladi deb hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday ekan, sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta shartnomasini tuzishda sug‘urtalanuvchiga beradigan imtiyoz yoki chegirmasi 9050 “Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” schyoti yordamida quyidagi tartibda hisobga olinadi.

Eng avvalo, belgilangan tarif stavkasi asosida sug‘urta mukofotining hisobga olinishi quyidagi provodka asosida amalga oshiriladi:

**Debet 4030 – Kredit 6280**

Bir vaqtning o‘zida berilayotgan imtiyoz yoki chegirma summasiga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 9050 “Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan  
chegirmalar” – Kredit 4030**

Yuqoridagilarga muvofiq ravishda sug‘urtalanuvchi tomonidan to‘langan sug‘urta mukofoti (chegirma chiqarib tashlangan holda) quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

**Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 4030**

Ko‘rinib turibdiki, berilayotgan chegirmalar sug‘urtalovchining daromadi hisobidan amalga oshirilishi mantiqqa to‘g‘ri keladi. Chunki sug‘urta tashkiloti chegirma ko‘rinishida bergan imtiyoz xarajatlari o‘z zimmasiga oladi.

#### **4.2. Sug‘urta agentlari va brokerlarining buxgalteriya hisobida ular tomonidan to‘plangan va to‘langan sug‘urta mukofotlarini aks ettirish**

Ma‘lumki, sug‘urta agentlari va brokerlari sug‘urta bozorining vositachilari bo‘lib, ulardan sug‘urta agenti ham jismoniy, ham yuridik shaxs bo‘lishi mumkin. Sug‘urta brokeri esa faqatgina yuridik shaxs bo‘lishi talab etiladi. Agar vositachilar yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadigan bo‘lsa, albatta o‘z buxgalteriya hisobini yuritishlari zarur hisoblanadi. Sug‘urta vositachilari ko‘p hollarda sug‘urtalovchilarning buxgalterlaridan sug‘urta mukofotlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish borasida maslahatlashib boradilar. Chunki sug‘urta mukofotlarini sug‘urta vositachilarining buxgalteriya hisobida aks ettirishning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Shuning uchun mazkur tartibni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Hozirda Respublikada sug‘urta agentlari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2003-yil 28-yanvarda tasdiqlangan “Sug‘urta agentlari to‘g‘risida”gi Nizom asosida yuritadi.

Ushbu Nizomga muvofiq tomonlar o‘rtasida o‘zaro hisoblashishning aniq tartibi sug‘urta agenti va sug‘urtalovchi o‘rtasida tuzilgan topshiriq shartnomasi (agentlik bitimi) da ko‘rsatiladi. Topshiriq shartnomasi (agentlik bitimi) da quyidagilar nazarda tutiladi:

- sug‘urtalovchi va sug‘urta agenti o‘rtasida o‘zaro hisoblashish tartibi;
- sug‘urta mukofotlarini sug‘urtalovchining hisob raqamiga o‘tkazish muddati;
- komission to‘lovlarning hajmi, to‘lash sharti va tartibi;
- agentning xizmat majburiyatlari.

Sug‘urta agentlari mehnatiga haq to‘lash sug‘urta agenti tuzgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari (to‘lovlari) dan komissiya puli shaklida amalga oshiriladi. Komissiya puli

miqdori sug'urta agenti tuzgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalovchi hisob raqamiga tushgan sug'urta mukofotlari (to'lovlari) ning 25 foizidan oshishi mumkin emas.

Agar topshiriq shartnomasi (agentlik kelishuvi) da tomonlar tarafidan boshqasi e'tirof etilmagan bo'lsa, sug'urta agentining faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sug'urta shartnomasini tuzish uchun mijozlarni qidirish;
- sug'urta qilinuvchilarga sug'urtalovchi haqida ma'lumot berish;
- sug'urta qilinuvchilarga sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan, ularni qiziqtiradigan sug'urta xizmatlarining turi bo'yicha maslahatlar berish, sug'urta qilinuvchilarga turli shartlarda sug'urta shartnomalarini tuzish imkoniyatini tushuntirish va sug'urta riskini maksimal qoplash va zararlarni qoplash bo'yicha sug'urta qilinuvchining xarajatlarini kamaytirish maqsadida shartnoma-ning eng optimal turini tanlagan holda sug'urta shartnomasini tuzish imkoniyatini tushuntirish hamda umuman sug'urta bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatish;
- sug'urta qilinuvchidan qabul qilinadigan risk va sug'urta tariflarini asoslanishi haqida sug'urtalovchiga ko'proq axborot berish maqsadida risk, sug'urta qilinuvchi to'g'risida oldindan axborot to'plash;
- sug'urta shartnomasini (sug'urta polisi) imzolash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlash yoki rasmiylashtirish, sug'urtalovchi nomidan shartnomani imzolash;
- sug'urta shartnomasi davomida risk shartlarining jiddiy o'zgarishiga taalluqli bo'lgan har qanday ma'lumotni sug'urtalovchi tomonidan o'z vaqtida olinishini ta'minlash;
- sug'urta da'vosining kelib chiqishida va ularning tartibga solinishi jarayonida sug'urta qilinuvchi va sug'urtalovchi o'rtasida o'zaro axborotlar almashishini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash;
- tegishli kelishuv asosida sug'urtalovchining hisobidan va topshirig'i bo'yicha sug'urta to'lovlarni amalga oshirish;
- berilgan vakolatlarga muvofiq sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta badallarini (mukofotlarini) inkassatsiya qilish;
- sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, ammo ushbu Nizomning 4-bandida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari boshqa xizmatlar.



Quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

– tegishli litsenziya olmagan sug‘urtalovchilar nomidan sug‘urta shartnomasini tuzish;

– belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmagan chet el sug‘urta tashkilotlari bilan O‘zbekiston Respublikasi hududida sug‘urta bo‘yicha sug‘urta shartnomasini tuzish bilan bog‘liq bo‘lgan vositachilik faoliyati, agar O‘zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro shartnomalarda boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa.

Sug‘urta agenti o‘z faoliyati davomida sug‘urta mukofotlarini to‘playdi, belgilangan tartibda sug‘urtalovchiga o‘tkazib berdi. Sug‘urta agentlari tomonidan sug‘urta mukofotlarining kelib tushishini 6990 schyot “Boshqa majburiyatlar” da olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda naqd kelib tushgan sug‘urta mukofotlariga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 5010 – Kredit 6990**

Muvofiq ravishda naqdsiz shaklda to‘langanda:

**Debet 5110 – Kredit 6990**

Sug‘urta agentining sof tushumiga faqatgina 9030 schyot “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” da hisobga olinadi. Lekin shuni ham hisobga olish zarurki, sug‘urta agenti sug‘urta mukofotini sug‘urtalovchiga o‘tkazmasdan oldin komission mukofotlarni o‘z hisobiga ololmaydi. Shuning uchun agentlik shartnomasida belgilangan muddatlar sug‘urta mukofotlari sug‘urtalovchiga o‘tkaziladi va bu operatsiyaga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 6990 – Kredit 5110**

Keyinchalik shartnomada belgilangan muddat va tartibda sug‘urtalovchi sug‘urta agentining hisobiga kommissiya mukofotlarini o‘tkazib hisblaydi vaberadi hamda bu sug‘urta agentining sof tushumi hisoblanadi:

**Debet 4010 “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” – Kredit 9030**

**Debet 5110 – Kredit 4010**

Agar sug'urta vositachisi sifatida o'z nomidan sug'urta shartnomalarini tuzuvchi sug'urta agenti komission mukofotlarni o'zida ushlab qolishi mumkin bo'lsa, avvalo, komission mukofot miqdori hisoblanadi:

**Debet 4010 – Kredit 9030**

Sug'urta agenti sug'urta mukofotlarini o'z komissiya mukofotini chegirib qolgan holda sug'urtalovchiga o'tkazib beradi:

**Debet 6990 – Kredit 5110**

Sug'urta brokerining komissiya sifatidagi olib qolgan summasi sof tushum sifatida hisobga olinadi:

**Debet 6990 – Kredit 4010**

Yuqorida keltirilgan operatsiyalar sug'urta brokerlarining buxgalteriya hisobida ham xuddi shunday yuritilish mumkin.

**4.3. To'langan sug'urta mukofotlarining hisobini sug'urtalanuvchining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi**

Sug'urta munosabatlarida yuridik va jismoniy shaxslar sug'urtalanuvchilar sifatida ishtirok etishlari mumkin. Sug'urtalanuvchilar yuridik shaxs bo'lgan taqdirda ular sug'urta mukofotlarini o'z buxgalteriya hisoblarida aks ettirishlari zarur bo'ladi. Bundan tashqari, sug'urtalovchining o'zi ham o'z mulki yoki xodimlarini boshqa sug'urtalovchida sug'urtalagan bo'lishi mumkin. Bunday hollar uchun schyotlar rejasida 6510 schyot "Sug'urta bo'yicha to'lovlar" mo'ljallangan. Sug'urta mukofotlari sifatida hisoblangan summalar mazkur schyotning kredit tomonida aks ettirilib, quyidagi schyotlar bilan korrespondensiyalanishi mumkin:

– ishlab chiqarish xarajatlari (2010 "Asosiy ishlab chiqarish", 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish", 2510 "Umumishlab chiqarish xarajatlari", Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (9400) va boshqalar);

– sug'urta to'lovlarining boshqa manbalari (Kapital qo'yilmalarini hisobga oluvchi schyotlar (0800), Kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (3100)).

**Debet 2010 (2310, 2510 va boshq.) – Kredit 6510**

Sug'urta tashkilotlarida korrespondensiyalanuvchi schyotlar sifatida quyidagilardan foydalanadilar:

- ish yuritish xarajatlari (2010);
- boshqa xarajatlar (9410 schyot “Sotish xarajatlari” 9420 schyot “Ma'muriy xarajatlar” 9430 schyot “Boshqa operatsion xarajatlar”);
- boshqa sug'urta to'lovlarining manbalari (Kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (3100) va boshqalar).

Sug'urta mukofotlarini o'tkazib berish, o'z navbatida, quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

### **Debet 6510 – Kredit 5110 (5210)**

Agar sug'urtalanuvchi sifatida biror tashkilot, muassasa yoki korxonalarining ishchilari qatnashsa va sug'urta mukofotlari ushbu tashkilot, muassasa yoki korxonadan to'lanadigan bo'lsa, sug'urta mukofotlarining hisobini amalga oshirishda 6710 schyot “Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar” dan foydalaniladi va quyidagi provodka qo'llaniladi:

### **Debet 6710 – Kredit 6510**

Sug'urta mukofotlarini chet el valutasida to'lash holatlarida buxgalteriya hisobi milliy valuta so'mda amalga oshiriladi. Faqatgina chet davlatlarning sug'urta tashkilotlari bilan hisob-kitoblar amalga oshirilganda sug'urta mukofotlari chet el valutasida o'tkazilishi mumkin.

### **Tayanch so'zlar**

- ♦ *Imtiyoz va chegirmalar*
- ♦ *Sug'urta agentlari va brokerlarining buxgalteriya hisobi*
- ♦ *Sug'urtalanuvchining buxgalteriya hisobi*
- ♦ *Foydani ishlatish*
- ♦ *Ish yuritish xarajatlari*
- ♦ *Topshiriq shartnomasi (agentlik bitimi)*
- ♦ *Komission to'lovlarning hajmi, to'lash sharti va tartibi*
- ♦ *Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar*
- ♦ *Boshqa xarajatlar*
- ♦ *Boshqa sug'urta to'lovlarining manbalari*

## Nazorat savollari

1. Sugʻurta shartnomalarini tuzishda imtiyoz va chegirmalar berish tartibi qanday hisobga olinadi?
2. Berilayotgan imtiyoz yoki chegirma summasiga qanday provodka beriladi?
3. Berilayotgan chegirmalar sugʻurtalovchining qanday mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi?
4. Komission toʻlovlarning hajmi, toʻlash sharti va tartibini tushuntirib bering.
5. Sugʻurta agentlarining faoliyati qanday meʼyoriy hujjatlar yordamida tartibga solinadi?
6. Sugʻurta agentlari va brokerlarining ular tomonidan toʻp-langani va toʻlangan sugʻurta mukofotlarini buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
7. Sugʻurta agenti va sugʻurtalovchi oʻrtasida tuzilgan topshiriq shartnomasida nimalar nazarda tutiladi?
8. Sugʻurta agentlari mehnatiga haq toʻlash tartibi qanday va buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
9. Sugʻurta agentlari tomonidan sugʻurta mukofotining kelib tushishi va boshqa operatsiyalar buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
10. Sugʻurta toʻlovlarning manbalari nimalardan iborat?

## **V bob. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI SUG‘URTALASH BO‘YICHA SUG‘URTA QOPLAMALARINING HISOBI**

### **5.1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta qoplamalarini buxgalteriya hisobiga olish**

Ma‘lumki, sug‘urta shartnomasiga asosan sug‘urtalovchi shartnomada belgilangan hodisa yuz bergan taqdirda sug‘urtalanuvchiga sug‘urta qoplamasini to‘lab berishi lozim. Sug‘urta shartnomasida belgilangan sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urtalanuvchi zudlik bilan sug‘urtalovchini xabardor qilishi zarur hisoblanadi. Xuddi shunday majburiyat sug‘urta shartnomasi to‘g‘risida xabardor bo‘lgan naf oluvchining zimmasida ham mavjud, agar u sug‘urta qoplamasini olish huquqidan foydalanmoqchi bo‘lsa, albatta, sug‘urta hodisasi to‘g‘risida sug‘urtalovchini xabardor qilishi shart.

Sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta hodisasi yuz berganligi to‘g‘risidagi arizani olgandan so‘ng sug‘urta voqeasini izchil o‘rganadi va ushbu voqea sug‘urta hodisasi sifatida tan olinsa, shartnoma belgilangan tartibda va shartlarda sug‘urta qoplamasini to‘lab berishi mumkin. Sug‘urta qoplamasi quyidagilar asosida amalga oshiriladi: sug‘urta shartnomasi, sug‘urtalanuvchining arizasi, qonunchilik asosida tuzilgan sug‘urta dalolatnomasi, sug‘urtalovchining xodimlari va huquqni muhofaza qilish organlari, banklar, meditsina muassasalari va boshqa tashkilotlarning ma‘lumotlari hamda sug‘urtalovchi tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida to‘plangan ma‘lumotlar.

Sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urtalanuvchi yoki naf oluvchilar, u vafot etgan taqdirda, uning merosxo‘rlari sug‘urta qoplamasini olish uchun quyidagilarni sug‘urtalovchilarga taqdim etadi:

- sug‘urta shartnomasi (sug‘urta polisi, sertifikat, kvitansiya);
- murojaat etganning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar;
- agar murojaat qilgan shaxs sug‘urtalanuvchi, sug‘urta qildiruvchi yoki naf oluvchi bo‘lmasa, uning sug‘urta shartnomasiga aloqadorligini tasdiqlovchi hujjatlar;

– agar sugʻurtalanuvchi, sugʻurta qildiruvchi yoki naf oluvchi vafot etgan taqdirda, murjaat etgan shaxsning uni merosxoʻri ekanligini tasdiqlovchi hujjat.

Ariza va sugʻurta dalolatnomasiga quyidagilar ilova qilinadi:

– sugʻurta hodisasini keltirib chiqargan hodisaning yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

– sugʻurta hodisasi yuz berishining sabablarini tasdiqlovchi hujjatlar (tegishli vakolatli organlarning dalolatnoma, maʼlumotnoma va xulosalari) va guvohlarning koʻrsatmalari;

– mulkning zararlanishi va sugʻurta hodisasining oʻzaro bogʻliqligini tasdiqlovchi hujjatlar (zararlangan mulkni koʻrikdan oʻtkazgandan soʻng tegishli vakolatli organlarning va sugʻurtalovchi vakillarining xulosalari);

– yetkazilgan zararning hajmini tasdiqlovchi hujjatlar;

– ushbu ishga bevosita aloqador boʻlgan boshqa hujjatlar.

Odatda, sugʻurtalovchi yetkazilgan zararni toʻlash uchun kerakli boʻlgan hujjatlarning tarkibini oʻzi belgilaydi va sugʻurta qoplamasini toʻlash toʻgʻrisida qaror qabul qiladi. Sugʻurta kompaniyasi sugʻurta hodisasini oʻrganayotgan davrda quyidagilar aniqlangan taqdirda, sugʻurta qoplamasini toʻlashni rad etishi mumkin:

– sugʻurta hodisasi sugʻurtalanuvchi yoki naf oluvchi tomonidan ataylab sodir etilganda;

– sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta obyektini toʻgʻrisida sugʻurtalovchiga notoʻgʻri maʼlumotlar taqdim etilganda;

– sugʻurta hodisasining yuz berish ehtimolligini oshishi holatlarini sugʻurtalanuvchi oʻz vaqtida sugʻurtalovchiga xabar qilmaganda;

– sugʻurta hodisasi toʻgʻrisida sugʻurtalovchiga oʻz vaqtida xabar berilmaganligi natijasida sugʻurta hodisasini oʻrganishning imkoni boʻlmagan taqdirda;

– sugʻurta hodisasining holatlari va yetkazilgan zararning hajmi toʻgʻrisida sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurtalovchiga notoʻgʻri maʼlumot berilganda;

– sugʻurta hodisasi yuz berganda sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta zararini kamaytirish maqsadida chora-tadbirlar qasddan amalga oshirilmagan taqdirda;

– sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta hodisasining yuz berishida aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan da’vosini o‘z ixtiyori bilan qaytarib olishi yoki da’vo qilishda yetarli harakatlarni amalga oshirmagan taqdirda;

– sug‘urta shartnomasida belgilangan boshqa sug‘urta qoplamasining to‘lanmasligini tasdiqlovchi holatlar.

Quyidagi hodisalar oqibatida yetkazilgan zararlar qoplanmaydi:

– yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zararlanish;  
– harbiy harakatlar, manyovrlar yoki harbiy tadbirlar;  
– fuqarolar urushi, qo‘zg‘olon yoki turli ommaviy tartibsizliklar;

– musodara qilish, olib qo‘yish yoki davlat organlarining topshirig‘iga binoan sug‘urtalangan mulkning yo‘qotilishi.

Sug‘urtalovchi sug‘urta qoplamasini to‘lashni rad etganligi to‘g‘risida sug‘urtalanuvchini shartnomada belgilangan muddatlarda xabardor qilishi shart. Sug‘urtalovchining sug‘urta qoplamasini to‘lashni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda sug‘urtalanuvchi tomonidan sudlarga da’vo kiritilishi mumkin.

Boshqa barcha holatlarda sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi va qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda sug‘urta qoplamasini to‘lashi shart.

Har qanday holatda sug‘urta qoplamasi sug‘urtalangan mulkning haqiqiy qiymatidan oshib ketmasligi zarur. Agar sug‘urta shartnomasida belgilangan sug‘urta puli sug‘urta obyektining haqiqiy qiymatidan past bo‘lsa, yetgan zarar bo‘yicha sug‘urta qoplamasining hajmi sug‘urta puliga proporsional tarzda kamaytiriladi.

Ushbu holatni misol asosida ko‘rib chiqamiz.

Avtomobilning bozor narxi 6900 so‘m. Sug‘urta shartnomasi tuzilganda uning sug‘urta puli 6000 so‘m etib ko‘rsatilgan. Sug‘urta hodisasining yuz berishi natijasida avtomobilga 1035 so‘mlik zarar yetdi, ya’ni avtomobilga yetgan zararning to‘liq summasi 1035 so‘mni tashkil etadi.

Lekin sug‘urtalovchi tomonidan to‘lanadigan sug‘urta qoplamasi  $6000/6900 \cdot 1035 = 900$  so‘mni tashkil etadi.

Agar sug‘urtalovchi bir obyektни turli sug‘urtalovchilarda sug‘urtalagan taqdirda u barcha sug‘urtalovchilardan sug‘urta qopla-

malarini olishi mumkin, lekin olingan sug'urta qoplamalari yetkazilgan zararining haqiqiy summasidan oshib ketmasligi zarur.

Mazkur holatni misolda ko'rib chiqamiz. Yuqorida keltirilgan avtomobil egasi o'z avtomobilini ikki sug'urtalovchida muvofiq ravishda sug'urta pulini 3500 va 4000 so'm qilib sug'urta shartnomasida belgilagan. Ko'rinib turibdiki, sug'urta pullarining yig'indisi avtomobilning haqiqiy qiymatidan yuqori.

Birinchi sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini quyidagi hajmda to'laydi:

$$3500/(3500+4000)*1035=483 \text{ so'm}$$

Ikkinchi sug'urtalovchi  $4000/(3500+4000)*1035=552$  so'm sug'urta qoplamasini to'laydi.

Sug'urtalovchi tomonidan yetkazilgan zarardan ko'proq summani undirish holatining oldini olish uchun sug'urtalovchilar tegishli tashkilotlarning xulosalarining asl nusxalarini talab etadilar.

Sug'urta shartnomasida sug'urta zararining sug'urtalanuvchi tomonidan qoplanadigan qismi – franshiza ham ko'rsatilishi mumkin. Franshizaning shartli va shartsiz turlari mavjud. Shartli franshiza belgilangan sug'urtalovchi sug'urta zarari franshizaning summasidan oshgan taqdirda to'liq qoplab beradi aks holda esa zarar qoplanmaydi. Shartsiz franshiza o'rnatilganda sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lashda franshiza sifatida belgilangan summani chegirib qoladi.

Yuqorida keltirilgan misol asosida franshizaning hisoblanishini ko'rib chiqamiz. Misolda sug'urta obyektining qiymati 6900 so'm, uning sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta puli 6000 so'm. Agar sug'urta shartnomasida franshiza 500 so'm sifatida belgilansa va u shartli bo'lsa, sug'urta qoplamasining summasi quyidagicha bo'ladi:

$$6000/6900*1035=900 \text{ so'm}$$

Agar franshiza shartsiz hisoblansa sug'urta qoplamasining hajmi:

$$900-500=400 \text{ so'm bo'ladi.}$$

Agar sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi natijasida yetgan zararining bir qismini aybdor shaxslardan undirsa, sug'urta qoplamasi o'sha summaga kamaytiriladi.



Shaxsiy sugʻurta shartnomalarida sugʻurta summasi boshqa sugʻurta shartnomalari boʻyicha belgilangan sugʻurta summalaridan qatʻi nazar toʻliq amalga oshiriladi.

Javobgarlikni sugʻurtalashda sugʻurta qoplamasi uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar doirasida arizada koʻrsatilgan jabrlanuvchiga toʻlab beriladi. Agar jabrlanuvchi vafot etgan boʻlsa, sugʻurta qoplamasi uning merosxoʻrlariga toʻlab beriladi. Faqatgina sugʻurta qildiruvchi sugʻurta zararini oʻzi qoplagan taqdirda sugʻurta qoplamasi toʻlanmasligi mumkin. Agar u naf oluvchiga sugʻurta qoplamasini toʻlab berganligi toʻgʻrisidagi hujjatlarni taqdim etsa, bunday holda sugʻurta qoplamasi sugʻurtalanuvchining oʻziga toʻlab beriladi.

Hayot sugʻurtasida sugʻurta hodisasi sifatida maʼlum yoshgacha yashash yoki shaxsning vafot etishi hisoblanadi. Bunda sugʻurtalanuvchiga shartnomada belgilangan sugʻurta qoplamasi sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurtalovchiga sugʻurta shartnomasi taqdim etilganda toʻlab beriladi.

Sugʻurtalovchi sugʻurta shartnomasida belgilangan muddatlarda sugʻurtalanuvchiga sugʻurta qoplamasini toʻlab berishi shart. Sugʻurtalovchi sugʻurta qoplamasini oʻz vaqtida toʻlab bermagan taqdirda, u sugʻurtalanuvchiga jarima (penya) toʻlaydi. Jarima hajmi shartnoma va qonunchilik asosida belgilanadi.

Sugʻurta tashkilotida sugʻurta qoplamalarini hisobga olish uchun sugʻurta tovonlarini hisobga oluvchi schyotlar (2200) moʻljallangan. Ushbu schyotlarga quyidagilar kiradi:

2210 schyot “Hisobot davrida toʻgʻridan-toʻgʻri sugʻurta boʻyicha sodir boʻlgan sugʻurta hodisalari boʻyicha sugʻurta tovonlari”;

2220 schyot “Muddatidan oldin tugatilgan shartnomalar boʻyicha sugʻurta tovonlari”.

Yuqoridagilardan tashqari oʻtgan davrlarda yuz bergan sugʻurta hodisalari boʻyicha toʻlanadigan sugʻurta qoplamalari quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

9431 schyot “Toʻgʻridan-toʻgʻri sugʻurta boʻyicha oʻtgan davrlarda sodir boʻlgan, oʻtgan davrda xabar qilingan sugʻurta hodisalari boʻyicha sugʻurta tovonlari”;

9432 schyot “To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha o‘tgan davrlarda sodir bo‘lgan, lekin hisobot davrida xabar qilingan sug‘urta hodisalari bo‘yicha sug‘urta tovonlari”.

Mazkur schyotlarning debetida haqiqatda to‘langan sug‘urta qoplamalari aks ettiriladi va u pul to‘lanadigan schyotlar bilan korrespondensiyalanadi:

**Debet 2210 (2220,9431,9432) – Kredit 5010 (5110,5210)**

Agar sug‘urta hodisasi yuz berib, sug‘urtalovchiga xabar qilingan bo‘lsa va ushbu hodisa bo‘yicha tekshiruv ishlari muddati uza-yib, sug‘urta qoplamasini o‘sha davrda to‘lash imkonini bermagan taqdirda, sug‘urtalovchi sug‘urta qoplamalarini kafolatlash maqsadida maxsus zaxira “Xabar qilingan lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”ni shakllantiradi. Bu zaxira buxgalteriya hisobida 8030 schyot “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi” da hisobga olinadi. Ushbu schyotning kredit tomoni 9250 schyot “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”ning debet tomoni bilan korrespondensiyalanadi.

**Debet 9250 – Kredit 8030**

Agar sug‘urtalanuvchining arizasida sug‘urta zararining summasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, u holda yuqoridagi provodka yetishi mumkin bo‘lgan zararining barcha summasiga amalga oshiriladi. Shunday qilib, schyot 8030 schyot “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”da o‘tgan davrlarda sug‘urtalovchiga xabar qilingan sug‘urta zararlari bo‘yicha majburiyatlari va zararlarni qoplash xarajatlari aks ettiriladi.

Sug‘urta hodisasining yuz berganligi tasdiqlangan taqdirda, sug‘urta qoplamasining hisoblangan summasiga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 2210 (2220,9431,9432) – Kredit 6030**

Sug‘urta qoplamasi to‘langan vaqtda quyidagi provodka beriladi:

**Debet 6030 – Kredit 5010 (5110,5210)**

Bir vaqtning o‘zida sug‘urta qoplamasining to‘lanishi bilan quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 8030 – Kredit 9250**

Shuningdek, sugʻurta qoplamasini amalga oshirish bilan bogʻliq sugʻurtalovchining xarajatlari 2010 schyot “Sugʻurta ishini yuritish xarajatlari” orqali hisobga olinadi:

**Debet 2010 – Kredit 5010 (5110,5210)**

Agar sugʻurta qoplamasining summasi yoki zararlarni bartaraf etish xarajatlari xabar qilingan zararlar summasidan kam boʻlsa, sugʻurta qoplamasi summasiga berilgan

**Debet 6030 – Kredit 5010 (5110,5210)**

va

**Debet 8030 – Kredit 9250**

hamda zararlarni bartaraf etish xarajatlari summasiga berilgan

**Debet 2010 – Kredit 5010 (5110,5210)**

va

**Debet 8030 – Kredit 9250**

Provodkalaridan soʻng xabar qilingan zarar va haqiqatda toʻlangan sugʻurta qoplamalar oʻrtasidagi farq summasiga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 8030 – Kredit 9250**

Agar xabar qilingan sugʻurta hodisasi tekshirilgandan soʻng sugʻurta qoplamasini toʻlash sugʻurtalovchi tomonidan rad etilsa, sugʻurtalovchi majburiyatining oʻz-oʻzidan kamayishi ham quyidagi provodka orqali hisobga olinadi:

**Debet 8030 – Kredit 9250**

Mazkur provodka xabar qilingan zarar va uni bartaraf etish xarajatlari summasiga beriladi.

Agar sugʻurta shartnomasida sugʻurta mukofotini boʻlib toʻlash nazarda tutilgan boʻlsa, navbatda toʻlanishi lozim boʻlgan sugʻurta mukofoti sugʻurtalanuvchi tomonidan kechiktirilayotgan holatda sugʻurta hodisasi yuz bersa, sugʻurtalovchi navbatdagi kechiktirilgan sugʻurta mukofotini hisobga olishga haqqi bor. Bunda sugʻurta qoplamasi summasi kechiktirilgan sugʻurta mukofoti summasiga kamaytiriladi va kamaytirilgan summaga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 6030 – Kredit 6280**

Sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta summasidan past summada sug'urta qoplamasi to'langandan so'ng sug'urta shartnomasi amal qilishini to'xtatmaydi. Lekin sug'urta summasi to'langan sug'urta qoplamasi summasiga kamaytiriladi.

Sug'urtalanuvchi sug'urta summasini tiklash maqsadida qo'shimcha ravishda sug'urta mukofotini sug'urtalovchiga to'lashi va shartnoma bo'yicha sug'urta summasini tiklashi mumkin.

Agar sug'urtalanuvchi sug'urta qoplamasini olish maqsadida bergan arizasida sug'urta summasini tiklash xohishini bildirgan taqdirda, sug'urtalovchi to'lanayotgan sug'urta qoplamasidan sug'urta summasini tiklovchi sug'urta mukofoti summasini olib qolish huquqiga ega. Bu operatsiya quyidagi provodka asosida amalga oshiriladi:

### **Debet 6030 – Kredit 6280**

Yuqoridagiga muvofiq ravishda 6030 schyot "Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar"ning debeti bo'yicha hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta shartnomalari asosida berilgan ssudalar bo'yicha qarzdorlikni qoplash bo'yicha 4070 "Hayot sug'urtasi bo'yicha berilgan ssudalar bo'yicha olinadigan schyotlar"ning krediti bilan korrespondensiyalanishi mumkin.

Sug'urta shartnomalari bo'yicha ssudalar berish tartibi va shartlarini ko'rib chiqamiz. Ssudalar asosan uzoq muddatli hayot sug'urtasi shartnomalari bo'yicha beriladi. Bu shartnomalarda quyidagilar sug'urta hodisasi hisoblanishi mumkin:

- sug'urtalanuvchining vafot etishi;
- sug'urtalanuvchining shartnomada belgilangan muddatgacha yashashi:

Shuningdek:

- sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda pensiyalar yoki annuitetlarning to'lanishi:

- sug'urta shartnomasining amal qilish davrida joriy to'lovlarini amalga oshirish.

Hayotni sug'urtalash shartnomalari bir yildan kam bo'lmagan muddatga tuziladi. Hayot sug'urtasida sug'urta mukofoti aktuar hisoblar asosida, vafot etish darajasi jadvali va investitsion daromadlar darajasini hisobga olgan holda hisoblab chiqiladi. Bunda

sug'urta mukofoti sug'urta summasiga juda yaqin bo'ladi. Masalan, 30 yoshli shaxs bilan 3 yilga tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha, agar yillik daromadlilik darajasi 20% bo'lsa, sug'urta mukofoti sug'urta summasining 55-60% ini tashkil etadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq sug'urtalovchilar sug'urta mukofotlari evaziga shakllantirgan sug'urta zaxiralari mablag'larini daromad olish maqsadida investitsiya qilishi mumkin. Sug'urta zaxiralarni investitsiya qilishning bir yo'nalishi bu hayot sug'urtasi shartnomalari bo'yicha ssudalar berish hisoblanadi. Sug'urtalovchi tomonidan ssudalar faqatgina u bilan hayot sug'urtasi shartnomasini tuzgan sug'urtalanuvchilargagina berilishi mumkin. Ssudalarning ta'minoti sifatida sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi bo'yicha shakllantirgan sug'urta summasi hisoblanadi.

Sug'urtalanuvchilarga ssudani berish jarayoni quyidagi provodka bilan hisobga olinadi:

### **Debet 4070 – Kredit 5010 (5110)**

Agar sug'urta qoplamasi to'lanishi zarur bo'lgan taqdirda, sug'urtalanuvchi tomonidan ssuda o'z vaqtida qoplanmagan bo'lsa, ssuda qarzi va foizi sug'urta qoplamasidan chegirib qolinadi. Ushbu operatsiya quyidagi provodkalar orqali hisobga olinadi:

### **Debet 6030 – Kredit 4070**

Ssuda bo'yicha foizlar summasiga

### **Debet 6030– Kredit 4830 “Olinadigan foizlar”**

Ma'lumki, qayta sug'urtaga berilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalovchi sug'urtalanuvchining oldida to'liq sug'urta summasi doirasida javobgar bo'ladi. Shuning uchun barcha provodkalar to'liq sug'urta summasiga nisbatan amalga oshiriladi.

Moliyaviy natijalarni aniqlashda 2210-2220 schyotlarning debet tomonidagi qoldig'i 2010 “Sug'urta ishini yuritish xarajatlari” schyotining debetiga o'tkaziladi:

### **Debet 2010 – Kredit 2210 (2220)**

Hisobot davrining oxirida 9431 “To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, o'tgan davrda xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari” schyoti va 9432 “To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'l-

gan, lekin hisobot davrida xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari" schyoti 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti bilan bog'langan holda yopiladi:

**Debet 9910 – Kredit 9431 (9432)**

## **5.2. Noto'g'ri tartibda to'langan sug'urta qoplamalarini qaytarishni buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish tartibi**

Agar sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchining sug'urta qoplamasini olish huquqidan mahrum qiluvchi holatlar aniq ko'rsatilgan bo'lsa va sug'urta qoplamasi sug'urtalanuvchiga to'langanidan so'ng mazkur holatlar sug'urtalovchi tomonidan aniqlangan taqdirda, sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi yoki sug'urtalovchidan sug'urta qoplamasini qaytarib undirib olish uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish huquqiga ega. Bunda sug'urta qoplamasining qaytarilishi ikki tomonning o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Agar sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchi noto'g'ri tartibda to'langan sug'urta qoplamasini to'lashni rad etsa, sug'urtalovchi qonunchilikda belgilangan tartibda qoplamani undirish choralari ko'rishi mumkin.

Noto'g'ri to'langan sug'urta qoplamasini qaytarib olinishini buxgalteriya hisobida qayd etish tartibini ko'rib chiqamiz.

2200 schyotda sug'urtalovchi tomonidan to'langan sug'urta qoplamalari hisobi olib boriladi. Shuning uchun sug'urta hodisasi yuz bermaganligi aniqlangandan so'ng to'langan sug'urta qoplamalarini qaytarib olish da'vosi ushbu schyotning kreditida aks ettiriladi. Bunda sug'urta qoplamasi qaytarib olinganligi sababli, xarajatlarning kamayganligi aks etadi. Lekin ushbu sug'urta summalarini to'g'ridan-to'g'ri quyidagi provodka orqali hisobga olish noo'rin hisoblanadi:

**Debet 5010 (5110,5210) – Kredit 2210 (2220)**

Mazkur jarayonni 4030 schyot "Sug'urtalanuvchilardan olinadigan schyotlar" orqali hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Debet 4030 – Kredit 2210 (2220)**

Sug'urta summasining olinishi

## **Debet 5010 (5110,5210) – Kredit 4030.**

### **5.3. Sugʻurtalanuvchi zararlangan mulkdan sugʻurtalovchining foydasiga voz kechganda sugʻurta qoplamasini hisobga olish**

Sugʻurta shartnomasida sugʻurtalanuvchining zararlangan mol-mulkidan sugʻurtalovchining foydasiga voz kechishi va sugʻurta qoplamasini toʻliq sugʻurtalovchidan olishi belgilangan boʻlishi mumkin. Tegishli sugʻurta qoplamalarini hisobga olish quyidagicha amalga oshiriladi.

Qonunchilikka muvofiq mol-mulkka yetgan zararining summasi uning qiymatidan oshishi mumkin emas.

Toʻgʻridan-toʻgʻri sugʻurtalangan mulkka yetkazilgan zarar denganda uni sugʻurta hodisasi sodir boʻlgunga qadar mavjud boʻlgan holatini tiklash uchun qilingan xarajatlar yoki agar obyektning tiklashning imkoni boʻlmagan taqdirda qaytadan yangisini qurish yoki sotib olish bilan bogʻliq xarajatlar tushuniladi. Shuning uchun 2200 schyot “Sugʻurta tovonlarini hisobga oluvchi schyotlar”da sugʻurta zararining ekspertlar tomonidan aniqlangan va sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurta summasini hisobga olgan holda toʻlanadigan sugʻurta qoplamalari summalari aks ettiriladi.

Sugʻurtalanuvchi bilan hisob-kitoblarning olib borilishini 6030 schyot “Sugʻurtalanuvchilarga toʻlanadigan schyotlar” bilan korrespondensiyalangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **Debet 2200 – Kredit 6030**

Agar sugʻurta shartnomasida zararlangan mulk boʻyicha huquqlarning sugʻurtalovchiga oʻtkazilishi nazarda tutilgan boʻlsa, tomonlarning oʻzaro qabul topshirish dalolatnomasi asosida mulkning sugʻurtalovchiga berilishi quyidagi provodkalar asosida amalga oshiriladi.

Qabul topshirish dalolatnomasining imzolanishiga:

#### **Debet 4030 – Kredit 2200**

Mulkning sugʻurta tashkiloti tomonidan qabul qilib olinishi:

#### **Debet 0100 (1000) – Kredit 4030**

Bunda sug'urtalovchiga o'tkazilayotgan mulkning asosiy vosita, material yoki arzon baholi tez eskiruvchi predmetlar sifatida hisobga olinishiga bog'liq bo'ladi. Mazkur provodkada sug'urta obyektining summasi va unga yetkazilgan zarar o'rtasidagi farq sug'urta obyektining haqiqiy qiymatini aks ettiradi.

6030 schyotning kredit saldosida sug'urtalovchining majburiyati va uning to'liq sug'urta summasini to'lashi aks ettiriladi.

**Debet 6030 – Kredit 5010 (5110,5210)**

Agar sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi to'liq to'lab berilgandan so'nggina mulkka bo'lgan huquqlarning sug'urtalovchi foydasiga rasmiylashtirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, sug'urta qoplamasining to'lovi quyidagicha hisobga olinadi:

**Debet 6030 – Kredit 5010 (5110, 5210)**

va ushbu schyotning debet saldosida sug'urtalanuvchining sug'urtalovchiga o'tkazib beradigan majburiyati hisoblanadi.

Xalqaro dengiz sug'urtasi amaliyotida shartnomalarning tuzilishida ba'zan sug'urtalovchining birinchi sug'urta qoplamasini to'lashi bilan o'z majburiyatidan voz kechishi belgilanishi mumkin. Bunda sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'liq amalga oshirishi mumkin. Ushbu holatlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi quyidagicha amalga oshiriladi.

Haqiqatda yetkazilgan zarar summasiga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 6030 – Kredit 5010 (5110, 5210)**

Sug'urta qoplamasining qolgan qismi sug'urtalovchining foydasi evaziga amalga oshiriladi:

**Debet 8710 – Kredit 6030**

**Debet 6030 -Kredit 5010 (5110,5210)**

**Tayanch so'zlar**

- ♦ *To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash bo'yicha sug'urta qoplamalari*
- ♦ *Sug'urtalanuvchi zararlangan mulkdan sug'urtalovchining foydasiga voz kechishi*
- ♦ *Noto'g'ri tartibda to'langan sug'urta qoplamalarini qaytarish*
- ♦ *Yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zararlanish*



- ♦ *Harbiy harakatlar, manyovrlar yoki harbiy tadbirlar*
- ♦ *Fuqarolar urushi, qo'zg'olon yoki turli ommaviy tartibsizliklar*
- ♦ *Musodara qilish, olib qo'yish yoki davlat organlarining topshirig'iga binoan sug'urtalangan mulkning yo'qotilishi*
- ♦ *Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar*

### **Nazorat savollari**

1. To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash deganda nimani tushunasiz?
2. Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qoplamasini to'lash qanday hujjatlarga asosan amalga oshiriladi?
3. Qanday hollarda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasini o'rganayotgan davrda sug'urta qoplamasini to'lashni rad etishi mumkin?
4. Qanday hodisalar oqibatida yetkazilgan zararlar sug'urta tashkilotlari tomonidan qoplanmaydi?
5. Sug'urta qoplamasi sug'urtalangan mulkning haqiqiy qiymatidan oshib ketishi mumkinmi?
6. "Franshiza" tushunchasiga ta'rif bering, uning qanday turlari mavjud?
7. Javobgarlikni sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Sug'urta qoplamalari va sug'urta tovonlari buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
9. Noto'g'ri tartibda to'langan sug'urta qoplamalarini qaytarish tartibi qanday amalga oshiriladi?
10. Sug'urtalanuvchi zararlangan mulkdan sug'urtalovchining foydasiga voz kechganda sug'urta qoplamasini hisobga olish tartibini tushuntirib bering.

## **VI bob. SUG‘URTA QOPLAMALARINING SUG‘URTALANUVCHILAR BUHALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRILISHI VA REGRESS DA’VOLAR BO‘YICHA OPERATSIYALARNI HISOBGA OLISH**

### **6.1. Sug‘urtalovchi tomonidan to‘lanadigan sug‘urta qoplamlarining sug‘urtalanuvchi buxgalteriya hisobida aks ettrilishi**

Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida 4890 schyot “Boshqa debitorlar qarzlari” keltirilgan bo‘lib, unda sug‘urta hodisasi oqibatida yetkazilgan zararlar hisobdan chiqariladi, kredit tomonida esa ushbu zararlar aks ettiriladi va bu schyot quyidagi schyotlar bilan korrespondensiyalanishi mumkin:

**Debet 4890 – Kredit 0800 (2010, 2310, 2510 va boshq.)**

Sug‘urtalanuvchi sifatida ishtirok etayotgan sug‘urta kompaniyasi uchun ham sug‘urta hodisalari bo‘yicha yo‘qotishlar ushbu provodka orqali aks ettiriladi:

**Debet 4890 – Kredit 0800 (2010, 2310, 2510 va boshq.)**

Sug‘urta kompaniyasidan olingan sug‘urta qoplamlari 5110 yoki 5210 schyotlarning debeti va 4890 schyotning krediti orqali amalga oshiriladi:

**Debet 5110 (5210) – Kredit 4890**

Sug‘urta qoplamasi evaziga qoplanmaydigan zarar 9720 schyot “Favqulodda zararlar”ga o‘tkaziladi:

**Debet 9720 – Kredi 4890**

Agar sug‘urta shartnomasi asosida biror korxonaning xodimlari korxonaga hisobiga sug‘urtalangan va shartnomada sug‘urta qoplamasini korxonaning hisob raqamiga o‘tkazib berilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, ushbu holatlar ham yuqoridagi schyotlarda aks ettirilib, 6710 schyot “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar” bilan korrespondensiyalanadi.

## **Debet 6710 – Kredit 4890**

Agar uzoq muddatli hayot sugʻurtasi shartnomalari sugʻurta mukofotlari korxonasi, tashkilot yoki har qanday ish beruvchi tomonidan toʻlangan taqdirda, soliq qonunchiligida soliqqa tortish holatlari nazarda tutilgan boʻlsa, soliqlarning ajratilishi quyidagi provodka bilan aks ettiriladi:

**Debet 4890 – Kredit 6410** schyot “**Budjetga toʻlovlar boʻyicha qarz (turlari boʻyicha)**”

### **6.2. Regress daʼvolar boʻyicha hisob-kitoblarni hisobga olish**

Mol-mulk sugʻurtasi boʻyicha sugʻurta qoplamasi toʻlangandan soʻng, sugʻurta zararini yetkazganlikda aybdor boʻlgan shaxsdan uni qoplashni talab etish huquqi sugʻurtalovchiga oʻtadi. Sugʻurtalovchiga oʻtgan sugʻurta zararini qoplashni talab etish huquqi belgilangan qonunchilik va qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Sugʻurta qoplamasi toʻlangandan soʻng, sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchi yoki naf oluvchiga zarar yetkazgan shaxs oʻrtasida hech qanday yangi majburiyat turi vujudga kelmaydi. Sugʻurtalanuvchiga zarar yetkazganlik uchun javobgar shaxsning majburiyati sugʻurtalanuvchining oldida qanday boʻlgan boʻlsa, sugʻurtalovchining ham oldida shunday majburiyatga ega boʻladi.

Shuning uchun sugʻurtalanuvchilar mol-mulkka egalik qilish huquqini sugʻurtalovchiga oʻtkazishda barcha mulkka tegishli boʻlgan maʼlumotlar va hujjatlarni sugʻurtalovchiga taqdim etishi kerak. Sugʻurtalovchi mazkur hujjat va maʼlumotlar yordamida mulkka yetkazilgan zararni aybdor shaxslardan undirib olishi mumkin.

Agar sugʻurtalanuvchi javobgar shaxsdan sugʻurta zararini undirish huquqidan voz kechsa yoki uning aybi bilan sugʻurtalovchi tomonidan zararni undirishning imkoni boʻlmasa, sugʻurtalovchi sugʻurtalanuvchiga sugʻurta qoplamasini toʻlashni rad etishga haqli hisoblanadi. Agar sugʻurta qoplamasi toʻlangan boʻlsa, muvofiq ravishda tegishli sugʻurta qoplamasini qaytarishni talab qilishi huquqiga ega.

Sug'urta kompaniyasi tomonidan yetkazilgan zararni aybdor shaxslardan undirishni hisobga olinishi 4860 schyot "Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar" yordamida amalga oshiriladi. Mazkur schyotning debeti bo'yicha sud tomonidan belgilangan sug'urta kompaniyasiga qaytarilishi kerak bo'lgan summa aks ettiriladi. Aybdor shaxslarning yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga olishi ushbu schyotning 9330 schyot "Undirilgan jarma, penya va ustamalar" bilan korrespondensiyalangan holda hisobga olinadi.

### **Debet 4860 – Kredit 9330**

Ushbu da'volar bo'yicha kelib tushgan tushumlar 4860 schyotning kreditida aks ettiriladi:

### **Debet 5010 (5110, 5210) – Kredit 4860**

4860 schyot "Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar" bo'yicha analitik hisob-kitoblar har bir debitor sug'urta tashkiloti bo'yicha olib boriladi.

### **Tayanch so'zlar**

- ♦ *Regress da'volar*
- ♦ *Sug'urtalovchiga to'lanadigan sug'urta qoplamalari*
- ♦ *Sug'urtalanuvchining buxgalteriya hisobi*
- ♦ *Sug'urtalovchiga to'langan sug'urta qoplamalarini hisobga olish*

### **Nazorat savollari**

1. Sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamlari sug'urtalanuvchi buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
2. Sug'urtalanuvchi sifatida ishtirok etayotgan sug'urta kompaniyasi uchun sug'urta hodisalari bo'yicha yo'qotishlar qanday provodka orqali aks ettiriladi?
3. Regress da'volar deganda nimani tushunasiz?
4. Sug'urta kompaniyasi tomonidan yetkazilgan zararni aybdor shaxslardan undirish qanday hisobga olinadi?
5. "Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar" bo'yicha analitik hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?

## **VII bob. MUDDATIDAN OLDIN TUGATILGAN SHARTNOMALAR BO‘YICHA HISOB-KITOBLAR**

### **7.1. Muddatidan oldin sug‘urta shartnomasi tugatilganda tomonlarning o‘zaro munosabatlari**

Sug‘urta shartnomasi sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng kuchga kiradi. Sug‘urta shartnomasi unda ko‘rsatilgan muddat yoki sanagacha amal qiladi. Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi kuchga kirishidan avval sug‘urtalangan obyektga yetkazilgan zararni qoplash uchun javob bermaydi. Hattoki, obyektning zararlanganligi sug‘urta shartnomasi kuchga kirgandan so‘ng ma‘lum bo‘lgan bo‘lsa ham. Shuningdek, sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi tugagandan yoki muddatidan oldin tugatilgandan so‘ng sug‘urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug‘urta qoplamasini to‘lamaydi.

Sug‘urta shartnomasi quyidagi hollarda muddatidan oldin tugatilishi mumkin:

- sug‘urta muddati tugaganda;
- sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urtalanuvchi oldidagi majburiyatining to‘liq bajarilishi;
- sug‘urta shartnomasi kuchga kirgandan so‘ng sug‘urta hodisasining yuz berish ehtimolligi yo‘qolgan taqdirda.

Bunday hollarga quyidagilar kiradi:

- sug‘urta voqeasidan boshqa sabablarga ko‘ra sug‘urtalangan obyektning nobud bo‘lishi;
- tadbirkorlik riskini sug‘urtalagan shaxsning o‘z tadbirkorlik faoliyatini tugatishi.

Bunday hollarda sug‘urtalovchi sug‘urta muddatining qolgan qismi uchun tegishli bo‘lgan sug‘urta mukofotini o‘zining ish yuritish xarajatlarini chegirgan holda sug‘urtalanuvchiga qaytarib berishi zarur.

Bundan tashqari, sug‘urta shartnomasi sug‘urtalovchi yoki sug‘urtalanuvchining talabiga ko‘ra tugatilishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi oldindan tugatish maqsadini tomonlar oldindan xabar berishi lozim. Agar sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchi sug'urta shartnomasidan voz kechgan taqdirda, sug'urtalovchi sug'urta mukofotini qaytarmaslik huquqiga ega.

Sug'urtalovchilar sug'urtalanuvchilarni jalb qilish maqsadida o'zining sug'urta qoidalarida asosan hayotni sug'urtalashda, agar sug'urtalanuvchi muddatidan oldin sug'urta shartnomasini tugatishni talab qilsa, har qanday holatda tegishli sug'urta mukofotlarini qaytarish tartibi belgilaydilar.

Agar sug'urtalanuvchi sug'urtalovchining sug'urta qoidalarini buzganligi tufayli sug'urta shartnomasini tugatishni talab qilsa, bunday holatda sug'urtalovchi sug'urta mukofotining umumiy hajmini sug'urtalanuvchiga qaytarishi lozim.

Sug'urta shartnomasi sug'urtalovchining tashabbusi bilan tugatilganda, agar sug'urtalanuvchi sug'urta qoidalarini buzgan bo'lsa, (masalan, sug'urta riski oshgan taqdirda bu haqda sug'urtalovchini o'z vaqtida xabardor qilmagan taqdirda) sug'urtalovchi o'tgan muddatga tegishli sug'urta mukofotlarini olib qolishi mumkin. Sug'urta shartnomasi muddatidan oldin tugatilganda sug'urtalanuvchiga qaytariladigan tegishli sug'urta mukofoti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$VS = \frac{P * (N - M)}{N} - R$$

Bunda:

VS – sug'urta shartnomasi muddatidan oldin tugatilganda sug'urtalanuvchiga qaytariladigan sug'urta mukofoti;

P – shartnoma bo'yicha sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti;

N – sug'urta shartnomasining amal qilish muddati, kunlarda;

M – sug'urta shartnomasi kuchga kirgan kunda tugatilgan kungacha bo'lgan kunlar soni;

R – sug'urtalovchining sug'urta polisi, arizasi, blanklari bo'yicha, agentlik mukofotlari xarajatlari va boshqa shunga o'xshash xarajatlari summasi.

Agar sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini davriy ravishda to'lash belgilangan bo'lsa, navbatdagi sug'urta mukofoti vaqtida to'lanmaganligi uchun sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasining bekor qilinishida qaytariladigan sug'urta mukofotining hajmi qanday hisoblanadi?

Qoidaga muvofiq bunday hollarda navbatdagi to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti vaqtida to'lanmaganda, sug'urta shartnomasining muddati to'langan sug'urta mukofotlari hajmiga proporsional tarzda qisqartiriladi va sug'urta shartnomasining amal qilishi davom ettiriladi. Ushbu holatni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Sug'urtalanuvchi sug'urtalovchi bilan bir yilga sug'urta shartnomasini tuzdi va unda sug'urta mukofotining 50%i sug'urta shartnomasi tuzilgan paytda hamda qolgan 50%i sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan so'ng uch oy muddat davomida to'lanishi belgilandi. Shu vaqtning o'zida sug'urtalovchining sug'urtalash qoidalarida sug'urta shartnomasi bir yildan kam muddatga tuzilganda, masalan, 1 oyga tuzilganda sug'urta mukofotining 20%ini, 2 oyga tuzilganda 30%ini, 3 oyga tuzilganda 40%ini, 4 oyga tuzilganda 50%ini va 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 oylarga tuzilganda sug'urta mukofotining 90-95% ini birdaniga to'lashi belgilangan.

Bunday holda agar sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotining qolgan 50%ini uch oy davomida to'lamasa ham, yana 1 oy davomida sug'urta himoyasiga ega bo'ladi. Agar mazkur tartib sug'urta qoidalarida belgilanmagan bo'lsa, u holda sug'urta muddati sug'urta mukofotiga proporsional tarzda belgilanadi. Yuqoridagi misolda bu muddat 6 oyni tashkil etadi.

Sug'urta muddati tugagandan so'ng sug'urta shartnomasi o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi va u bo'yicha hech qanday to'lovlar amalga oshirilmaydi. Bundan tashqari, sug'urtalash qoidalarida muddatida to'lanmagan sug'urta mukofoti sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan taqdirda, sug'urta shartnomasining muddati uzaytirilishi nazarda tutilishi mumkin. Odatda, bunda sug'urtalanuvchi tomonidan har bir kechiktirilgan kun uchun penya to'lash tartibi shartnomada belgilangan bo'ladi.

Agar sug'urta shartnomasida navbatdagi sug'urta mukofoti vaqtida to'lanmagan taqdirda sug'urta shartnomasini shu zahoti tugatish

belgilangan bo'lsa, u holda sug'urtalovchi sug'urta mukofotining tegishli qismini o'zida saqlab qolishi mumkin. Ushbu holatda sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga qaytariladigan sug'urta mukofotining bir qismi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$VS = P - \frac{P_0 * M}{N} - R$$

Bunda:

$P_0$  – shartnomada belgilangan sug'urta mukofotining umumiy hajmi;

$P$  – sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti;

$N$  – sug'urta shartnomasining amal qilish muddati, kunlarda;

$M$  – sug'urta shartnomasi kuchga kirgan kunda tugatilgan kungacha bo'lgan kunlar soni;

$R$  – sug'urtalovchining sug'urta polisi, arizasi, blanklari bo'yicha, agentlik mukofotlari xarajatlari va boshqa shunga o'xshash xarajatlari summasi.

Boshqa sabablarga ko'ra sug'urta shartnomasi tugatilayotganda, sug'urta mukofotlari to'liq to'lanmagan bo'lsa ham, sug'urtalanuvchiga qaytariladigan sug'urta mukofotlari yuqoridagi usulda hisoblanadi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasi to'langandan so'ng shartnoma o'z amal qilishini davom ettiradi. Bunda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi summasiga kamaytiriladi. Agar sug'urta shartnomasida sug'urta hodisasi yuz bergandan so'ng, ya'ni sug'urta qoplamasi to'langandan so'ng shartnomaning tugatilishi belgilangan bo'lsa, sug'urtaning qolgan muddatiga tegishli sug'urta mukofoti ham sug'urta summasiga proporsional tarzda kamaytiriladi va qaytariladigan sug'urta mukofoti quyidagicha hisoblanadi:

$$VS = \frac{P * (N - M)}{N} * \frac{SS - V}{SS} - R$$

Bunda:

$SS$  – shartnoma bo'yicha sug'urta summasi;

$V$  – to'langan sug'urta qoplamasi;

$P$  – sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti;

$N$  – sug'urta shartnomasining amal qilish muddati, kunlarda;



M – sugʻurta shartnomasi kuchga kirgan kunda tugatilgan kungacha boʻlgan kunlar soni;

R – sugʻurtalovchining sugʻurta polisi, arizasi, blanklari boʻyicha, agentlik mukofotlari xarajatlari va boshqa shunga oʻxshash xarajatlari summasi.

Muddatidan oldin tugatilgan sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurtalanuvchilarga qaytariladigan sugʻurta mukofotlari 6030 “Sugʻurtalanuvchilarga toʻlanadigan schyotlar”ning debeti boʻyicha hisobga olib boriladi va quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 2010 – Kredit 6030**

Sugʻurta mukofotlarining qaytarib toʻlanishi quyidagicha hisobga olinadi:

**Debet 6030 – Kredit 5010 (5110,5210)**

Moliyaviy natijalarni aniqlashda qaytarilgan sugʻurta mukofotlarining summalari 9130 schyot “Koʻrsatilgan xizmatlarning tanarxi”ga oʻtkaziladi:

**Debet 9130 – Kredit 2010**

## **7.2. Sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta mukofotining bir qismi qaytarilishini hisobga olish**

Sugʻurtalanuvchi ham muddatidan oldin tugatilgan sugʻurta shartnomalari boʻyicha qaytarilgan sugʻurta mukofotlarini hisobga olib boradi. Ushbu shartnomalar boʻyicha qaytarilgan sugʻurta mukofotlari 4890 schyot “Boshqa debitorlar qarzlari”da hisobga olib boriladi:

**Debet 4890 – Kredit 9390**

Shundan soʻng ushbu summaning toʻlanishi:

**Debet 5110 – Kredit 4890**

Sugʻurtalanuvchi sifatida ishtirok etgan sugʻurtalovchilarda ham ushbu provodka quyidagi koʻrinishga ega boʻladi:

**Debet 5110 – Kredit 4890.**

## **Tayanch soʻzlar**

- ♦ *Muddatidan oldin sugʻurta shartnomasining tugatilishi*
- ♦ *Sugʻurta mukofotining qaytarilishida sugʻurtalovchining ulushi*
- ♦ *Sugʻurta mukofoti bir qismining qaytarilishi*
- ♦ *Sugʻurtalovchining shartnomani bekor qilishi holatlari*

## **Nazorat savollari**

1. Sugʻurta shartnomasi qanday hollarda muddatidan oldin tugatilishi mumkin?

2. Sugʻurta shartnomasi muddatidan oldin tugatilganda sugʻurta mukofotini toʻlash tartibi qanday amalga oshiriladi?

3. Qanday hollarda sugʻurta shartnomasi tugatilganda sugʻurtalovchi sugʻurta mukofotining umumiy hajmini sugʻurtalovchiga qaytarishi lozim?

4. Sugʻurta shartnomasi muddatidan oldin tugatilganda sugʻurtalanuvchiga qaytariladigan tegishli sugʻurta mukofoti qanday hisoblanadi?

5. Sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurta mukofotini davriy ravishda toʻlash belgilangan boʻlsa, navbatdagi sugʻurta mukofoti vaqtida toʻlanmaganligi uchun sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurta shartnomasining bekor qilinishida qaytariladigan sugʻurta mukofotining hajmi qanday hisoblanadi?

6. Sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurtalanuvchiga qaytariladigan sugʻurta mukofotining bir qismi qanday hisoblanadi?

7. Sugʻurta shartnomasida sugʻurta hodisasi yuz bergandan soʻng, yaʼni sugʻurta qoplamasi toʻlangandan soʻng shartnomaning tugatilishi belgilangan boʻlsa, qaytariladigan sugʻurta mukofoti qanday hisoblanadi?

8. Sugʻurta mukofotlarining qaytarib toʻlanishi buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?

## **VIII bob. QAYTA SUG‘URTAGA BERILGAN RISKLAR BO‘YICHA SUG‘URTA MUKOFOTLARINI HISOBGA OLISH VA ULAR BO‘YICHA HISOB-KITOBLAR**

### **8.1. Qayta sug‘urtalash bo‘yicha asosiy tushunchalar va uning mohiyati**

Ko‘p hollarda sug‘urtalovchilar barcha qabul qilingan risklar bo‘yicha sug‘urta qoplamalarini to‘lash masalasida muammoga duch kelishi mumkin. Katta hajmdagi zararlar sug‘urta tashkilotining faoliyatiga salbiy ta‘sir o‘tkazib, uning faoliyati tugatilishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasiga binoan “Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi o‘z zimmasiga olgan sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lash xavfi uning tomonidan to‘liq yoki qisman boshqa sug‘urtalovchida (sug‘urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalanishi mumkin”.

Qayta sug‘urtalash opretsiyalarining amalga oshirilishi natijasida risklarning ikki yoki undan ortiq sug‘urtalovchilar o‘rtasida taqsimlanishi vujudga keladi. Shunga muvofiq ravishda sug‘urta javobgarligi ham sug‘urtalovchilar o‘rtasida taqsimlanadi. Bu sug‘urtalanuvchi uchun sug‘urta zararini qoplash kafolatini ta‘minlash bilan birga sug‘urtalovchining moliyaviy ahvolidan yaxshilanishiga yordam beradi.

Qayta sug‘urtalash operatsiyalari sug‘urta shartnomalari asosida amalga oshirilib, ushbu shartnomalarning bir qancha turlari mavjud. Qayta sug‘urtalash quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: fakultativ qayta sug‘urtalash; obligatorli qayta sug‘urtalash; fakultativ-obligatorli qayta sug‘urtalash.

**Fakultativ qayta sug‘urtalashda** shartnoma har bir risk bo‘yicha alohida tuziladi. Bunda sug‘urtalovchi bir nechta sug‘urta turlari bo‘yicha risklarni qayta sug‘urtaga taklif qilishi va qayta sug‘urtalovchi taklif qilingan risklarni qayta sug‘urtaga o‘z ixtiyoridan kelib chiqib qabul qilishi mumkin.

**Obligatorli qayta sug'urtalashda** tomonlar uchun majburiy ahamiyatga ega qayta sug'urtalash shartnomasi tuziladi. Bunda sug'urtalovchi shartnomada belgilangan risklarni qayta sug'urtalashga berish va qayta sug'urtalovchi ushbu risklarni shartnomada belgilangan tartib va shartlarda qabul qilish majburiyatini oladi. Fakultativ – obligatorli qayta sug'urtalashda qayta sug'urtalanuvchi tomonidan lozim topilgan sug'urta turlari bo'yicha risklarning qayta sug'urtaga berilishi va qayta sug'urtalovchining ushbu risklarni qabul qilishi majburiy bo'lishi yoki qayta sug'urtalanuvchi tomonidan ma'lum sug'urta turlari bo'yicha risklarni qayta sug'urtalovchiga taklif etishi majburiy va qayta sug'urtalovchi o'z ixtiyoridan kelib chiqib ushbu risklarning ma'lum qismini qabul qilishi mumkinligi belgilanishi mumkin.

Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalarining quyidagi turlari mavjud:

- proporsional (kvotali) shartnoma;
- summalarning eksedenti shartnomasi;
- zararining eksedenti shartnomasi;
- zararlilikning eksedenti shartnomasi.

Proporsional qayta sug'urtalashda qayta sug'urtalovchi shartnomada belgilangan risklar bo'yicha ma'lum foizlardagi javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Ushbu holatni aniq misolda ko'rib chiqamiz.

Sug'urta kompaniyasi obligatorli kvotali qayta sug'urtalash shartnomasini tuzdi va bu shartnoma bo'yicha barcha risklarning asosida javobgarlikning 30%ini qayta sug'urtalovchiga o'tkazishi zarur.

Uchta sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'lib, ular bo'yicha javobgarlik muvofiq ravishda 5000, 3000 va 10000 AQSh dollarini tashkil etadi. Qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha birinchi sug'urta shartnomasi bo'yicha 1500, ikkinchi shartnoma bo'yicha 900, uchinchi shartnoma bo'yicha 3000 AQSh dollari miqdoridagi sug'urta javobgarligi qayta sug'urtaga o'tkazilishi lozim. Agar bir sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuz bersa, qayta sug'urtalovchi sug'urta zararining 30%ini qoplab berish majburiyatini oladi.

Summalarning eksedenti qayta sug'urtalash shartnomasida ma'lum belgilangan sug'urta summasi limitidan oshgan javobgarlikning qayta sug'urtalovchiga berilishi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan misol asosida ushbu qayta sug'urtalash shartnomasini ko'rib chiqamiz. Summalar eksedenti qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sug'urta summasining limiti 4000 AQSh dollari etib belgilangan.

Bunda birinchi shartnoma bo'yicha 1000 AQSh dollari, ya'ni bu 20%ni tashkil etadi, ikkinchi sug'urta shartnomasi bo'yicha javobgarlik limit miqdoridan kam bo'lganligi sababli, ushbu shartnoma bo'yicha javobgarlikning umumiy miqdori sug'urtalovchida qoldiriladi. Uchinchi sug'urta shartnomasi bo'yicha esa javobgarlikning 60%i qayta sug'urtaga beriladi. Shunga muvofiq ravishda sug'urta mukofoti ham hisoblanadi va sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta zararini qoplashda qayta sug'urtalovchi belgilangan ulushlarda ishtirok etadi.

Zararlar eksedenti qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha qayta sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganda shartnomada belgilangan zarar limitidan oshgan taqdirda sug'urta qoplamasini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Yuqorida keltirilgan misolga qaytamiz.

Qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha zararlar limiti 2000 AQSh dollari etib belgilandi. Birinchi sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta zarari 4000 AQSh dollarini, ikkinchi sug'urta shartnomasi bo'yicha 3000 va uchinchi sug'urta shartnomasi bo'yicha 1000 AQSh dollarini tashkil etdi. Bunday holda qayta sug'urtalovchi birinchi sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta zararining 2000 AQSh dollarini, ikkinchi sug'urta shartnomasi bo'yicha 1000 AQSh dollarini qoplab beradi. Uchinchi sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta zararining summasi limitdan kam bo'lganligi sababli, ushbu zarar qayta sug'urtalanuvchi tomonidan to'liq qoplanadi. Ushbu keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, qayta sug'urtalash shartnomasining bu turi to'g'ridan-to'g'ri shartsiz franshiza shartlariga o'xshash shartlarga ega. Qayta sug'urtalash mukofoti mazkur holatlarda tomonlarning kelishuviga asosan aniqlanadi.

Zararlilikning eksedenti shartlari asosida tuzilgan qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan qayta sug'urtalovchi shartnoma-

da belgilangan risklar bo'yicha sug'urta zarari belgilangan summadan ortsa, u zararning umumiy qismini qoplab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Masalan, agar qayta sug'urtalovchi sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta zarari 30%dan oshgan taqdirda, zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, u holda yuqorida keltirilgan misollar bo'yicha sug'urta qoplamasi quyidagicha hisoblanadi:

$(4000+3000+1000) - 0.3*(5000+3000+10000) = 2600$  AQSh dollari.

Bunda:

$5000+3000+10000 = 18000$  to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash bo'yicha shartnomalarning umumiy sug'urta summasi;

$4000+3000+1000=8000$  barcha to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta zararining summasi.

Mazkur holatda qayta sug'urta mukofoti tomonlarning kelishuviga asosan aniqlanadi.

Qayta sug'urtalash shartnomalariga tadbirkorlik risklarini sug'urtalash qoidalari qo'llaniladi va uning o'ziga xos shartlari mavjud.

Har qanday sug'urta shartnomasi singari qayta sug'urtalash shartnomasi ham yozma shaklda tuzilishi lozim. Qayta sug'urtalash shartnomasini tuzishda tomonlar quyidagilar borasida kelishuvga erishishlari zarur:

– qayta sug'urtalash obykti – fakultativ qayta sug'urtalash shartnomasida konkret to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomalari to'g'risida, yoki obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalari turlari to'g'risida;

– to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomasida va qayta sug'urtalash shartnomasida belgilanadigan sug'urta hodisalari to'g'risida;

– qayta sug'urta sug'urta berilayotgan riskning ulushi, sug'urta summasining hajmi;

– qayta sug'urtalash shartnomasining amal qilish muddati.

Odatda, qayta sug'urtalash shartnomasining amal qilish muddati to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomasining muddati yoki uning qismi bilan chegaralanadi. Qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalash shartnomasi amal qilishi davrida sodir bo'lgan sug'urta

hodisasi oqibatida yetgan zararni o'z ulushi doirasida qoplab berishi zarur. Mazkur qoplama qayta sug'urtalanuvchi tomonidan qachon to'lanishidan qat'i nazar amalga oshirilishi zarur.

Mazkur holatni misolda ko'rib chiqamiz. Sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchining transportida tashiladigan yukning sug'urtasini amalga oshiradi va riskning ma'lum qismini qayta sug'urtaga o'tkazdi. Yuk tashish muddati ikki hafta. Qayta sug'urtalash shartnomasining muddati ham muvofiq ravishda yuk tashish muddatini qamrab oladi, ya'ni ikki hafta. Yo'l transport hodisasi oqibatida sug'urtalangan mulkka sezilarli darajada zarar yetgan. Yo'l transport hodisasining yuz berish sabablarini o'rganish va zararning hajmini aniqlashga bir oy vaqt sarf bo'ldi. Sug'urta kompaniyasi sug'urtalanuvchining da'vosini qanoatlantirib, ushbu hodisani sug'urta hodisasi deb tan olib sug'urta zararini qoplab berdi. Sug'urta qoplamasini to'lash davriga kelib qayta sug'urtalash shartnomasining muddati tugatilganligiga qaramasdan qayta sug'urtalovchi zararining o'ziga tegishli ulushini qoplab berishi shart hisoblanadi.

Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomasida qayta sug'urtalovchining javobgarligi qayta sug'urtalanuvchining javobgarligi boshlanishi bilan amal qilishni boshlaydi va qayta sug'urtalanuvchining shartnoma bo'yicha javobgarligi tugashi bilan qayta sug'urtalovchining ham javobgarligi to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomasi amal qilishining sanasidan qat'i nazar tugaydi. Bundan tashqari, obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalarida qayta sug'urtalanuvchi tomonidan qayta sug'urta shartnomasining ta'sir doirasiga tushadigan tuzilgan sug'urta shartnomalar to'g'risida qayta sug'urtalovchiga xabar berish va ular bo'yicha risklarni qayta sug'urtaga o'tkazish tartibi va shartlari belgilangan bo'ladi.

Shu bilan birga, tomonlar sug'urta mukofotini to'lash tartibi va shartlarini kelishib olishlari zarur.

## **8.2. Fakultativ qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini hisobga olish**

Qayta sug'urtalashga berilishi lozim bo'lgan hisoblangan qayta sug'urtalash mukofotlarining hisobi 9040 schyot "Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha to'langan sug'ur-

ta mukofotlari” va 6060 schyot “Qayta sug‘urta qilishga berilgan risklar bo‘yicha to‘lanadigan schyotlar”larning korrespondensiyasi orqali amalga oshiriladi:

### **Debet 9040 – Kredit 6060**

Nima uchun mazkur provodkani to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta-lash shartnomalari singari pul mablag‘lari schyotlari bilan korrespondensiyalash mumkin emas?

Birinchidan, qonunchilikka muvofiq sug‘urta shartnomasi qayta sug‘urtaga berilgan taqdirda ham sug‘urtalanuvchi oldida sug‘urta qoplamasini to‘lash majburiyati to‘liqligicha sug‘urtalovchi-ning zimmasida qoladi. Sug‘urtalanuvchi sug‘urtalangan shaxsni almashtirish, naf oluvchini almashtirish, sug‘urta riskining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning o‘zgarishi, sug‘urtalangan mulkka bo‘lgan huquqlarning boshqa shaxsga o‘tganligi holati va boshqa shunga o‘xshash holatlarda sug‘urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish to‘g‘risidagi ariza bilan aynan sug‘urtalovchiga murojaat etadi. Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganligi to‘g‘risidagi da’voni va sug‘urta dalolatnomasini tuzuvchi shaxs hisoblanadi. Zarur bo‘lgan hollarda sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar, banklar, tibbiyot tashkilotlari va boshqa vakolatli tashkilotlardan so‘rashi, yoki sug‘urta hodisasini izchil o‘rganish maqsadida maxsus ekspertlarni jalb qilishi mumkin. Bundan tashqari, sug‘urtalovchi sug‘urta agentlarining xizmatini o‘zi to‘laydi va zarur hollarda sug‘urtalanayotgan obyektning haqiqiy holatini aniqlash uchun o‘zining hisobidan ekspertlarni jalb qilishi mumkin. Mazkur xarajatlarni kompensatsiyalash maqsadida sug‘urtalovchi qayta sug‘urtalovchidan ma’lum miqdorda mukofot yoki siylovlarni talab qilishi mumkin. Odatda, mazkur siylovlar qayta sug‘urtalash shartnomasida sug‘urta mukofotiga nisbatan foizlarda ko‘rsatilib, qayta sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta mukofotlarini qayta sug‘urtaga o‘tkazishda ushlab qolinadi:

**Debet 4051 “Qayta sug‘urta qilishga oid komission rag‘batlantirishlar, tanyemalar va yig‘imlar bo‘yicha olinadigan schyotlar” – Kredit 9080 “Qayta sug‘urta qilishga oid komission rag‘batlantirishlar, tanyemalar va yig‘imlar bo‘yicha daromadlar”**



## **Debet 6060 - 4051**

Shundan qayta sug'urtaga o'tkazilishi lozim bo'lgan summa qayta sug'urtaga o'tkaziladi:

### **Debet 6060 – Kredit 5110 (5210)**

Ko'rinib turibdiki, qayta sug'urtaga o'tkaziladigan sug'urta mukofotlari haqiqatdagi qayta sug'urta mukofotlari summasidan kamroqni tashkil etadi. Bu esa qayta sug'urtaga berilayotgan sug'urta mukofotlarini 6060 schyot "Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar" asosida hisobga olishni taqozo qiladi.

Ikkinchidan, qonunchilikda qayta sug'urtalash shartnomalarining sug'urta mukofoti to'lanishi bilan kuchga kirishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot keltirilmagan.

Shuning uchun obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalarini amalga oshirish amaliyotida sug'urta mukofotlarini har bir risk bo'yicha emas, balki ma'lum muddat davomida qayta sug'urtaga berilgan risklarning jamiga nisbatan hisoblash tartibi qo'llaniladi. Albatta bu tartib qayta sug'urtalash shartnomasida keltirilgan bo'lishi shart.

### **8.3. Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini hisobga olish**

Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomasi, unda ko'rsatilgan risklar qayta sug'urtalanuvchi tomonidan belgilangan tartibda qayta sug'urtalovchiga o'tkazish va ularning qayta sug'urtalovchi tomonidan qabul qilinishini nazarda tutadi. Shuning uchun sug'urta mukofoti olingandan so'ng qayta sug'urtaga berilishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti summasiga quyidagi provodkani berish mumkin:

### **Debet 9040 – Kredit 6060**

Chunki:

- qayta sug'urtalanuvchi risklarni qayta sug'urtaga berishi va qayta sug'urtalovchi qabul qilishi har qanday holatda qabul qilishi lozim;
- ushbu risk bo'yicha qayta sug'urtalovchining javobgarligi qayta sug'urtalanuvchining javobgarligi boshlanishi bilan boshlanadi;

– 27 schyot “Qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha to‘langan sug‘urta mukofotlari”ning debeti bo‘yicha qayta sug‘urtaga beriladigan sug‘urta mukofotlari aks ettiriladi.

Shu vaqtning o‘zida sug‘urtalovchi qayta sug‘urtalash shartnomasida belgilangan tartibda komission siylovlarni ushlab qoladi.

**Debet 4051– Kredit 9080**

**Debet 6060 – 4051**

Agar obligatorli qayta sug‘urtalash shartnomasida ma‘lum davr oralig‘ida qayta sug‘urtaga beriladigan sug‘urta risklarining yalpi hajmi bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini berish belgilangan bo‘lsa, hisobot davri oxirigacha hisoblangan qayta sug‘urta mukofotlari komission chegirilgan holda qayta sug‘urtalanuvchida **deponentlangan** hisoblanadi. Mazkur mukofotlar hisobini alohida subschyot 6070 schyot “Qayta sug‘urta qilishga berilgan risklar bo‘yicha depo mukofotlar”da olib borish maqsadga muvofiq. Depo mukofotlarining deponentlanishi quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

**Debet 6060 – Kredit 6070**

Qayta sug‘urtalash shartnomasida belgilangan muddatning tugashi, ya‘ni qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini to‘lash muddati kelgandan so‘ng teskari provodka beriladi:

**Debet 6070 – Kredit 6060**

Ba‘zida bunday qayta sug‘urtalash shartnomalarida deponentlangan qayta sug‘urta mukofotlarining saqlanish muddatiga muvofiq ravishda foiz to‘lash tartibi ham keltirilishi mumkin. Foizlarning hisoblanishi 6920 “Hisoblangan foizlar” schyotining 9610 “Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar” schyoti korrespondensiyalash orqali hisobga olinadi:

**Debet 9610 – Kredit 6920**

Qayta sug‘urtalanuvchi tomonidan depo mukofotlaridan foydalanlik uchun daromad summasi quyidagi formula orqali hisoblanishi mumkin:

$$ND = \frac{DP * I * N}{100.365}$$

Bunda:

ND – hisoblangan daromad summasi;

DP – deponentlangan sugʻurta mukofoti hajmi;

N – deponentlash muddati kunlarda;

I – qayta sugʻurtalanuvchi tomonidan oʻz hisobidagi depo mukofotlarga hisoblanadigan yillik daromad normasining foizdagi ifodasi.

Pul mablagʻlarining qayta sugʻurtalovchining hisob raqamiga oʻtkazib berilishi bilan sugʻurtalovchining qayta sugʻurtaga berilgan risklar boʻyicha qarzdorligi yopiladi.

**Debet 6920 – Kredit 5110 (5210)**

#### **8.4. Fakultativ qayta sugʻurtalash shartnomalarining bosqichma-bosqich toʻlanishini hisobga olish tartibi**

Yuqorida keltirilganlariga muvofiq ravishda obligatorli qayta sugʻurtalash shartnomalari asosida sugʻurta mukofotlari bosqichma-bosqich toʻlab borilishi mumkin.

Qayta sugʻurtalashga oʻtkaziladigan sugʻurta mukofoti summasining hisoblanishi quyidagicha hisobga olinadi:

**Debet 9040 – Kredit 6060**

Odatda, umumiy summadan komission siylovlar ushlab qolinadi:

**Debet 4051– Kredit 9080**

**Debet 6060 – 4051**

Shundan sugʻurtalovchi toʻlovning birinchi bosqichiga tegishli sugʻurta mukofotini qayta sugʻurtalovchining hisobiga oʻtkazadi:

**Debet 6060 – Kredit 5110 (5210)**

Sugʻurta mukofotining qolgan qismi deponentlanadi:

**Debet 6070 – Kredit 6060**

Deponentlangan mukofotlari uchun qayta sugʻurtalovchiga daromad hisoblanganda:

**Debet 9610 – Kredit 6920**

Qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha qarzdorlikning yopilishi sug'urta mukofotlarining qayta sug'urtalovchiga to'liq o'tkazilishi:

### **Debet 6060 – Kredit 5110 (5210)**

Hisobot davrining oxirida to'langan sug'urta mukofotlarining summalari 9040 "Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari" schyotning krediti bo'yicha 9030 "Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar" schyotining debetiga o'tkaziladi:

### **Debet 9030 – Kredit 9040**

9040 va 9610 schyotlar bo'yicha analitik hisob qayta sug'urtalash shartnomalari turlari va alohida qayta sug'urtalovchilar bo'yicha olib borilishi mumkin.

6060 schyot bo'yicha analitik hisob alohida qayta sug'urtalovchi va har bir qayta sug'urtaga berilgan sug'urta riski bo'yicha olib boriladi. 6060 schyotning boshqa operatsiyalar bilan bog'liq korrespondensiyalari keyingi mavzularda ko'rib chiqiladi.

### **Tayanch so'zlar**

- ♦ *Qayta sug'urtalash*
- ♦ *Fakultativ qayta sug'urtalash*
- ♦ *Obligatorli qayta sug'urtalash*
- ♦ *Fakultativ-obligatorli qayta sug'urtalash*
- ♦ *Zararlilikning ekssedenti shartnomasi.*
- ♦ *Qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha hisob-kitoblar*
- ♦ *Proporsional (kvotali) shartnoma*
- ♦ *Summalarning ekssedenti shartnomasi*
- ♦ *Zararning ekssedenti shartnomasi*
- ♦ *Qayta sug'urtalash shartnomalari-ning bosqichma-bosqich to'lanishini*
- ♦ *Olingan brokerlik va komission siylovlari, tantema va yig'imlar*
- ♦ *Deponentlangan sug'urta mukofotlari*

## Nazorat savollari

1. Qayta sug'urtalash deganda nimani tushunasiz?
2. Qayta sug'urtalash shartnomasining qanday turlari mavjud?
3. Qayta sug'urtalash qanday shakllarda amalga oshiriladi?
4. Fakultativ va obligatorli qayta sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalarining qanday turlarini bilasiz?
6. Fakultativ qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini hisobga olish qanday amalga oshiriladi?
7. Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini hisobga olish qanday amalga oshiriladi?
8. Fakultativ qayta sug'urtalash shartnomalarining bosqichma-bosqich to'lanishini hisobga olish tartibini tushuntirib bering.
9. Deponentlangan sug'urta mukofotlari hisobda qanday aks ettiriladi?

## **IX bob. QAYTA SUG‘URTAGA BERILGAN RISKLAR BO‘YICHA OLINGAN SUG‘URTA QOPLAMALARINI HISOBGA OLISH**

### **9.1. Qayta sug‘urta berilgan risklar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish**

Ma‘lumki, qayta sug‘urtalash amalga oshirilganda, sug‘urtalovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalanuvchining oldida javobgar bo‘lib qolaveradi. Qayta sug‘urtalash shartnomasiga ko‘ra qayta sug‘urtalovchi sug‘urta zararini qoplash bilan bog‘liq zararining bir qismini, ya‘ni shartnomada belgilangan ulushda qoplab berishi lozim.

Ushbu qoplamani olish uchun sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalanuvchi) qayta sug‘urtalovchiga bergan arizasiga quyidagilarni ilova qilgan holda jo‘natadi:

- belgilangan tartibda tasdiqlangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalarining nusxalari (sug‘urta polisi, kvitansiya, ma‘lumotnoma, sertifikat yoki boshqalar);

- sug‘urta hodisasining yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar (sug‘urta dalolatnomasi, unga tegishli idoralarning ma‘lumotnomalari ilova qilinadi, sug‘urta hodisasining yuz berganligini va sabablarini, zarar hajmini tasdiqlovchi hujjatlar);

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta qoplamlarining to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Qayta sug‘urtalash shartnomalarida shu narsa ko‘rsatilishi zarurki, qayta sug‘urtalovchi qayta sug‘urtalanuvchining sug‘urta hodisasini tekshirish va sug‘urta qoplamasini to‘lash bilan bog‘liq qarorlariga amal qiladi. Shuning uchun qayta sug‘urtalovchi qayta sug‘urta hodisasini qaytadan tekshirishi mumkin bo‘lmaydi va o‘z zimmasiga olgan majburiyatning tegishli qismi bo‘yicha sug‘urta qoplamasini qayta sug‘urtalanuvchiga to‘lab berishi shart. Mazkur holat agar qayta sug‘urtalovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta hodisasini izchil o‘rgangan va sug‘urtala-

nuvchi javobgar shaxslardan sug'urta zararini undirish huquqidan voz kechmagan va qoplama olmagan taqdirda qo'llaniladi.

Qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta qoplamasi qayta sug'urtalash shartnomasi amal qilish muddati tugagandan so'ng to'langan bo'lsa ham o'ziga tegishli sug'urta qoplamasini qayta sug'urtalanuvchiga to'lab berishi shart.

Qayta sug'urtalanuvchi qayta sug'urta bo'yicha olingan sug'urta qoplamalarining hisobini 9070 schyot "Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha zararlar ulushining qoplanishi bo'yicha daromadlar" orqali olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qayta sug'urtalovchidan olinadigan hisoblangan sug'urta tovonni summasiga 4060 "Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha olinadigan schyotlar" schyotining debeti bo'yicha 9070 "Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha zararlar ulushining qoplanishi bo'yicha daromadlar" schyotining krediti bilan bog'langan holda, yozuv amalga oshiriladi. Qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha sug'urta qoplamalarini hisobga olish quyidagi provodkalar orqali amalga oshiriladi.

### **Debet 4060 – Kredit 9070**

### **Debet 5110 (5210) – Kredit 4060**

Agar obligatorli qayta sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash bosqichma-bosqich belgilangan bo'lsa, qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha qayta sug'urta mukofotlari deponentlangan hisoblanadi va 6070 "Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha depo mukofotlar" hisobga olinadi.

Ma'lumki, bunday holda dponentlangan mukofotlar qayta sug'urtalanuvchining ixtiyorida qoladi. Mazkur risklar bo'yicha qayta sug'urtalovchining ulushlari bo'yicha sug'urta qoplamalarini qayta sug'urtalovchi depo mukofotlar va unga hisoblangan foizlar hisobidan qoplashi mumkin. Qarzdorlikning qoplanishi quyidagi provodka orqali hisobga olinadi.

### **Debet 6070 – Kredit 4060**

Agar qayta sug'urtalash shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa, depo mukofotlarga hisoblangan daromadlar ham qoplamalarni qoplashga yo'naltirilishi mumkin.

### **Debet 6920 – Kredit 4060**

Mazkur provodkalar agar deponentlangan sug'urta mukofotlari va ular bo'yicha hisoblangan foiz daromadlari qayta sug'urtalovchiga tegishli sug'urta qoplamasi qoplash uchun yetarli bo'lsa, amalga oshirilishi mumkin.

Agar yuqoridagi summalar qayta sug'urtalovchining ulushiga tegishli zararlarni qoplashga yetarli bo'lmasa, u holda qayta sug'urtalovchi tomonidan qo'shimcha to'langan sug'urta qoplamalari quyidagicha hisoblanadi:

### **Debet 5110 (5210) – Kredit 4060**

Agar qayta sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamasi summasi depo mukofotlar va ularga hisoblangan foizlar summasidan kam bo'lsa, u holda sug'urta qoplamasi summasiga

### **Debet 6920 – Kredit 4060**

provodkasi quyidagi tartibda aniqlangan summaga amalga oshiriladi:

$$SV = \frac{SV * I * N}{100.365}$$

Bunda:

SV – qayta sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamasi summasi;

I – qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha qayta sug'urtalanuvchida depo mukofot sifatida qoldirilgan summalariga hisoblanadigan yillik daromad normasining foizdagi ifodasi;

N – deponent qilingan muddat.

O'zaro hisob-kitoblarning bunday tartibi sug'urta mukofotlarini bosqichma-bosqich to'lashni nazarda tutuvchi fakultativ qayta sug'urtalash shartnomalari va belgilangan davrda qabul qilingan risklarning ma'lum qismini qayta sug'urtaga o'tkazilishida sug'urta mukofotining davriy ravishda to'lanishini nazarda tutuvchi obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalarida ko'rsatilishi lozim.



Yuqorida keltirilgan barcha provodkalar sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilarning o'zaro hisob-kitob dalolatnomalari asosida amalga oshiriladi.

Hisobot davrining oxirida 9070 "Qayta sug'urta qilish va retrosessiyaga berilgan risklar bo'yicha zararlar ulushining qoplanishi bo'yicha daromadlar" schyotning kredit tomonidagi qoldig'i debeti bo'yicha 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyotining kreditiga o'tkaziladi.

### **Debet 9070 – Kredit 9910.**

## **9.2. Qayta sug'urtalanuvchi uchinchi shaxslardan zararni undirish huquqidan foydalangan taqdirda qayta sug'urtalovchi bilan yuzaga keladigan munosabatlarni hisobga olish**

Qonunchilikka muvofiq mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) ning sug'urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta qoplamasini to'lagan sug'urtalovchiga o'tadi. Xuddi shunday huquqqa qayta sug'urtalanuvchining zararlarini qoplab bergan qayta sug'urtalovchi ham ega.

Sug'urta hodisasining sodir bo'lishida aybdor shaxslarga nisbatan zararni qoplash da'vosini hisobga olish 4860 schyot "Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar" orqali amalga oshiriladi. Mazkur schyotning debet tomonida sud tomonidan sug'urtalovchiga to'lab berilishi belgilangan zararlar summasi yoki aybdorligini tan olib sug'urta zararini qoplab berishni bildirgan shaxslardan olinadigan summalar ko'rsatiladi. Ushbu schyot 9330 schyot "Undirilgan jarima, penya va ustamalar"ning krediti bo'yicha korrespondensiyalanadi:

### **Debet 4860 – Kredit 9330**

Ushbu da'volar bo'yicha kelib tushgan sug'urta summolari quyidagi provodka orqali hisobga olinadi:

### **Debet 5010 (5110, 5210) – Kredit 4860**

Shuning uchun javobgar tomondan undirilgan summalarning qayta sug'urtalovchiga tegishli qismlari sug'urtalovchining xarajatlariga olib boriladi:

## **Debet 2010 – Kredit 6060**

Ko'rsatilgan summaning to'lanishi quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

### **Debet 6060 – Kredit 5110 (5210)**

9070 “Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha zararlar ulushining qoplanishi bo'yicha daromadlar” schyoti bo'yicha analitik hisob alohida qayta sug'urtalovchilar, qayta sug'urta shartnomalari turlari va sug'urta turlari bo'yicha olib boriladi.

6060 “Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar” schyoti bo'yicha analitik hisob alohida qayta sug'urtalovchilar bo'yicha har bir qayta sug'urtaga berilgan risk asosida olib boriladi.

### **Tayanch so'zlar**

- ♦ *Regress da'volar bo'yicha sud tomonidan belgilangan javobgar shaxs tomonidan sug'urtalovchi foydasiga to'lanadigan summalar*
- ♦ *Qayta sug'urtalanuvchi*
- ♦ *Uchinchi shaxslardan zararni undirish huquqidan foydalanish*
- ♦ *Boshqa xarajatlar*
- ♦ *Qayta sug'urtaga berilgan risklar*
- ♦ *Retrotsessiya va qayta sug'urtalashga berilgan risklar bo'yicha olingan zarar ulushlari qoplamasi*
- ♦ *Qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha hisob-kitoblar*
- ♦ *Qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha depo mukofot va zararlar*
- ♦ *Regress da'volar bo'yicha hisob-kitoblar*

### **Nazorat savollari**

1. Qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?
2. Qoplamaning olish uchun sug'urtalovchi (qayta sug'urtalanuvchi) qayta sug'urtalovchiga bergan arizasiga qanday hujjatlarni ilova qilishi zarur?
3. Qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha sug'urta qoplamalari buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
4. Qanday hollarda qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha qayta sug'urta mukofotlari deponentlangan hisoblanadi?
5. Qayta sug'urtalovchining ulushlari bo'yicha sug'urta qoplamalari qanday mablag'lar hisobidan qoplanishi mumkin?

6. Depo mukofotlarga hisoblangan daromadlar, qoplamalarni qoplashga yoʻnaltirilishi mumkinmi?

7. Qayta sugʻurtalanuvchi uchinchi shaxslardan zararni undirish huquqidan foydalangan taqdirda, qayta sugʻurtalovchi bilan yuzaga keladigan munosabatlar qanday hisobga olinadi?

8. Retrotsessiya va qayta sugʻurtalashga berilgan risklar boʻyicha olingan zarar ulushlari qoplamasi hisobda qanday aks ettiriladi?

## **X bob. QAYTA SUG‘URTAGA QABUL QILINGAN RISKLAR BO‘YICHA SUG‘URTA MUKOFOTLARINI HISOBGA OLISH**

### **10.1. Qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar bo‘yicha hisob-kitoblar**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 413-sonli Qarori asosida tasdiqlangan “Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq sug‘urta va qayta sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish uchun sug‘urta tashkiloti maxsus vakolatli davlat organining litsenziyasiga ega bo‘lishi lozim. Agar sug‘urta kompaniyasi faqat qayta sug‘urtalash faoliyatini amalga oshirish uchun ixtisoslashsa, uning Nizom kapitali hajmi 3 mln. AQSh dollari ekvivalentidagi summadan kam bo‘lmasligi zarur. Demak, har qanday sug‘urta tashkiloti qayta sug‘urtalovchi yoki qayta sug‘urtalanuvchi sifatida sug‘urta munosabatlarini amalga oshirishi mumkin. Qayta sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus litsenziyaning talab etilmasligi, sug‘urta bozori ishtirokchilari uchun ortiqcha majburiyatlarni qayta sug‘urtaga o‘tkazish imkoniyatini beradi.

Qayta sug‘urtalovchining buxgalteriya hisobida qayta sug‘urta bo‘yicha qabul qilingan risklar bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining hisobi 6270 schyot “Qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”da hisobga olinadi. Mazkur schyotning krediti 4050 schyot “Qayta sug‘urta qilish bo‘yicha qabul qilingan risklar bo‘yicha olinadigan schyotlar” schyotining debeti bilan korrespondensiyalangan holda qayta sug‘urtalanuvchi tomonidan hisoblangan va qayta sug‘urtalovchi tomonidan qabul qilinadigan sug‘urta risklari ko‘rsatiladi. Shunga muvofiq ravishda qayta sug‘urtalash shartnomasi tuzilgandan so‘ng sug‘urta mukofoti summasiga quyidagi provodkani berishi mumkin:

**Debet 4050 – Kredit 6270**

Qayta sug'urtalanuvchi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasini tuzishda va uning muddati davomida bir qancha xarajatlarni amalga oshiradi:

- sug'urta shartnomalarini tuzganligi uchun sug'urta agentlari va brokerlariga komission mukofotlarni to'lash;
- mol mulkning haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida ko'rib chiqish va ekspertlarni jalb qilish;
- sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchini almashtirish bilan bog'liq xarajatlar;
- sug'urta riskining oshishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zgarishi natijasida sug'urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish;
- sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan huquqlarning boshqa shaxsga o'tishi va shunga o'xshash hodisalar oqibatida sug'urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish;
- sug'urtalanuvchining sug'urta hodisasi oqibatida yetgan zararni qoplash maqsadida bergan arizasi;
- sug'urta hodisasining yuz berish sabablari, uning yetkazgan zararlar hajmini aniqlash bilan bog'liq xarajatlar va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan xarajatlarni ma'lum darajada qoplash maqsadida qayta sug'urtalash shartnomasida sug'urta mukofotiga nisbatan foiz hisobida komission mukofotlarni to'lash tartibi keltiriladi. Qayta sug'urta bo'yicha qabul qilingan sug'urta risklari bo'yicha komission mukofotlar 32 schyot "To'langan brokerlik va komission siylovlari, tantyema va yig'imlar" da hisobga olib boriladi.

Ma'lumki, komission mukofotlar qayta sug'urtalanuvchi tomonidan olib qolinishi mumkin. Shuning uchun yuqorida berilgan

**Debet 4050 – Kredit 6270**

provodkasidan so'ng

**Debet 4051 – Kredit 4050**

provodkasini komission mukofotlar summasiga berish mumkin.

Hisoblangan qayta sug'urtalash mukofotlarining qayta sug'urtalovchiga o'tkazilib berilishi quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

**Debet 5110 (5210) – Kredit 4050**

Qayta sug'urtalash shartnomalarida sug'urta mukofotlarining bosqichma-bosqich to'lanishi nazarda tutilishi mumkin. Qayta sug'urtalovchiga o'tkazilishi kerak bo'lgan, lekin o'tkazilmagan sug'urta mukofotlari qayta sug'urtalanuvchida depo mukofot sifatida 6070 schyot "Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha depo mukofotlar" da hisobga olinadi.

## **10.2. Bosqichma-bosqich to'lanadigan sug'urta mukofotlarini qayta sug'urtalovchi tomonidan hisobga olinishi**

Bunda qayta sug'urtalovchiga o'tkazilishi zarur bo'lgan sug'urta mukofoti summasiga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 4050 – Kredit 6270**

Odatdagidek, umumiy summadan komission mukofotlar olib qolinadi:

**Debet 6080 – Kredit 4050**

Qayta sug'urtalovchining hisob raqamiga birinchi bosqich sug'urta mukofoti to'langandan ushbu summaga quyidagicha provodka beriladi:

**Debet 5110 (5210) – Kredit 4050**

Qolgan sug'urta mukofoti esa qayta sug'urtalanuvchining hisob raqamida qoladi. Qayta sug'urtalanuvchida qoldirilgan sug'urta mukofotlarini qayta sug'urtalovchi hisobga olishi uchun 4090 schyot "Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo mukofotlari" dan foydalaniladi. Mazkur schyot 4050 schyot bilan korrespondensiyalanadi va depo mukofotlar quyidagi provodka asosida hisobga olinadi:

**Debet 4050 – Kredit 4090**

Ushbu provodka qayta sug'urtalovchida qoldiriladigan qayta sug'urta mukofotining umumiy summasiga beriladi.

Sug'urta mukofoti to'lanishining keyingi bosqichi kelganda pul o'tkazish summasiga quyidagi teskari provodka beriladi:

**Debet 4090 – Kredit 4050**

Shuningdek, qayta sug'urta shartnomasiga ko'ra qayta sug'urtalanuvchining depo mukofotlar summasi va muddatiga muvofiq ravishda ma'lum miqdorda daromad to'lanishi belgilangan bo'li-

shu mumkin. Ushbu daromad qayta sug'urtalanuvchi tomonidan depo mukofotlarni ma'lum obyektlarga investitsiya qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Agar qayta sug'urtalanuvchida mazkur daromadlar 6920 schyot "Hisoblangan foizlar" ning krediti va 9610 schyot "Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar" ning debeti orqali hisobga olingan bo'lsa, mazkur daromadlar qayta sug'urtalovchida 9530 schyot "Foizlar ko'rinishidagi daromadlar" ning krediti va 4830 schyot "Olinadigan foizlar" ning debeti bilan korrespondensiyasi orqali hisobga olinadi.

Agar shartnomada qayta sug'urtalanuvchi tomonidan qayta sug'urtalovchiga depo mukofotlar uchun daromad to'lanishi belgilangan bo'lsa, u holda daromad summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Dp = \frac{DP * I * N}{100 * 365}$$

Bunda:

I – shartnomada belgilangan depo mukofotlar uchun belgilangan yillik daromad me'yorining foizdagi ifodasi;

DP – deponentlangan qayta sug'urta mukofotining hajmi;

N – deponent qilish muddati, kunlarda.

Prvodka:

### **Debet 4830 – Kredit 9530**

Qayta sug'urtalanuvchi tomonidan depo mukofotlarining va unga hisoblangan daromadlarning qayta sug'urtalovchi hisobiga o'tkazilishi bilan uning qayta sug'urtalovchi oldidagi qarzdorligi yopiladi. Qayta sug'urtalovchi depo mukofotlar va ular bo'yicha daromadlarni olganidan so'ng quyidagi provodkani amalga oshirish orqali ushbu operatsiyani rasmiylashtiradi:

### **Debet 5110 (5210) – Kredit 4830**

Obligatorli qayta sug'urtalashda ham qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta mukofotlari shunga o'xshash tarzda hisobga olinadi.

Qayta sug'urtalanuvchidan to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomasini tuzganligi to'g'risidagi xabarni olgandan so'ng qayta sug'urtalovchi quyidagi yozuvlarni amalga oshirishi mumkin:

### **Debet 4050 – Kredit 6270**

Ushbu provodka qayta sug'urtalovchining sug'urta mukofotidagi ulushi summasiga beriladi. Bu shartnomaga muvofiq qayta sug'urtalovchining to'g'ridan-to'g'ri riskni o'z zimmasiga olishi va qayta sug'urtalanuvchining ushbu riskni qayta sug'urtaga berishi belgilanganligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, qayta sug'urta mukofotining summasi yuqorida ta'kidlanganidek, komission mukofotlar summasiga kamaytiriladi:

**Debet 6080 – Kredit 4050**

Agar qayta sug'urta shartnomasida depo mukofotlar bo'yicha daromadlar to'lanishi nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu summaga quyidagi provodka beriladi:

**Debet 4830 – Kredit 9530**

Pul mablag'larining to'lanishi bilan qayta sug'urtalanuvchining qarzdorligi quyidagi provodka bilan yopiladi:

**Debet 5110 (5210) – Kredit 4830**

Hisobot davri oxirida 6270 "Qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari" schyotining kredit tomonidagi qoldig'i debet bo'yicha 9030 "Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar" schyotining kreditiga o'tkaziladi.

**Debet 6270 – Kredit 9030**

Shundan so'ng ushbu summa 9030 schyotning tarkibida 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyotiga o'tkaziladi.

**Debet 9030 – Kredit 9910**

Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta mukofotlari asosidagi komission mukofotlar ham daromadga olib boriladi:

**Debet 9530 – Kredit 9910**

4830 va 6270 schyotlar bo'yicha analitik hisob qayta sug'urta shartnomalari turlari, sug'urta turlari va qayta sug'urtalanuvchilar bo'yicha olib boriladi.

### **Tayanch so'zlar**

♦ *Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar*

♦ *Sug'urta tashkilotining boshqa sug'urta tashkilotlaridagi depo mukofotlari va zararlari*



♦ *Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha hisob-kitoblar*

♦ *To'langan brokerlik va komission siylovlari, tantema va yig'imlar*

♦ *Bosqichma-bosqich to'lanadigan qayta sug'urta mukofotlari*

♦ *Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta mukofoti va mukofotlar portfeli*

♦ *Boshqa daromadlar*

♦ *Boshqa xarajatlar*

### **Nazorat savollari**

1. Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?

2. Qayta sug'urtalanuvchi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasini tuzishda va uning muddati davomida amalga oshiradigan xarajatlar nimalardan iborat?

3. Qanday maqsadda qayta sug'urtalash shartnomasida sug'urta mukofotiga nisbatan foiz hisobida komission mukofotlarni to'lash tartibi keltirilishi mumkin?

4. Qayta sug'urta bo'yicha qabul qilingan sug'urta risklari bo'yicha komission mukofotlar qaysi schyotlarda hisobga olinadi?

5. Komission mukofotlar summasiga qanday provodka beriladi?

6. Bosqichma-bosqich to'lanadigan sug'urta mukofotlarini qayta sug'urtalovchi tomonidan hisobga olinish tartibini tushuntirib bering.

7. Shartnomada qayta sug'urtalanuvchi tomonidan qayta sug'urtalovchiga depo mukofotlar uchun daromad to'lanishi belgilangan bo'lsa, u holda daromad summasi qanday aniqlanadi?

8. Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta mukofotlari asosidagi komission mukofotlar hisobda qanday aks ettiriladi?

## **XI bob. QAYTA SUG‘URTAGA QABUL QILINGAN RISKLAR BO‘YICHA TO‘LANGAN SUG‘URTA QOPLAMALARINI HISOBGA OLISH**

### **11.1. Qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar bo‘yicha hisob-kitoblar**

Ushbu mavzuda qayta sug‘urtalovchi tomonidan qabul risklar bo‘yicha qayta sug‘urtalanuvchiga zararlarning tegishli ulushlarini qoplash bo‘yicha hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobida aks ettirishni ko‘rib chiqamiz.

Ma‘lumki, odatda, qayta sug‘urtalash shartnomasiga asosan qayta sug‘urtalanuvchining qaroriga asosan qayta sug‘urtalovchi o‘ziga tegishli sug‘urta zararini qoplash majburiyatini oladi. Qayta sug‘urtalanuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomasi bo‘yicha vujudga kelgan zararining qayta sug‘urtalovchiga tegishli qismini qayta sug‘urtalovchiga ariza bilan murojaat etib unga quyidagi hujjatlar belgilangan tartibda tasdiqlanib, ilova qilinishini talab etadi:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalash shartnomasining nusxasi;
- sug‘urta hodisasining yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qoplamasining to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari.
- Qayta sug‘urtalovchi quyidagi hollarda sug‘urta qoplamasini to‘lashni rad etishi mumkin:
  - qayta sug‘urtalanuvchi sug‘urta hodisasini yetarli darajada o‘rganmagan, ya‘ni sug‘urta hodisasining yuz berish sabablari, uning xarakteri, sug‘urta zararining hajmi va boshqalar;
  - qayta sug‘urtalanuvchining sug‘urta hodisasini sodir etganlikda aybdor uchinchi shaxslardan zararni undirish huquqidan voz kechgan yoki qayta sug‘urtalanuvchining aybi bilan uchinchi shaxsdan sug‘urta qoplamasini undirish imkoniyatining yo‘qotilishi;
  - qayta sug‘urtalanuvchi uchinchi javobgar shaxslardan sug‘urta zararining hajmini undirgan taqdirda.

Agar qayta sug'urtalovchining ma'lum bir risk turi bo'yicha ulushi qayta sug'urtalanuvchining ulushidan ko'p bo'lsa, qayta sug'urta shartnomasida sug'urta hodisasi yuz berganda, qayta sug'urtalovchining qayta sug'urtalanuvchining sug'urta hodisasini tekshirish jarayonida ishtirok etishi va hatto sug'urta hodisasining qayta sug'urtalovchi tomonidan o'rganilishi belgilanishi mumkin. Bunday hollarda qayta sug'urtalovchi sug'urta hodisasining yuz berish sabablari, xarakteri va sug'urta zarari hajmini aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni o'zi amalga oshiradi.

Qayta sug'urtalovchi qayta sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan vaqtda sodir bo'lgan sug'urta hodisasi bo'yicha hatto sug'urta mukofoti qayta sug'urta shartnomasi tugagandan so'ng to'langan taqdirda ham, qayta sug'urtalanuvchiga o'z ulushini qoplab berishi zarur.

Qayta sug'urtalanuvchi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomasi asosida to'lanadigan sug'urta qoplamasidagi qayta sug'urtalovchining ulushini qoplash bilan bog'liq operatsiyalar 2230 schyot "Qayta sug'urta qilishga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta tovonlari" da hisobga olib boriladi. Mazkur schyotda hisoblangan sug'urta qoplamalari hisobga olinadi va 6050 "Qayta sug'urta qilish bo'yicha olingan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar" bilan korrespondensiyalanadi:

### **Debet 2230 – Kredit 6050**

Ushbu provodka berilgandan so'nggina quyidagi provodka berilishi mumkin:

### **Debet 6050 – Kredit 5110**

Fakultativ qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarining davriy ravishda to'lanishi yoki obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini bo'lib to'lash belgilangan bo'lsa, sug'urta risklari qayta sug'urtalovchiga o'tkazilgan kundan boshlab, qayta sug'urtalanuvchidagi qayta sug'urtaga o'tkaziladigan sug'urta mukofotlari deponentlangan hisoblanadi. Bu summalar buxgalteriya hisobida 4090 schyot "Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo mukofotlari" da aks ettiriladi. Qayta sug'urtalovchiga tegishli qayta sug'urta mukofotlari haqiqatda qayta sug'urtalanuvchida depo mukofot sifati-

da mavjud bo'lganligi sababli, qayta sug'urtalash shartnomasida qayta sug'urtalanuvchi qayta sug'urtalovchiga tegishli zarar ulushining bir qismini ushbu mukofotlar evaziga qoplashi mumkinligi nazarda tutilishi mumkin. Qayta sug'urtalanuvchining qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha depo mukofotlar bo'yicha qarzlarning uzilishi qayta sug'urtalovchining buxgalteriyasida 4090 schyot krediti va 4050 schyot debetining korrespondensiyasi orqali hisobga olinadi. Bundan keyin esa 6050 schyot 4050 schyot "Qayta sug'urta qilish bo'yicha qabul qilingan risklar bo'yicha olinadigan schyotlar" bilan korrespondensiyalanadi:

**Debet 4050 – Kredit 4090**

**Debet 6050 – Kredit 4050**

Yuqoridagiga o'xshash tarzda depo mukofotlarga hisoblangan foizlar hisobdan chiqariladi:

**Debet 6050 – Kredit 4830**

Ushbu provodkalar agar ma'lum risk bo'yicha sug'urta qoplamasi hajmi deponentlangan sug'urta mukofotlarining umumiy hajmi va unga hisoblangan foizlarning umumiy hajmidan katta bo'lsa, ularning umumiy summasiga beriladi.

Bunday holda qayta sug'urtalovchi sug'urta qoplamasining yetishmagan qismini qayta sug'urtalanuvchiga to'lab berishi talab etiladi. Qayta sug'urtalovchining qayta sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasini to'lab berishi operatsiyasi to'lov summasiga quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

**Debet 6050 – Kredit 5110 (5210)**

Agar qayta sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamasining hajmi qayta sug'urtalanuvchida deponentlangan sug'urta mukofotlari va ularga hisoblangan foizlar summasidan kam bo'lsa,

**Debet 6050 – Kredit 4050 (4830)**

Provodkasi quyidagi formula asosida hisoblanadigan summaga amalga oshiriladi:

$$SV - \frac{SV * I * N}{100 * 365}$$

Bunda: SV – qayta sug‘urta shartnomasi bo‘yicha qayta sug‘urtalovchi tomonidan to‘lanadigan qoplama summasi;

I – qayta sug‘urtalash shartnomasiga asosan qayta sug‘urtalanuvchining hisob raqamida qoldirilgan sug‘urta mukofotlariga hisoblanadigan foiz daromadi me‘yorining foizdagi ifodasi;

N – deponent qilingan kunlar soni.

O‘zaro hisob-kitoblarning yuqoridagi tartibda qayta sug‘urta mukofotlarining davriy ravishda to‘lanishini nazarda tutuvchi fakultativ qayta sug‘urtalash yoki obligatorli qayta sug‘urtalash shartnomalarida belgilab o‘tilgan bo‘lishi zarur. Yuqorida keltirilgan o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha barcha provodkalar o‘zaro hisoblar dalolatnomalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hisobot davrining oxirida 2230 schyotlarning debet tomonidagi qoldig‘i 2010 “Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari” schyotining debetiga o‘tkaziladi.

### **Debet 2010 – Kredit 2230**

2230 schyot va 6050 schyotlar bo‘yicha analitik hisob sug‘urta turlari, qayta sug‘urta shartnomalari va qayta sug‘urtalanuvchilar bo‘yicha olib boriladi.

### **11.2. Qayta sug‘urtalanuvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta qoplamalari bo‘yicha sug‘urta qoplamalari ulushini to‘lashda xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini shakllantirish**

Qayta sug‘urtalanuvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomasi bo‘yicha ko‘rilgan zararlarning ulushini qoplashda sug‘urta qoplamasini to‘lash borasida quyidagini hisobga olish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasiga muvofiq qayta sug‘urta shartnomasi tadbirkorlik xavfini sug‘urtalash shartnomasi sifatida qaralishi mumkin. Qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar bo‘yicha sug‘urta qoplamasining ulushini to‘lash shunday sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qoplamasi sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun qayta sug‘urtalovchi qayta sug‘urtalanuvchidan sug‘urta hodisasi yuz berganligi yoki su-

g'urta qoplamasining to'langanligi to'g'risidagi xabarni olgandan so'ng belgilangan tartibda "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi"ni shakllantirishi mumkin. Ushbu zaxira 8030 "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi" da hisobga olib boriladi. Ushbu schyot 9250 schyot "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi" bilan korrespondensiyalanadi va unda qayta sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamalari aks ettiriladi:

### **Debet 9250 – Kredit 8030**

Ushbu zaxiraning hajmi to'lanishi kutilayotgan sug'urta qoplamalarining summasi bilan aniqlanadi. Sug'urta zararining hajmi arizada ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu provodka maksimal sumмага amalga oshiriladi.

Masalan, 100000 so'm tovarlar saqlanuvchi ombor sug'urtalangan bo'lib, undagi qayta sug'urtalovchining ulushi 30% ni tashkil etadi. Omborga yong'in tushganligi to'g'risida xabar kelgan taqdirda, zararining hajmi noaniq bo'lsa, yuqoridagi provodka quyidagi summaga beriladi:

$$0.3 * 100000 = 30000 \text{ so'm}$$

Agar sug'urta shartnomasida 1000 so'mlik shartsiz franshiza nazarda tutilgan bo'lsa, provodka quyidagi summaga beriladi:

$$0.3 * (100000 - 1000) = 29700 \text{ so'm}$$

Sug'urta hodisasining yuz berganligini va zararlarining hajmi aniqlangan taqdirda qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchiga tegishli sug'urta qoplamasini to'lab berishi quyidagi provodkalar orqali hisobga olinadi:

### **Debet 2230 – Kredit 6050**

### **Debet 6050 – Kredit 5110**

Shu vaqtning o'zida ushbu summaga quyidagi provodka beriladi:

### **Debet 8030 – Kredit 9250**

Agar qayta sug'urtalanuvchiga to'langan sug'urta qoplamalarining summasi rezervlangan summadan kam bo'lsa, ushbu farqqa ham yuqoridagi provodka beriladi.

Agar sug'urta hodisasining izchil tekshirish davomida uning sug'urta hodisasi sifatida tan olinmasligi yoki qayta sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasiga yoki qonunchilikka muvofiq sug'urta qoplamasini to'lashni rad etgan bo'lsa, qayta sug'urtalovchi tomonidan qonunchilik yoki qayta sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda sug'urta qoplamasini to'lashni rad etsa, rezervlangan summaga yuqoridagi provodka beriladi, ya'ni:

### **Debet 8030 – Kredit 9250**

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini, agar joriy yilda xabar qilingan zararlarni o'rganish va unga sug'urta qoplamasini to'lash to'g'risidagi qarorni ushbu yilda chiqarishning imkoni bo'lmagan taqdirda shakllantirish maqsadga muvofiq.

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi sug'urta mukofotlari qaysi valutada to'langan bo'lsa, o'sha valutada to'lanishi belgilangan.

### **11.3. Qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda aybdor shaxslarga zararni qoplash bo'yicha qilingan da'volar bo'yicha hisob-kitoblar**

Yuqorida ta'kidlanganidek, qayta sug'urtalash shartnomasi qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi sifatida qaralishi mumkin va unga to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomasi bo'yicha qonunchilikda belgilangan barcha qoidalar qo'llaniladi. Shuning uchun qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchiga qoplab bergan zarar doirasida sug'urta hodisasida aybdor shaxsga nisbatan zararni undirib olish huquqiga ega bo'ladi. Qayta sug'urtalash shartnomasida sug'urta hodisasini sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan da'vo qilishni qayta sug'urtalanuvchi tomonidan zararining o'ziga tegishli qismi doirasida amalga oshirishi mumkinligi yoki qayta sug'urtalanuvchi tomonidan aybdor shaxslarga nisbatan da'vo qilinganda qayta sug'urtalovchining ham manfaatlarini hisobga olishi mumkinligi belgilangan bo'lishi mumkin.

Sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta hodisasini sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan sug'urta zararini undirib

olish bo'yicha da'volarning hisobini 4860 schyot "Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar" orqali olib boriladi. Ushbu schyotning debet qismida sud tomonidan sug'urta kompaniyasining foydasiga da'volar bo'yicha undirilgan summalar yoki aybdor uchinchi shaxslarning o'z ixtiyori bilan to'langan summalar aks ettiriladi va bu schyot 9330 schyot "Undirilgan jarima, penya va ustamalar" bilan korrespondensiyalanadi:

### **Debet 4860 – Kredit 9330**

Mazkur summalarning qayta sug'urtalovchiga kelib tushishi pul mablag'lari schyotlarida quyidagi provodkalar orqali aks ettiriladi:

### **Debet 5010 (5110, 5210) – Kredit 4860**

#### **Tayanch so'zlar**

- ♦ *Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining o'zgarishi*
- ♦ *Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar*
- ♦ *To'langan sug'urta qoplamasi*
- ♦ *Uchinchi shaxslardan zararni undirish huquqi*
- ♦ *Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha to'langan, zararlar ulushining qoplamasi*
- ♦ *Hisoblangan sug'urta qoplamasi*
- ♦ *Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan sug'urta zaxiralari*
- ♦ *Regress da'volar*

#### **Nazorat savollari**

1. Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha hisob-kitoblar buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
2. To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha vujudga kelgan zararining qayta sug'urtalovchiga tegishli qismini, ariza bilan murojaat etib, unga qanday hujjatlarni ilova qilishi talab etiladi?
3. Qanday hollarda qayta sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lashni rad etishi mumkin?
4. "Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo mukofotlari" schyoti bo'yicha analitik hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?
5. Depo mukofotlarga hisoblangan foizlar qanday tartibda hisobdan chiqariladi?



6. Qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha qayta sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan qoplama summasi qaysi formula yordamida hisoblanadi?

7. Qayta sug'urtalanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri sug'urta qoplamalari bo'yicha sug'urta qoplamalari ulushini to'lashda xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini qanday shakllantiriladi?

8. Qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda aybdor shaxslarga zararni qoplash bo'yicha qilingan da'volar bo'yicha hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?

## **XII bob. OLDINI OLIISH (OGOHLANTIRISH) CHORA-TADBIRLARI ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI VA UNI HISOBGA OLIISH**

### **12.1. Sugʻurta hodisalari yuz berishining oldini olish chora-tadbirlarini moliyalashtirish**

Maʼlumki, sugʻurta shartnomalari sugʻurta hodisasi yuz bergan taqdirda sugʻurtalanuvchiga yetgan zararni qoplab berish maqsadida tuziladi. Sugʻurta tashkilotlari oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarini qonunchilikka muvofiq taʼminlash maqsadida maxsus zaxiralarni shakllantirishi mumkin.

Sugʻurta tashkiloti tijorat tashkiloti boʻlganligi sababli, toʻlanayotgan sugʻurta qoplamalarining hajmini tobora kamaytirishga harakat qiladi. Masalan, yongʻin sodir boʻlganda zararning hajmi ushbu obyektning yongʻin xavfsizligi xizmati joylashgan joydan qancha uzoqlikda joylashganiga bogʻliq boʻlishi odatiy holdir. Sugʻurta tashkilotlari sugʻurta oqibatida yetgan zararlarni kamaytirish maqsadida odini olish chora-tadbirlari zaxirasini tashkil etadilar. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan “Sugʻurtalovchilarning sugʻurta zaxiralari toʻgʻrisida Nizom”ning 26-bandiga muvofiq oldini olish chora-tadbirlari sugʻurta zaxirasi baxtsiz hodisalar, sugʻurtalangan mulkning shikastlanishi yoki zararlanishini oldini olish, shuningdek, oldini olish chora-tadbirlari sugʻurta zaxirasi toʻgʻrisidagi nizomda belgilangan maqsadlarda sarflanadi. Oldini olish chora-tadbirlari sugʻurta zaxirasi sugʻurtalovchi tomonidan tasdiqlanadi. Oldini olish chora-tadbirlari sugʻurta zaxirasi brutto-mukofotdan qilinadigan foizli ajratmalar evaziga shakllantiriladi. Sugʻurta tarifida ushbu zaxiralarga ajratiladigan ajratmalar hisobga olinadi. Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, oldini-olish chora-tadbirlari sugʻurtalangan obyektlarning sugʻurta hodisasi oqibatida zararlanishini kamaytirish maqsadida shakllantiriladi va uning hisobidan oldini olish chora-tadbirlari moliyalashtiriladi.

## **12.2. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasini shakllantirish**

Yuqorida ta'kidlanganidek, sug'urta zaxirasi kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan qilingan ajratmalar evaziga shakllantiriladi. Shuning uchun, eng avvalo, kelib tushgan sug'urta mukofotlari quyidagi provodkalar orqali hisobga olinadi:

### **Debet 5010 (5110, 5210) – Kredit 6280**

Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratmalar 2010 “Sug'urta ishini yuritish xarajatlari” schyotining debeti 8040 “Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi” schyotining krediti bilan bog'langan holda provodka bilan rasmiylashtiriladi.

### **Debet 2010 – Kredit 8040**

Oldini olish chora-tadbirlariga bo'nak sifatida to'langan summalarga quyidagicha provodka beriladi.

### **Debet 4330 – Kredit 5010 (5110, 5210)**

Avval oldini olish chora-tadbirlari uchun berilgan bo'nak mablag'lari hisobidan oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha vujudga kelgan kreditorlik qarzdorlikni qoplash, 6011 “Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha pudratchilarga to'lanadigan schyotlar” schyotining debeti va 4330 “Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun berilgan bo'naklar” schyotining krediti bilan bog'langan holda provodka berish orqali amalga oshiriladi.

### **Debet 6011 – Kredit 4330**

Oldini olish chora-tadbirlari uchun qo'shimcha to'lov summasiga, 6011 “Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha pudratchilarga to'lanadigan schyotlar” schyotining debeti pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning krediti bilan bog'langan holda yozuv amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchi tomonidan oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha ishlar qabul qilib olinganda, oldini olish chora-tadbirlarining amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida bajarilgan ishlar summasiga, 8040 “Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi” schyotining debeti 6011 “Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha pudratchilarga to'lanadigan schyotlar” schyotining krediti bilan bog'langan holda yozuv amalga oshiriladi.

## **Debet 8040 – Kredit 6011**

Ushbu zaxiralarni shakllantirishda yuqoridagi provodkalar zaxiralarga ajratiladigan summalarga beriladi. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi yil boshidagi zaxira summasi va hisobot yilida ajratilgan ajratmalar yig'indisi hamda ushbu davrda qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi sug'urtalovchi tomonidan belgilanadi va oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi Nizomda belgilanadi. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasini sarflash yo'nalishlari sifatida quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

- yong'in xavfsizligi depolarining qurilish va rekonstruksiyasi;
- yong'inga qarshi uskuna va mashinalarni sotib olish;
- yong'inga qarshi signalizatsiyani takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish;
- yong'inga qarshi quriladigan suv hovuzlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish;
- avtotransport vositalarining texnik holatini tekshiruvchi davlat avtomobil nazorati tashkilotlarining stansiyalarini qurish va rekonstruksiya qilish;
- yo'l-transport hodisalarining oldini olish vositalari va uskunalarini sotib olish;
- aholining sog'lig'ini saqlash bo'yicha amalga oshiriladigan sanitar-gigiyena chora-tadbirlarini moliyalashtirish;
- baxtsiz hodisalar, sug'urtalangan mulkning shikastlanishi yoki zararlanishining oldini olish bilan bog'liq boshqa chora-tadbirlarni moliyalashtirish.

Sug'urta tashkiloti Nizomda ko'rsatilgan boshqa maqsadlarda ham ushbu zaxira mablag'larini sarflashi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, oldini olish chora-tadbirlari zaxirasini shakllantirish va undan foydalanish to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomalari bo'yicha olingan majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq emas. Ushbu zaxira mablag'lari sug'urta hodisasi oqibatida yetishi mumkin bo'lgan zararlarning hajmini kamaytirish yoki uning oldini olish bilan bog'liq yo'nalishlarda sarflanadi. Shuning uchun ushbu zaxira sug'urtalovchi tomonidan mustaqil

ravishda shakllantiriladi. Mazkur zaxiraning shakllanishida qayta sugʻurtalovchi ishtirok etmaydi. Sugʻurtalovchi qayta sugʻurtaga sugʻurta mukofotlarini oʻtkazayotganda undan ushbu zaxiraga ajratiladigan ajratmalarni chegirib qoladi.

Yuqorida keltirilgan holatni quyidagi misol bilan izohlash mumkin:

Sugʻurta kompaniyasi avtotransport vositasini sugʻurtalash shartnomasini tuzdi. Sugʻurta mukofoti 180 soʻmni tashkil etadi. Sugʻurta tarifida oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga 10% ajratmani amalga oshirish belgilangan, yaʼni 18 soʻm.

Keyinchalik ushbu sugʻurta shartnomasi boʻyicha javobgarlikning 50%i qayta sugʻurtaga oʻtkazildi. Bunda qayta sugʻurtaga berilgan sugʻurta mukofoti  $180 / 0.5 = 90$  soʻm emas, balki  $(180-18) * 0.5 = 81$  soʻmni tashkil etadi.

### **Tayanch soʻzlar**

- ♦ *Oldini olish chora-tadbirlari*
- ♦ *Brutto-mukofot*
- ♦ *Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi*
- ♦ *Oldini olish zaxirasiga ajratma*

### **Nazorat savollari**

1. Sugʻurta hodisalari yuz berishining oldini olish chora-tadbirlari qanday moliyalashtiriladi?

2. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasini shakllantirish tartibini tushuntirib bering.

3. Oldini olish chora-tadbirlariga boʻnak sifatida toʻlangan summalarga qanday provodka beriladi?

4. Oldini olish chora-tadbirlari uchun qoʻshimcha toʻlov buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi?

5. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasini sarflash yoʻnalishlariga misol keltiring.

6. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasining shakllanishida qayta sugʻurtalovchi kompaniya ishtirok etadimi?

7. Oldini olish zaxirasiga ajratma hisoblashga doir misol keltiring.

## **XIII bob. ISHLAB TOPILMAGAN SUG‘URTA MUKOFOTLARI VA SODIR BO‘LGAN, LEKIN XABAR QILINMAGAN SUG‘URTA ZAXIRALARINI SHAKLLANTIRISH**

### **13.1. Ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasini shakllantirish yo‘nalishlari**

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” gi qonunining 21-moddasiga muvofiq “Qabul qilingan sug‘urta majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash uchun sug‘urtalovchilar ham so‘mda, ham chet el valutasida to‘langan sug‘urta mukofotlaridan maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda sug‘urta zaxiralarini shakllantiradilar hamda joylashtiradilar”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida Nizom”ga asosan sug‘urta tashkilotlari sug‘urta shartnomasi amal qilgan davrda majburiyatlarini bajarish maqsadida **ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasini** va sug‘urta shartnomasi davrida sodir bo‘lgan, lekin sug‘urta tashkilotiga shartnoma muddati tugagandan so‘ng xabar qilingan zararlarni qoplash uchun **sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasini** shakllantiradilar.

Yuqorida keltirilgan sug‘urta zaxiralarining hajmini aniqlashda sug‘urta va qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlarining agentlik va brokerlik siylovlar va oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga qilingan ajratmalar summasiga kamaytirilgan summasi **baza** hisoblanadi.

Ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasi hisobot davrida amalda bo‘lgan va unga taalluqli bo‘lgan hamda muddati hisobot davridan tashqariga chiquvchi sug‘urta shartnomalari bo‘yicha kelib tushgan bazaviy sug‘urta mukofotlarini namoyon etadi. Ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasi hisoblanganda

hayot sug‘urtasidan boshqa sug‘urta turlari yuqorida keltirilgan Nizomga asosan ajratilgan uchta hisob guruhlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

Birinchi hisob guruhi:

- baxtsiz hodisalar va kasalliklardan sug‘urta qilish;
- ixtiyoriy tibbiy sug‘urta;
- yuklarni sug‘urtalash;
- boshqa turdagi mol-mulklarni sug‘urtalash;
- avtotransport vositasi egasining javobgarligini sug‘urtalash;
- javobgarlik sug‘urtasining boshqa turlari, qarz oluvchining kreditni qoplay olmaslik javobgarligidan tashqari.

Ikkinchi hisob guruhi:

- moliyaviy risklarni sug‘urtalash;
- qarz oluvchining kreditni qoplay olmaslik javobgarligini sug‘urtalash.

Uchinchi hisob guruhi:

- sug‘urta shartnomasi amal qilish muddatining boshlanishi va tugashi sanalari noaniq bo‘lgan (“ochiq”) sug‘urta shartnomalarini tuzishni nazarda tutuvchi barcha sug‘urta turlari.

Birinchi hisob guruhi bo‘yicha sug‘urta zaxirasini shakllantirishning ikki usulini taklif etish mumkin. Bular “Pro Rata Temporis” va “24 dan bir (yigirma to‘rt dan bir)” usullari.

### **13.2. “Pro Rata Temporis” usulida sug‘urta zaxirasini shakllantirish**

“Pro Rata Temporis” usuliga muvofiq ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasi har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisobot sanasiga o‘tmagan muddatiga proporsional ravishda hisoblanadi. Ishlab topilmagan sug‘urta mukofoti, sug‘urta shartnomasi o‘tgan muddatining amal qilish muddatiga nisbati orqali aniqlangan kattalikka bazaviy sug‘urta mukofotini ko‘paytirish asosida aniqlanadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$ITM = M_b * \frac{N - M}{M}$$

Bunda:

ITM – ishlab topilmagan mukofot;

$M_b$  – bazaviy sugʻurta mukofoti;

$N$  – shartnomaning amal qilish muddati (kunda);

$M$  – sugʻurta shartnomasi kuchga kirgandan soʻng hisobot sanasiga boʻlgan kunlar soni.

Ishlab topilmagan sugʻurta mukofotining hisoblanishini misol asosida koʻrib chiqamiz.

Bir ishlab chiqaruvchi korxonada yongʻin holatidan sugʻurta qilindi. Ushbu shartnoma boʻyicha sugʻurta tashkilotiga 545 soʻm sugʻurta mukofoti kelib tushdi. Mazkur shartnoma boʻyicha komission siylovlar 10%, yaʼni 54.5 soʻmni tashkil etadi. Sugʻurta tashkiloti sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishilgan holda oldini olish chora-tadbirlari zaxirasini shakllantirish va undan foydalanish toʻgʻrisidagi Nizomni ishlab chiqadi. Masalan, Nizomda ushbu zaxiraga ajratma 20% miqdorida belgilangan boʻlsin. Bundan koʻrinadiki, ushbu zaxiraga sugʻurta mukofotidan 109 soʻm ajratiladi.

Yuqoridagilar asosida ishlab topilmagan sugʻurta mukofotlari zaxirasini hisoblash bazasi quyidagicha aniqlanadi:

$$545 - 54.5 - 109 = 381.5 \text{ soʻm}$$

Sugʻurta shartnomasi 9 oy, 2-mart soat 00.00 dan 1-dekabr soat 24.00gacha boʻlgan muddatga tuzilgan va shartnomaning umumiy amal qilish muddati 275 kunni tashkil etadi.

1-aprel holatida ushbu shartnoma 30 kun amal qildi. 1-aprel holatiga ishlab topilmagan sugʻurta mukofoti quyidagicha hisoblanadi:

$$381,5 * \frac{(275 - 30)}{275}$$

Yuqoridagi hisob-kitoblar barcha muddati hisobot davridan tashqariga chiquvchi sugʻurta shartnomalari boʻyicha hisoblanib, quyidagi 5-jadval asosida hisoblanishi mumkin.



## BIRINCHI HISOB GURUHI BO‘YICHA ISHLAB TOPILMAGAN MUKOFOTLAR ZAXIRASI

Sug‘urta turi \_\_\_\_\_

Sug‘urta valutasini \_\_\_\_\_

Sug‘urta shartnomasi	Bazaviy sug‘urta mukofoti	Shartnomaning amal qilish muddati kunda	Hisobot sanasiga shartnoma kuchga kirgandan so‘ng o‘tgan kunlar soni	Hisobot sanasiga sug‘urtalovchining majburiyati shartnoma bo‘yicha tugamagan kunlar soni	Ishlab topilmagan mukofot
1	2	3	4	5	6
Jami					

**Izoh:** 1. Ushbu jadval birinchi hisob guruhi bo‘yicha RNPni hisoblash uchun mo‘ljallangan. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblanadi va bunda 1-ustunda sug‘urta shartnomasi tuzilgan sanasi va raqami ko‘rsatiladi. 2-ustunda bazaviy sug‘urta mukofoti ko‘rsatiladi (1-shaklning 5-ustuniga muvofiq).

3. 3-ustunda tuzilgan sug‘urta shartnomalarini qayd qilish Jurnaliga binoan sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati kunlarda ko‘rsatiladi.

4. 4-ustunda hisobot sanasiga qadar sug‘urta shartnomasi tuzilgan kundan o‘tgan kunlar soni ko‘rsatiladi.

5. 5-ustunda hisobot sanasiga sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchining majburiyati tugamagan kunlar soni ko‘rsatiladi. Quyidagicha aniqlanadi  $5St. = 3Ust. - 4Ust.$ .

6. 6-ustunda ushbu Nizomning 13-bandida keltirilgan formula asosida hisoblangan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari hisoblanadi. Quyidagicha aniqlanadi:  $6UST. = 2Ust. * 5Ust. / Ust3.$

7. 6-ustunning jami tegishli sug‘urta turi bo‘yicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini tashkil etadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi 6-ustun ko‘rsatkichlarining yig‘indisi sifatida hisoblab chiqiladi.

Bazaviy sug‘urta mukofotini hisoblashni osonlashtirish va sodalashtirish maqsadida 6-jadvaldan foydalanish mumkin.

6-jadval

### BAZAVIY SUG‘URTA MUKOFOTI

Sug‘urta shartnomalari	Brutto sug‘urta mukofoti	Oldini olish chora-tadbirlariga ajratmalar	Komission siylovlar	Bazaviy sug‘urta mukofoti
1	2	3	4	5
Jami				

**Izoh:** 1. Ushbu jadvalda bazaviy sug‘urta mukofoti har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha aniqlanadi va 1-ustunda sug‘urta shartnomasining tuzilgan sanasi va raqami ko‘rsatiladi.

2. 2-ustunda har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari ko‘rsatiladi.

3. 3-ustunda oldini olish chora-tadbirlari zaxirasini shakllantirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasi ko‘rsatiladi. Bu ustun agar ushbu sug‘urta turi bo‘yicha ajratmalar tarif stavkasi tarkibida nazarda tutilgan bo‘lsa to‘ldiriladi.

4. 4-ustunda sug‘urta shartnomasini tuzganligi uchun haqiqatda to‘langan (hisoblangan) komission siylovlar summasi aks ettiriladi.

5. 5-ustunda bazaviy sug‘urta mukofoti aks ettiriladi, u to‘ldirilgan ustunlar asosida hisoblanadi:  $5Ust. = 2Ust. - 3Ust. - 4Ust.$

6. Olingan natijalar 2,3,4-shakllarda ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini hisoblash maqsadida foydalaniladi.

Ko‘rib o‘tilgan ishlab topilmagan sug‘urta zaxiralarini hisoblash usuli sug‘urta shartnomalarining soni juda katta bo‘lmagan hollarda samarali hisoblanadi.

### 13.3. “1/24 (yigirma to‘rt dan bir)” usuli

Sug‘urta shartnomalari soni ko‘p bo‘lganda ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlarini hisoblashda “1/24 (yigirma to‘rt dan bir)”

usulidan foydalanish maqsadga muvofiq va qulay hisoblanadi. Bu usul sug'urtalovchining majburiyati boshlangan oyda kelib tushgan bazaviy sug'urta mukofotini sug'urta shartnomalari bo'yicha umumlashtirish va ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini shakllantirish koeffitsiyentiga ko'paytirishga asoslanadi. Bunda ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi har bir shartnomalar guruhi bo'yicha hisoblangan zaxiralar summasi sifatida aniqlanadi. Sug'urta shartnomalari muddati bo'yicha guruhlarga ajratilganda eng katta muddatni olish tavsiya etiladi.

7-jadval

**1-hisob guruhi bo'yicha "1/24" usulida hisoblangan ishlab topilmagan sug'urta zaxiralari**

Sug'urta turi \_\_\_\_\_

Sug'urtalash valyutasi \_\_\_\_\_

Shartnoma imzolan-gandan so'ng o'tgan oylar soni	Satr kodi	Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati											
		1 oy			3 oy			6 oy			1 yil		
		BMS	K	TM	BMS	K	TM	BMS	K	TM	BMS	K	TM
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
11 oy	01	X	X	X	X	X	X	X	X	X		1/24	
10 oy	02	X	X	X	X	X	X	X	X	X		3/24	
9 oy	03	X	X	X	X	X	X	X	X	X		5/24	
8 oy	04	X	X	X	X	X	X	X	X	X		7/24	
7 oy	05	X	X	X	X	X	X	X	X	X		9/24	
6 oy	06	X	X	X	X	X	X	X	X	X		11/24	
5 oy	07	X	X	X	X	X	X		1/12			13/24	
4 oy	08	X	X	X	X	X	X		3/12			15/24	
3 oy	09	X	X	X	X	X	X		5/12			17/24	
2 oy	10	X	X	X		1/6			7/12			19/24	
1 oy	11	X	X	X		3/6			9/12			21/24	
Hisobot sanasi bilan tugaydigan oy	12		1/2			5/6			11/12			23/24	
Jami	13	X	X		X	X		X	X		X	X	
<b>Jami RNP</b>	14												

**7-jadvalga izoh.** *BMS* – Bazaviy mukofot summasi, *K* – koeffitsiyent, *TM* – Topshirilmagan mukofot

1. Ushbu jadval 1-hisob guruhi bo'yicha "1/24" usulida RNPni hisoblash uchun mo'ljallangan.

2. 3-ustunda 11-jadvalning 6-ustunidagi bazaviy sug'urta mukofoti, 6-ustunda 12-jadvalning 6-ustunidagi bazaviy sug'urta mukofoti, 9-ustunda 13-jadvalning 6-ustunidagi bazaviy sug'urta mukofoti, 12-ustunda 14-jadvalning 6-ustunidagi bazaviy sug'urta mukofoti aks ettiriladi.

3. 4, 7, 10, 13-ustunlarda ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini hisoblashda foydalaniladigan koeffitsiyentlar berilgan

4. Ishlab topilmagan mukofotlar bazaviy mukofotlarni jadvalda keltirilgan koeffitsiyentlarga ko'paytirish orqali hisoblanadi. Natija 5, 8, 11, 14-ustunlarda aks ettiriladi.

5. Ishlab topilmagan mukofotlarning summalarining jami 13-satrdagi aks ettiriladi.

6. Ishlab topilmagan mukofotlarning jami summasi 14-satrdagi 13-satrdagi summalarining yig'indisi sifatida aks ettiriladi.

Ishlab topilmagan mukofotlarni hisoblashning ushbu usulini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Masalan, sug'urta tashkiloti ilk faoliyatini boshlagan birinchi oyda muddati 6 oy bo'lgan ikkita (ushbu sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari – 240 ming so'm) va muddati 1 yil bo'lgan ikkita (ushbu sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari – 480 ming so'm) sug'urta shartnomasini tuzgan.

Tarif stavkasida 10% oldini olish chora-tadbirlari va 10% vositachilik mukofotlari nazarda tutilgan.

Bundan kelib chiqadiki, sug'urta shartnomalari bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti kelib tushgan sug'urta mukofotining 80% ini tashkil etadi.

Olingan ma'lumotlar RNPni hisoblash uchun mo'ljallangan jadvalda umumlashtiriladi.

Jadvalning 3, 6, 9, 12 ustunlari bo'yicha mos ravishda 1, 3, 6, 12 oyga tuzilgan sug'urta shartnomalari 1-ustunda keltirilgan 1 oy bo'yicha hisoblangan bazaviy sug'urta mukofotlari aks ettiriladi. Sug'urta shartnomasining tuzilish muddati muvofiq bo'lmagan taqdirda eng yaqin katta muddatni (oyni) olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Har bir sug'urta shartnomalari guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofotlar tegishli koeffitsiyentlarga ko'paytirish orqali hi-

soblanadi. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi barcha shartnoma guruhlari bo'yicha hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarning summasi sifatida olinadi.

8-jadval

Shartnoma imzolan-gandan so'ng o'tgan oylar soni	Satr kodi	Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati					
		6 oy			1 yil		
		BMS	K	TM	BMS	K	TM
1	2	9	10	11	12	13	14
11 oy	01	X	X	X		1/24	
10 oy	02	X	X	X		3/24	
9 oy	03	X	X	X		5/24	
8 oy	04	X	X	X		7/24	
7 oy	05	X	X	X		9/24	
6 oy	06	X	X	X		11/24	
5 oy	07		1/12			13/24	
4 oy	08		3/12			15/24	
3 oy	09		5/12			17/24	
2 oy	10		7/12			19/24	
1 oy	11		9/12			21/24	
Hisobot sanasi bilan tugaydigan oy	12	192	11/12	176	384	23/24	368
Jami	13	X	X	368	X	X	368
Jami RNP	14	544					

Aytaylik, sug'urta kompaniyasi faoliyatining ikkinchi oyida uchta 6 oylik muddatli va to'rtta 1 yillik muddatli sg'urta shartno-

malaria tuzildi. 6 oyli sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarining jami summasi 360 ming so'm (bazaviy sug'urta mukofoti 288 ming so'm) va 1 yillik shartnomalar bo'yicha 960 ming so'm (bazaviy sug'urta mukofoti 768 ming so'm).

Ikkinchi oyning yakunlanishi bilan yuqoridagi jadval quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

9-jadval

Shartnoma imzolanganidan so'ng o'tgan oylar soni	Satr kodi	Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati					
		6 oy			1 yil		
		BMS	K	TM	BMS	K	TM
1	2	9	10	11	12	13	14
11 oy	01	X	X	X		1/24	
10 oy	02	X	X	X		3/24	
9 oy	03	X	X	X		5/24	
8 oy	04	X	X	X		7/24	
7 oy	05	X	X	X		9/24	
6 oy	06	X	X	X		11/24	
5 oy	07		1/12			13/24	
4 oy	08		3/12			15/24	
3 oy	09		5/12			17/24	
2 oy	10		7/12			19/24	
1 oy	11	192	9/12	144	384	21/24	336
Hisobot sanasi bilan tugaydigan oy	12	288	11/12	264	768	23/24	736
Jami	13	X	X	408	X	X	1072
Jami RNP	14	1480					

Uchinchi oyda esa muddati bir yil bo'lgan uchta sug'urta shartnomasi tuzildi va ularning jami sug'urta mukofoti 720 ming so'mni (bazaviy sug'urta mukofoti 576 ming so'm) tashkil etadi.

10-jadval

Shartnoma imzolanganidan so'ng o'tgan oylar soni	Satr kodi	Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati					
		6 oy			1 yil		
		BMS	K	TM	BMS	K	TM
1	2	9	10	11	12	13	14
11 oy	01	X	X	X		1/24	
10 oy	02	X	X	X		3/24	
9 oy	03	X	X	X		5/24	
8 oy	04	X	X	X		7/24	
7 oy	05	X	X	X		9/24	
6 oy	06	X	X	X		11/24	
5 oy	07		1/12			13/24	
4 oy	08		3/12			15/24	
3 oy	09		5/12			17/24	
2 oy	10	192	7/12	112	384	19/24	304
1 oy	11	288	9/12	216	768	21/24	672
Hisobot sanasi bilan tugaydigan oy	12		11/12		576	23/24	552
Jami	13	X	X	328	X	X	15528
Jami RNP	14	1856					

Yuqoridagi tartibda ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi hisob-kitobi amalga oshiriladi.

“1/24” usulida ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini hisoblashda bazaviy mukofotni hisoblashni soddalashtirish maqsadida har bir sug'urta shartnomalari guruhi bo'yicha quyidagi jadvallarni qo'llash maqsadga muvofiq.

**11-jadval**

**Amal qilish muddati 1 oy bo'lgan sug'urta shartnomalari  
uchun bazaviy sug'urta mukofoti**

Sug'urta turi \_\_\_\_\_

Sug'urta valutasini \_\_\_\_\_

	Satr kodi	Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati 1 oy			
		Brutto sug'urta mukofoti	Oldini olish chora- tadbirlari- ga ajratmalar	Komis- sion muko- fotlar	Bazaviy sug'urta mukofoti
1	2	3	4	5	6
Hisobot sanasi bilan tugaydigan oy	01				
Jami	02				

**12-jadval**

**Amal qilish muddati 3 oy bo'lgan sug'urta shartnomalari  
uchun bazaviy sug'urta mukofoti**

Sug'urta turi \_\_\_\_\_

Sug'urta valutasini \_\_\_\_\_

	Satr kodi	Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati 3 oy			
		Brutto sug'urta mukofoti	Oldini olish chora- tadbirlariga ajratmalar	Komissi on muko- fotlar	Bazaviy sug'urta mukofoti
1	2	3	4	5	6
2 oy	01				
1 oy	02				
Hisobot sanasi bilan tugaydigan oy	03				
Jami	04				



**Amal qilish muddati 6 oy bo'lgan sug'urta shartnomalari  
uchun bazaviy sug'urta mukofoti**

Sug'urta turi \_\_\_\_\_

Sug'urta valutasini \_\_\_\_\_

	Satr kodi	Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati 6 oy			
		Brutto sug'urta mukofoti	Oldini olish chora-tadbirlariga ajratmalar	Komission mukofotlar	Bazaviy sug'urta mukofoti
1	2	3	4	5	6
5 oy	01				
4 oy	02				
3 oy	03				
2 oy	04				
1 oy	05				
Hisobot sanasi bilan tugaydigan oy	06				
Jami	07				

**11, 12, 13, 14-jadvallarga izoh.**

1. 11-14 – jadvallar ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi “1/24” usulida hisoblangan taqdirda, bazaviy sug'urta mukofotlarini hisoblash uchun mo'ljallangan. Sug'urta shartnomasi bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari sug'urta shartnomasining kuchga kirish oyi va uning amal qilish muddatidan kelib chiqib guruhlanadi hamda 11-14-jadvallarda aks ettiriladi.

2. Sug'urta mukofotini davriy ravishda to'lashni nazarda tutuvchi sug'urta shartnomalari bo'yicha to'langan sug'urta mukofotiga muvofiq ravishda sug'urta shartnomasi asosida hisoblangan muddat olinadi.

3. Amal qilish muddati jadvalda keltirilgan muddatlarga muvofiq kelmaydigan sug'urta shartnomalari bo'yicha eng yaqin katta muddatli jadvalni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. 11-14 – jadvallarning 3 ustunida sug'urta shartnomasining amal qilishining boshlanishi oyi bo'yicha guruhlanadigan sug'urta shartnomalari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari aks ettiriladi.

5. 11-14 – jadvallarning 4 ustunida oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga ajratiladigan mablag‘lar summasi aks ettiriladi.

6. 11-14-jadvallarning 5 ustunida sug‘urta shartnomalarini tuzganligi uchun to‘lanadigan komission mukofotlar aks ettiriladi.

7-6 ustunda quyidagi formula asosida hisoblangan bazaviy sug‘urta mukofoti aks ettiriladi:

$$6Ust. = 3Ust. - 4Ust. - 5Ust.$$

8. Olingan natijalar ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini hisoblash uchun 7-jadvalda foydalaniladi.

14-jadval

**Amal qilish muddati 1 yil bo‘lgan sug‘urta shartnomalari  
uchun bazaviy sug‘urta mukofoti**

Sug‘urta turi \_\_\_\_\_

Sug‘urta valutasini \_\_\_\_\_

	Satr kodi	Sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati 1 yil			
		Brutto sug‘urta mukofoti	Oldini olish chora-tadbirlariga ajratmalar	Komission mukofotlar	Bazaviy sug‘urta mukofoti
1	2	3	4	5	6
11 oy	01				
10 oy	02				
9 oy	03				
8 oy	04				
7 oy	05				
6 oy	06				
5 oy	07				
4 oy	08				
3 oy	09				
2 oy	10				
1 oy	11				
Hisobot sanasi bilan tugaydigan oy	12				
Jami	13				

### 13.4. Ikkinchi hisob guruhiga kiruvchi sug'urta shartnomalari bo'yicha ishlab topilmagan sug'urta zaxiralarini aniqlash

Ikkinchi hisob guruhi bo'yicha (moliyaviy risklarni sug'urtalash va qarz oluvchining kreditni qoplay olmaslik javobgarligini sug'urtalash) ishlab topilmagan sug'urta mukofoti shartnoma muddati to'liq tugagunga qadar har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotining hajmiga teng bo'ladi.

Ikkinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini 15-jadval asosida hisoblash mumkin.

15-jadval

#### IKKINCHI HISOB GURUHI BO'YICHA HISOBLANGAN ISHLAB TOPILMAGAN MUKOFOTLAR ZAXIRASI

Sug'urta turi \_\_\_\_\_

Sug'urta valutasini \_\_\_\_\_

Sug'urta shartnomalari	Bazaviy sug'urta mukofoti	Sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanish sanasi	Sug'urta shartnomasining amal qilishining tugash sanasi	Ishlab topilmagan mukofotlar
1	2	3	4	5
<b>Jami</b>				

#### Izoh.

1. Ushbu jadval uchinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini hisoblash uchun mo'ljallangan. Ishlab topilmagan mukofotlarning hisobi har bir sug'urta shartnomasi asosida amalga oshiriladi va 1-ustunda sug'urta shartnomasining tuzilgan sanasi va raqami ko'rsatiladi.

2. 2-ustunda 1-shaklning 5-ustuniga muvofiq har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti ko'rsatiladi.

3. 3-ustunda sug'urta shartnomasining kuchga kirish sanasi (oy, yil) tuzilgan sug'urta shartnomalarini hisobga olish Jurnaliga muvofiq ko'rsatiladi.

4. 4-ustunda sug'urta shartnomasi amal qilishining tugash sanasi (oy, yil) tuzilgan sug'urta shartnomalarini hisobga olish Jurnaliga muvofiq ko'rsatiladi.

5. 5-ustunda har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha 2-ustundagi bazaviy sug'urta mukofotiga muvofiq keluvchi ishlab topilmagan mukofotlar sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining majburiyati to'liq tugagunga qadar ko'rsatiladi.

6. 5-ustunning jami summasi tegishli sug'urta turi bo'yicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini tashkil etadi.

### **13.5. Uchinchi hisob guruhiga kiruvchi sug'urta shartnomalari bo'yicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini aniqlash**

Uchinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisobot sanasiga kelib tushgan bazaviy sug'urta mukofotining 40%i miqdorida aniqlanadi.

Ma'lumki, uchinchi hisob guruhiga sug'urta shartnomasi amal qilish muddatining boshlanishi va tugashi sanalari noaniq bo'lgan ("ochiq") sug'urta shartnomalarini tuzishni nazarda tutuvchi barcha sug'urta turlari kiradi.

Misol. "ochiq" turdagi sug'urta shartnomalari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari summasi 20000 so'mni tashkil etdi.

Sug'urta kompaniyasi tomonidan to'langan komission mukofot 400 so'mni tashkil etadi.

Oldini olish chora-tadbirlariga qilinadigan ajratmalar 40%ni tashkil etganda, uning summasi 8000 so'mni tashkil etadi:

Yuqoridagilar asosida bazaviy sug'urta mukofoti quyidagini tashkil etadi:

$$20000-400-8000=11600 \text{ so'm.}$$

Hisobot sanasi holatiga ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi muvofiq ravishda bazaviy sug'urta mukofotining belgilangan foizga ko'paytirish orqali aniqlanadi va  $116000*40\%=4640$  ni tashkil etadi.

Uchinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini 16-jadval asosida hisoblash mumkin.

## UCHINCHI HISOB GURUHI BO‘YICHA HISOBLANGAN ISHLAB TOPILMAGAN MUKOFOTLAR ZAXIRASI

Sug‘urta turi \_\_\_\_\_  
Sug‘urtalash valutasini \_\_\_\_\_

Sug‘urta shartnomasi	Bazaviy sug‘urta mukofoti	Ishlab topilmagan mukofot
1	2	3
<b>Jami</b>		

### Izoh.

1. Ushbu jadval uchinchi hisob guruhi bo‘yicha RNPni hisoblash uchun mo‘ljallangan. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha hisoblanadi.

2. 2-ustunda 1-shaklning 5-ustuniga muvofiq har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bazaviy sug‘urta mukofoti ko‘rsatiladi.

3. 3-ustunda har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bazaviy sug‘urta mukofotining 40% miqdoridagi summasi ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchining majburiyati tugamagan taqdirda ko‘rsatiladi.  $ZUst. = 2Ust. \times 40\% : 100\%$

4. 3-ustunning jami summasi tegishli sug‘urta turi bo‘yicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini tashkil etadi.

### Nazorat savollari

1. Ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasini shakllantirish yo‘nalishlari nimalardan iborat?

2. Ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining shakllanishi uchun qanday baza asos bo‘ladi?

3. Sug‘urta zaxirasini shakllantirishning qanday usullarini bilasiz?

4. Sugʻurta zaxirasini shakllantirishning “Pro Rata Temporis” usuli qanday hisoblanadi?

5. Ishlab topilmagan sugʻurta mukofotining shakllanishiga doir misol keltiring.

6. Bazaviy sugʻurta mukofotini hisoblashning oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

7. Sugʻurta shartnomalari soni koʻp boʻlganda ishlab topilmagan sugʻurta mukofotlarini hisoblashda qanday usuldan foydalaniladi?

8. Ishlab topilmagan sugʻurta mukofotlarini hisoblashda “1/24 (yigirma toʻrt dan bir)” usulining qulay taraflari nimadan iborat?

9. Amal qilish muddati 1 oy boʻlgan sugʻurta shartnomalari uchun bazaviy sugʻurta mukofoti qanday hisoblanadi?

10. Ikkinchi hisob guruhiga kiruvchi sugʻurta shartnomalari boʻyicha ishlab topilmagan sugʻurta zaxiralari qanday aniqlanadi?

11. Uchinchi hisob guruhi boʻyicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi qanday aniqlanadi?

## **XIV bob. ISHLAB TOPILMAGAN SUG‘URTA MUKOFOTLARI VA SODIR BO‘LGAN, LEKIN XABAR QILINMAGAN SUG‘URTA ZAXIRALARINI SHAKLLANTIRISHNI HISOBGA OLISH**

### **14.1. Ishlab topilmagan sug‘urta zaxiralarining buxgalteriya hisobi**

Sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta shartnomalari bo‘yicha ishlab topilmagan mukofotlarning yig‘indisi ushbu sug‘urta turi bo‘yicha ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini tashkil etadi.

Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi mablag‘larining harakatlanishini hisobga olish maqsadida schyotlar rejasida 8010 schyot “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi” keltirilgan.

Ushbu schyotning krediti bilan 9230 schyot “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”ning debeti korrespondensiyalangan holda yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar asosida hisobdagi oxiriga ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi summasi aniqlanadi:

#### **Debet 9230 – Kredit 8010**

8010 schyotning debeti bo‘yicha 9230 schyotning krediti korrespondensiyalanganda o‘tgan hisobot davrining oxiriga ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi summasi aks ettiriladi.

#### **Debet 8010 – Kredit 9230**

Yuqorida keltirilgan ikkala provodkaning ketma-ketlikda amalga oshirilishi ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini buxgalteriyada hisobga olinishini ta‘minlaydi.

8010 schyot “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi” ning kredit tomonidagi saldosi mazkur zaxiraning hisobot sanasiga bo‘lgan qiymatini aks ettiradi.

8010 schyot “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi” bo‘yicha analitik hisob har bir sug‘urta turi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Moliyaviy natijalarni aniqlashda 9230 schyot “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”ning debet tomonidagi

saldosi 9030 schyot “Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar”ning debet tomoniga o‘tkaziladi:

**Debet 9030 – Kredit 9230**

Agar hisobot davrida zaxiralarning umumiy hajmi kamaygan bo‘lsa, ushbu schyotning kredit tomonidagi saldo 9030 schyotning kreditiga o‘tkaziladi:

**Debet 9230 – Debet 9030.**

**14.2. Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxiralarini shakllantirish va uning buxgalteriya hisobi**

Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (RPNU) hisobot davrida kelib tushgan bazaviy sug‘urta mukofotlaridan 10% li ajratmalarni amalga oshirish asosida hisoblanadi.

Hisobot sanasiga ushbu zaxiralarning hajmi hisobot davrida kelib tushgan barcha bazaviy sug‘urta mukofotlarining summasidan 10% miqdorida hisoblanadi.

Ushbu sug‘urta zaxirasini 17-jadval asosida hisoblash qulay hisoblanadi.

**17-jadval**

**SODIR BO‘LGAN, LEKIN XABAR QILINMAGAN ZARARLAR ZAXIRASI**

Sug‘urta turi \_\_\_\_\_

Sug‘urta valutasini \_\_\_\_\_

	<b>Satr kodi</b>	<b>Bazaviy sug‘urta mukofoti</b>	<b>RNPUGa ajratmalar me‘yori (%)</b>	<b>RPNU</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
1-kvartal	01			
2-kvartal	02			
3-kvartal	03			
Hisobot sanasi bilan tugaydigan kvartal	04			
<b>Jami</b>	05			



### **Izoh.**

1. Ushbu jadval RPNUni hisoblash uchun mo'ljallangan.
2. 3-ustunda bazaviy sug'urta mukofoti kvartallarga ajratilgan holda ko'rsatiladi.
3. 3-ustunning 5-satrida bazaviy sug'urta mukofotining jami summasi aks ettiriladi.
4. 4-ustunning 5-satrida bazaviy sug'urta mukofotidan RPNUga qilinadigan ajratma me'yori aks ettiriladi.
5. 5-ustunning 5-satrida hisobot sanasiga RPNUning hajmi aniqlanadi.

Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasini buxgalteriyada hisobga olish uchun schyotlar rejasida 8020 schyot "Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi" nazarda tutilgan.

Ushbu schyotning krediti bilan 9240 schyot "Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi"ning debeti korrespondensiyalangan holda yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar asosida hisobot davri oxiriga ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi summasi aniqlanadi:

### **Debet 9240 – Kredit 8020**

8020 schyot "Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi"ning debeti bo'yicha 9240 schyot "Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi"ning krediti korrespondensiyalanganda o'tgan hisobot davrining oxiriga ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi summasi aks ettiriladi.

### **Debet 8020 – Kredit 9240**

Yuqorida keltirilgan ikkala provodkaning ketma-ketlikda amalga oshirilishi ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini buxgalteriyada hisobga olinishini ta'minlaydi.

8020 schyot "Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi"ning kredit tomonidagi saldosi mazkur zaxiraning hisobot sanasiga bo'lgan qiymatini aks ettiradi.

8020 schyot "Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi" bo'yicha analitik hisob har bir sug'urta turi bo'yicha amalga oshiriladi.

Moliyaviy natijalarni aniqlashda 9240 schyot "Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi"ning

debet tomonidagi saldosi 9030 schyot “Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromalar”ning debet tomoniga o‘tkaziladi:

### **Debet 9030 – Kredit 9240**

Agar hisobot davrida zaxiralarning umumiy hajmi kamaygan bo‘lsa, ushbu schyotning kredit tomonidagi saldo 9030 schyotning kreditiga o‘tkaziladi:

### **Debet 9240 – Debet 9030.**

## **14.3. Qayta sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha sug‘urta zaxiralarini shakllantirish**

Yuqorida keltirilgan sug‘urta zaxiralari sug‘urtalovchi tomondan moliyaviy natijalarni aniqlashda hisobot sanasiga har bir sug‘urta turi bo‘yicha shakllantiriladi. Sug‘urta zaxiralarning chet yoki milliy valutada shakllantirilishidan qat’i nazar sug‘urta zaxiralari sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining belgilagan valuta kursi bo‘yicha ularning buxgalteriya hisobi O‘zbekiston Respublikasi so‘mida amalga oshiriladi.

Ushbu zaxiralar to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalash shartnomalari va qayta sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari hisobidan shakllantiriladi. Qayta sug‘urtalovchining oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etmasligini hisobga olib, qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari bo‘yicha bazaviy sug‘urta mukofotini hisoblashda oldini olish chora-tadbirlariga ajratmalarni hisobga olmaslik maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sug‘urta zaxiralarning noto‘g‘ri hisoblanganligi ma’lum bo‘lgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasi qonunchilikda belgilangan choralarni ko‘rishi mumkin.

### **Tayanch so‘zlar**

- ♦ *Ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasi*
- ♦ *Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan*
- ♦ *Ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasining o‘zgarishi*
- ♦ *Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan sug‘urta zaxiralarning*

- |  |   |
|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ <i>sug'urta zaxiralari</i></li> <li>♦ <i>Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan sug'urta zaxiralari</i></li> <li>♦ <i>Qayta sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari</i></li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>♦ <i>o'zgarishi</i></li> <li>♦ <i>Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan sug'urta zaxiralarning o'zgarishi</i></li> <li>♦ <i>Qayta sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralarning o'zgarishi</i></li> </ul> |
|--|---|

### **Nazorat savollari**

1. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi?
2. Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi qanday shakllantiriladi?
3. Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
4. Qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta zaxiralari qanday shakllantiriladi?
5. Qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta zaxiralari buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
6. Sug'urta zaxirasi chet el valutasida shakllantirilganda uning buxgalteriya hisobi qanday aks ettiriladi?
7. Sug'urta zaxiralarning to'g'ri hisoblanishi ustidan qaysi davlat organi nazorat qiladi?

## **XV bob. BOSHQA TEXNIK ZAXIRALARNI HISOBGA OLISH**

### **15.1. Boshqa texnik zaxiralarni shakllantirish**

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Sug‘urta-lovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq sug‘urta zaxiralari quyidagilardan iborat:

- ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi (umumiy sug‘urta sohasida);
- mukofotlar zaxirasi (hayot sug‘urtasi sohasida);
- keyingi yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda);
- zararlar zaxirasi (Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi, Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi);
- qo‘shimcha texnik zaxiralar (halokatlar zaxirasi, zararli-likning tebranish zaxirasi va oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi, aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi).

Halokatlar zaxirasi yengib bo‘lmas kuch yoki katta masshtab-dagi avariya natijasida favqulodda yuz bergan ko‘p sonli shartno-malar bo‘yicha sug‘urta qoplamasini to‘lashni taqozo etgan zararlarni qoplash maqsadida shakllantiriladi.

Sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, sug‘urtada ishtirok etuvchi ko‘p sonli sug‘urtalanuvchilardan yig‘ib olingan mablag‘larni belgilangan hodisa yuz berganda ularga qayta taqsimlab berishni nazarda tutadi. Bunda sug‘urta hodisasining yuz berishi yagona ishtirokchiga taalluqli bo‘ladi. Endi bir nechta mol-mulk obyektlari, aytaylik, daryo bo‘yidagi dam olish hududlarining birida

joylashgan bir nechta obyektlar sug'urtalangan. Bunda suv toshishi oqibatida bir obyekt emas, balki barcha sug'urtalangan obyektlarga ta'sir ko'rsatadi. Natijada bir sug'urta hodisasi oqibatidagi sug'urta zarari bir necha barobar oshib ketishi mumkin. Mazkur zararlarni qoplash maqsadida halokatlar zaxirasi shakllantiriladi.

Zararlilikning tebranishi zaxirasi hisobot yilida sug'urta turi bo'yicha sug'urta tarifining netto-stavkasini hisoblashda asos bo'lgan kutilayotgan zararlilik darajasiga qaraganda haqiqatdagi zararlilik darajasi yuqori bo'lgan taqdirda, sug'urta qoplamalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarning bir qismini qoplash maqsadida shakllantiriladi.

Sug'urta kompaniyasida sug'urta tariflarini hisoblashda qanday usullar qo'llanilayotganligidan qat'i nazar, u bir sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasining yuz berish ehtimolligini, sug'urta shartnomasi bo'yicha o'rtacha sug'urta summasini va bir sug'urta hodisasi to'g'ri keladigan o'rtacha sug'urta qoplamasi miqdorlarini aniqlash imkonini berishi kerak.

Birinchi holatda, sug'urta tarifini hisoblashda sug'urtalovchi oldindan tuzilishi kutilayotgan sug'urta shartnomalarining sonini 100 ta deb mo'ljallayotgan bo'lsa, aytaylik ulardan sug'urta muddati davomida uchtasi bo'yicha sug'urta qoplamasini to'lash kutilayotgan bo'lsin. Bunda sug'urta qoplamasining umumiy summasi  $3 * S$  dan ortiq bo'lmaydi. Bunda  $S$  sug'urta shartnomalari bo'yicha o'rtacha sug'urta qoplamasi miqdoridir.

Ikkinchi holatda, sug'urtalovchi sug'urta qoplamasining hajmini sug'urta shartnomalari bo'yicha jami sug'urta summasiga muvofiq mo'ljallashi mumkin. Masalan, barcha sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta summasi 100000 so'mni tashkil etganda, sug'urta qoplamasi 3000 so'mni tashkil etganda, barcha sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta summasi 500000 so'mni tashkil etsa, sug'urta qoplamasining 15000 so'mni tashkil etishi taxmin etilishi mumkin.

Lekin ta'kidlash joizki, sug'urta qoplamalarini to'lash ehtimoli nazariyasiga muvofiq ushbu summalar haqiqatda mo'ljallaniganiga yetmasligi yoki undan ham ortiq bo'lishi mumkin. Ana shunday, sug'urtalovchi uchun zararli bo'lib kelgan yillarda zararlarni qoplash maqsadida zararlilikning tebranishi zaxirasi o'tgan

sug'urtalovchi uchun foydali kelgan yillar hisobiga shakllantiriladi.

Halokatlar va zararlilikning tebranish zaxiralarini shakllantirish va sarflash tartibi sug'urtalovchi tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishiladi.

Odatdagidek, ushbu sug'urta zaxiralarini shakllantirishda asos bazaviy sug'urta mukofoti hisoblanadi. Bazaviy sug'urta mukofoti kelib tushgan sug'urta mukofotidan sug'urta shartnomasini tuzganlik uchun komission mukofotlar va oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga qilinadigan ajratmalar chegirilgan holda aniqlanadi. Mazkur zaxiralarning hajmi bazaviy sug'urta mukofotida nazarda tutilgan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishilgan stavkalardagi ajratmalar asosida hisoblanadi.

Zaxiralarning hisob-kitobi hisobot sanasiga sug'urtalovchi tomonidan moliyaviy natijalarni aniqlashda har bir sug'urta turi bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Yuqoridagi Nizomga muvofiq sug'urta zaxiralari qaysi valutada mukofotlar kelib tushsa, o'sha valutada shakllantiriladi.

## **15.2. Boshqa texnik zaxiralarni hisobga olish**

Halokatlar zaxirasi va zararlilikning tebranishi zaxirasini hisobga olish uchun schyotlar rejasida quyidagi schyotlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

8050 schyot "Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi";

8060 schyot "Falokatlar zaxirasi";

8070 schyot "Zararlilikning tebranishi zaxirasi".

Mazkur subschyotlarning debeti bo'yicha tegishli schyotlar 9260 "Falokatlar zaxirasi o'zgarishining natijasi", 9270 "Zararlilikning tebranishi zaxirasi o'zgarishining natijasi", 9290 "Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi o'zgarishining natijasi"ning krediti bilan korrespondensiyalangan holda hisobot sanasiga ushbu zaxiralarning hajmi summasi aks ettiriladi:

**Debet 9260 – Kredit 8060**

**Debet 9270 – Kredit 8070**

**Debet 9290 – Kredit 8050**

8050 schyot “Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi”, 8060 schyot “Falokatlar zaxirasi”, 8070 schyot “Zararlilikning tebranishi zaxirasi” schyotlar 9260 “Falokatlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”, 9270 “Zararlilikning tebranishi zaxirasi o‘zgarishining natijasi”, 9290 “Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi o‘zgarishining natijasi” schyotlari krediti bilan korrespondensiyalanganda o‘tgan hisobot davrining oxiri holatiga bo‘lgan sug‘urta zaxiralarning summasi aks ettiriladi.

**Debet 8060 – Kredit 9260**

**Debet 8070 – Kredit 9270**

**Debet 8050 – Kredit 9290**

Natijada schyotlar 8050, 8060, 8070 schyotlarning kredit tomonidagi qoldiqlari hisobot sanasiga tegishli zaxiralarning hajmini aks ettiradi.

Moliyaviy natijalarni aniqlashda 9260 “Falokatlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”, 9270 “Zararlilikning tebranishi zaxirasi o‘zgarishining natijasi”, 9290 “Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi o‘zgarishining natijasi” schyotlarining debet tomonidagi saldosi ushbu zaxiralarning oshganligini aks ettiradi va 9030 schyot “Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar” ning debetiga o‘tkaziladi:

**Debet 9030 – Kredit 9260**

**Debet 9030 – Kredit 9270**

**Debet 9030 – Kredit 9290**

Agar hisobot davrida yuqoridagi zaxiralarning hajmi kamaygan bo‘lsa, u holda ushbu subschyotlarning kredit tomonidagi saldosi 9030 schyotning kreditiga o‘tkaziladi:

**Debet 9260 – Kredit 9030**

**Debet 9270 – Kredit 9030**

**Debet 9290 – Kredit 9030**

Mazkur sug‘urta zaxiralari faqatgina to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari asosida shakllantiriladi. Mazkur zaxiralardagi qayta sug‘urtalovchining ishtiroki mavjud bo‘lmaydi.

Sug'urta zaxiralarini shakllantirish to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasiga topshiriladi.

### **Tayanch so'zlar**

- ♦ *Tabiiy ofat*
- ♦ *Zararlarning tebranishi zaxirasi*
- ♦ *Halokatlar zaxirasi*
- ♦ *Texnik zaxiralar*
- ♦ *Hisobot yili*
- ♦ *Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi*
- ♦ *Netto-mukofot*
- ♦ *Hayot sug'urtasi*

### **Nazorat savollari**

1. Boshqa texnik zaxiralarni shakllantirishga nimalar kiradi?
2. Sug'urta zaxiralarining tarkibini sanab bering.
3. Sug'urta tariflarini hisoblashda qo'llanilayotgan usullar qanday qoplamalar miqdorini aniqlash imkonini beradi?
4. Halokatlar va zararlilikning tebranish zaxiralarini shakllantirish va sarflash tartibi qanday ishlab chiqiladi?
5. Halokatlar zaxirasi va zararlilikning tebranishi zaxirasini hisobga olish uchun qanday schyotlardan foydalaniladi?
6. Halokatlar zaxirasi va zararlilikning tebranishi zaxiralari qanday shartnomalar asosida shakllantiriladi?
7. Sug'urta zaxiralarini shakllantirish to'g'risidagi hisobot qaysi davlat organiga topshiriladi?



## **XVI bob. SUG‘URTA ZAXIRALARIDAGI QAYTA SUG‘URTALOVCHILARNING ULUSHINI HISOBGA OLISH**

### **16.1. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug‘urtalovchining ulushi**

Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi o‘z zimmasiga olgan sug‘urta qoplamasini yoki sug‘urta pulini to‘lash xavfi uning tomonidan to‘liq yoki qisman boshqa sug‘urtalovchida (sug‘urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalanishi mumkin.

Qayta sug‘urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug‘urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 52-bobning tadbirkorlik xavfini sug‘urta qilish borasida qo‘llanishi lozim bo‘lgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sug‘urta qilish shartnomasini tuzgan sug‘urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo‘yicha sug‘urtalovchi bo‘lgan tashkilot keyingi shartnomada sug‘urta qildiruvchi hisoblanadi.

Qayta sug‘urta qilishda sug‘urta qoplamasini yoki sug‘urta pulini to‘lash uchun asosiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi oldida qayta sug‘urtalovchi javobgar bo‘lib qolaveradi.

Biroq asosiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalanuvchi hisoblangan sug‘urta tashkiloti sug‘urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlarining qayta sug‘urta qilingan qismi qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchiga o‘tadi.

Amaliyotda ikki yoki bir nechta qayta sug‘urta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yo‘l qo‘yiladi. Bunday shartnomalarning har biri keyingi qayta sug‘urta qilish shartnomasiga nisbatan asosiy sug‘urta shartnomasi deb hisoblanadi.

Ma‘lumki, qayta sug‘urtalovchi qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar bo‘yicha qayta sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta

hodisasi yuz berganligi to'g'risidagi xabarni olgandan so'ng "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi"ni shakllantiradi. Mazkur zaxiraning hajmi to'lanishi mo'ljallanayotgan sug'urta qoplamasining hajmiga teng bo'ladi.

Agar sug'urta hodisasining yuz berganligi to'g'risidagi arizada va zararning hajmi to'g'risida ma'lumot berilmagan bo'lsa, sug'urta zaxirasi to'lanishini mumkin bo'lgan maksimal sug'urta qoplamasi summasiga muvofiq ravishda shakllantiriladi. Qayta sug'urtalovchining buxgalteriya hisobida xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi 8030 schyot "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi"da aks ettiriladi va 9250 schyot "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi" bilan korrespondensiyalanadi.

### **Debet 9250 – Kredit 8030**

Agar sug'urta hodisasi sodir bo'lgan deb topilib, qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchiga tegishli sug'urta qoplamasini to'lash qarorini qabul qilgan taqdirda, qoplamaning to'lanishi quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

**Debet 2230 "Qayta sug'urta qilishga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta tovonlari" – Kredit 6050 "Qayta sug'urta qilish bo'yicha olingan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar"**

va

### **Debet 6050 – Kredit 5110 (5210)**

Bir vaqtning o'zida mazkur summaga quyidagi provodka beriladi:

### **Debet 8030 – Kredit 9250**

Agar qayta sug'urtalanuvchiga to'langan sug'urta qoplamasi summasi zaxiradagi summadan kam bo'lsa, u holda ortib qolgan summaga ham yuqoridagi provodka beriladi.

Agar sug'urta hodisasining yuz berganligi tasdiqlanmasa yoki qayta sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lashni qonunchilikka asosan yoki qayta sug'urtalashva to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomalariga asosan rad etsa, shuningdek, qayta sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta qoplamasining to'lanishi qoidaga muvofiq emasligi aniqlangan yoki qonunchilikda belgilangan

hollarda qayta sug'urtalovchining sug'urta qoplamasini to'lash majburiyatining yo'qolishi quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

### **Debet 8030 – Kredit 9250**

Ushbu provodka butun zaxiraga ajratilgan summaga amalga oshiriladi.

Yuqoridagi qayta sug'urtalovchi tomonidan xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining shakllantirishi tartibini qayta sug'urtalanuvchining buxgalteriya hisobida qanday amalga oshirilishini ko'rib chiqamiz.

Qayta sug'urtalovchining sug'urta zaxirasidagi ulushini aks ettirish uchun schyotlar rejasida 8120 schyot "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi" nazarda tutilgan. Ushbu schyotning debeti bilan subschyot 9250 schyot "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi" ning krediti bilan korrespondensiyalanaadi va uning summasi maxsus hisob-kitoblar asosida aniqlanadi.

8120 schyotning krediti bilan 9250 schyotning debeti korrespondensiyalanganda zaxiradagi qayta sug'urtalovchi ulushining kamayishi aks ettiriladi.

Ushbu holatni misolda ko'rib chiqamiz.

Sug'urtalovchi ombordagi tovarlarni sug'urtaladi. Ularning summasi 100000 so'mni tashkil etadi. Sug'urta shartnomasining shartlariga asosan shartsiz franshiza 1000 so'mni tashkil etadi. Riskning 30%i boshqa sug'urta kompaniyasiga berildi.

Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga omborda yong'in vujudga kelganligi to'g'risida xabar bergan. Bu vaqtda zararining hajmi aniqlanmagan edi.

Sug'urta zaxiralarni shakllantirish to'g'risidagi Nizomga muvofiq sug'urtalovchi xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini quyidagi summada shakllantiradi:

$$100000 - 1000 = 99000 \text{ so'm}$$

Zararlarni bartaraf etish xarajatlari ham ushbu zaxiralarning tarkibiga qo'shilishi mumkin, aytaylik, xarajatlar 3%ni tashkil etadi:

$$0.03 * 99000 = 2970 \text{ so'm}$$

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining umumiy hajmi quyidagini tashkil etadi:

$$99000 * 2970 = 101970 \text{ so'm}$$

Ushbu sug'urtalovchi quyidagi provodkani amalga oshiradi:

**Debet 9250 – Kredit 8030**

Zaxiralardagi qayta sug'urtalovchining ulushi qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan u tomonidan qoplanadigan zararining ulushiga muvofiq ravishda bo'ladi. Qayta sug'urtaga riskning 30% berilganligi sababli, qayta sug'urtalovchi tomonidan qayta sug'urtalanuvchiga to'lanadigan summa quyidagini tashkil etadi:

$$0.3 * 99000 = 29700$$

Ushbu summaga qayta sug'urtalanuvchi quyidagi provodkani amalga oshiradi:

**Debet 8120 – Kredit 9250**

Sug'urta qoplamasi to'langandan so'ng yoki qonunchilikka muvofiq sug'urta qoplamasini to'lash rad etilsa, xabar qilingan zararining bartaraf etilganligini anglatuvchi quyidagi provodka amalga oshiriladi:

**Debet 8030 – Kredit 9250**

Bir vaqtning o'zida qayta sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lashidan qat'i nazar qayta sug'urtalovchi quyidagi provodkani amalga oshiradi:

**Debet 9250 – Kredit 8120**

Ushbu provodka qayta sug'urtalovchining ulushi summasiga beriladi (29700 so'm).

8120 schyot bo'yicha analitik hisob qayta sug'urta shartnomalari turlari, sug'urta turlari va qayta sug'urtalovchilar bo'yicha olib boriladi.

8120 schyotning debet tomonidagi saldosi 9030 schyotning debetiga o'tkaziladi:

**Debet 9030 – Kredit 9250**

Kredit qoldig'i esa 9030 schyot kreditiga o'tkaziladi:

**Debet 9250 – Kredit 9030.**

## **16.2. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug‘urtalovchining ulushi**

Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxiralarini hisoblashda bazaviy sug‘urta mukofoti asos hisoblanadi hamda hisobot davrida sug‘urtalash va qayta sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlaridan quyidagilarni chegirgan holda aniqlanadi:

a) sug‘urta va qayta sug‘urta shartnomalarini tuzganlik uchun komission va brokerlik mukofotlarining haqiqatda to‘langan summasi;

b) oldini olish chora-tadbirlari zaxirasini shakllantirish uchun yo‘naltirilgan summalar.

Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi mablag‘larini sarflash to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomasi bo‘yicha majburiyatni bajarish bilan bog‘liq bo‘lmaganligi sababli, qayta sug‘urtalovchi qayta sug‘urtaga qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha ushbu zaxirani shakllantirilmaydi. Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasini qayta sug‘urtalovchi tomonidan shakllantirishda, olingan sug‘urta mukofoti summasidan komission mukofotlarni chegirgan holda bazaviy sug‘urta mukofoti aniqlanadi.

Qayta sug‘urtalovchining buxgalteriya hisobida qayta sug‘urtalovchining ishlab topilmagan mukofotlar va sodir bo‘lgan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi ulushi komission mukofotlar chegirilgan holdagi qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlarning bazaviy sug‘urta mukofotidagi ulushiga proporsional tarzda hisoblanadi, ya’ni:

$$\frac{QU}{SZ} = \frac{QBM}{BM}$$

Bunda:

SZ – qayta sug‘urtaga berilgan sug‘urta shartnomasi bo‘yicha “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida Nizom”ga asosan shakllantirilgan ishlab topilmagan mukofotlar va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi;

QU – ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha ishlab topilmagan mukofotlar va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug‘urtalovchining ulushi;

BM – to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq aniqlangan bazaviy sug‘urta mukofoti;

QBM – Qayta sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha bazaviy sug‘urta mukofoti bo‘lib, qayta sug‘urtaga berilgan sug‘urta mukofotidan qayta sug‘urta bo‘yicha komission mukofotlarni chegirgan holda aniqlanadi.

Bundan:

$$QU = \frac{QBM * SZ}{BM}$$

Quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz.

Sug‘urta kompaniyasi omborda saqlanayotgan tovarlarni yong‘indan va buzib kirib o‘g‘irlashdan 21 iyundan 20 iyulgacha bo‘lgan muddatga sug‘urtalagan, ya’ni sug‘urta muddati 30 kun.

Shartnoma bo‘yicha to‘langan sug‘urta mukofotining qiymati 125 ming so‘mga teng. Shartnoma bo‘yicha agentlik mukofotlari 20%ni tashkil etadi, ya’ni 25 ming so‘m.

Tarif stavkasining tarkibida oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga 10% ajratish nazarda tutilgan, ya’ni 12,5 ming so‘m.

Yuqoridagilarga asosan bazaviy sug‘urta mukofoti quyidagini tashkil etadi:

$$BM = 125 - 25 - 12,5 = 87,5 \text{ ming so‘m.}$$

1-iyul holatiga sug‘urta shartnomasi o‘n kun amal qilgan. Tegishli tartibda “Pro Rata Temporis” usulida ishlab topilmagan sug‘urta zaxirasini hisoblasak, uning qiymati quyidagicha bo‘ladi:

$$ITM = Mb * \frac{H - M}{M} = 87,5 * \frac{30 - 10}{30} = 58,3 \text{ ming so‘m}$$

Tegishli tartibda sodir bo‘lgan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi:

$$87,5 * 0,1 = 8,75 \text{ ming so‘m.}$$

Mazkur riskning bir qismi qayta sug‘urtaga berilgan. Qayta sug‘urta mukofotining hajmi 50 ming so‘mni, komission mukofot

esa 15 min so‘m. Bunda ishlab topilmagan mukofotlardagi qayta sug‘urtalovchining ulushi quyidagini tashkil etadi:

$$QU(itm) = \frac{(50-15)*58,3}{87,5} = 23,32 \text{ min } g \text{ so‘m}$$

Sodir bo‘lgan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug‘urtalovchining ulushi muvofiq ravishda quyidagini tashkil etadi:

$$QU(itm) = \frac{(50-15)*8,375}{87,5} = 3,5 \text{ min } g \text{ so‘m}$$

Ishlab topilmagan mukofotlar va sodir bo‘lgan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug‘urtalovchining ulushini hisoblash va uning hisobini qayd etib borish uchun schyotlar rejasida quyidagi subschyotlar nazarda tutilgan: 8110 schyot “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi qayta sug‘urtalovchilarning ulushi” va 8130 schyot “Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug‘urtalovchilarning ulushi”.

Moliyaviy natijalarni shakllantirishda mazkur subschyotlarning debet tomoni bilan 9230 schyot “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi” va 9240 schyot “Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”ning kredit tomoni korrespondensiyalanadi va unda hisobot davri oxiriga yuqoridagi tartibda hisoblangan qayta sug‘urtalovchilarning ulushlari summalari aks ettiriladi:

**Debet 8110 – Kredit 9230**

**Debet 8130 – Kredit 9240**

Mazkur schyotlarning krediti 9230 va 9240 schyotlarning debeti bilan o‘tgan hisobot yilning oxiriga bo‘lgan qayta sug‘urtalovchilarning ulushlari aks ettiriladi:

**Debet 9230 – Kredit 8110**

**Debet 9240 – Kredit 8130**

Mazkur subschyotlar bo‘yicha analitik hisob alohida qayta sug‘urtalovchilar, sug‘urta turlari va shartnoma turlari bo‘yicha olib boriladi.

9230 schyot “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi” va 9240 schyot “Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”ning debet qoldig‘i 9030 schyot “Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar”ning debetiga o‘tkaziladi:

**Debet 9030 – Kredit 9230**

**Debet 9030 – Kredit 9240**

Kredit qoldig‘i esa ko‘rsatilgan schyotning kreditga o‘tkaziladi:

**Debet 9230 – Kredit 9030**

**Debet 9240 – Kredit 9030**

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishilgan Nizom asosida shakllantiriladigan sug‘urta zaxiralarida qayta sug‘urtalovchining ulushi bo‘lishi mumkinligi qonunchilikda belgilanmagan.

### **Tayanch so‘zlar**

- ♦ *Qayta sug‘urtalovchining sug‘urta zaxirasidagi ulushi*
- ♦ *Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi*
- ♦ *Ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlari zaxirasi*
- ♦ *Akvizitsion xarajatlar*
- ♦ *Hayot sug‘urtasi zaxirasida qayta sug‘urtalovchining ulushi*
- ♦ *Zaxiralar bo‘yicha moliyaviy natija*

### **Nazorat savollari**

1. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug‘urtalovchining ulushi qanday hisobga olinadi?
2. Qayta sug‘urta qilishda sug‘urta qoplamasini yoki sug‘urta pulini to‘lash uchun asosiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi oldida kim javobgar bo‘ladi?
3. Amaliyotda ikki yoki bir nechta qayta sug‘urta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yo‘l qo‘yiladimi?
4. Agar sug‘urta hodisasining yuz berganligi to‘g‘risidagi arizada va zararning hajmi to‘g‘risida ma‘lumot berilmagan bo‘lsa, sug‘urta zaxirasi to‘lanishini qanday amalga oshiriladi?



5. Agar qayta sug'urtalanuvchiga to'langan sug'urta qoplamasi summasi zaxiradagi summadan kam bo'lsa, u holda ortib qolgan summaga qanday provodka beriladi?
6. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchining ulushi qanday aniqlanadi?
7. Zaxiralar bo'yicha moliyaviy zaxira qanday aniqlanadi?
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishilgan Nizom asosida shakllantiriladigan sug'urta zaxiralarida qayta sug'urtalovchining ulushi bo'lishi mumkinligi qaysi qonun hujjatida belgilangan?

## **XVII bob. SUG‘URTA TASHKILOTLARI TOMONIDAN SUG‘URTA ZAXIRALARINI JOYLASHTIRISHNING UMUMIY TARTIBI**

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”-gi qonunining 6-moddasiga asosan “Sug‘urtalovchilar sug‘urtani amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin emas. Quyidagilar bundan mustasno:

- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati;
- sug‘urta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bog‘liq faoliyat;
- sug‘urta agenti sifatidagi sug‘urta vositachiligi.

Yuqoridagilarga asosan sug‘urta tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilab beradigan tartib va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008-yil 12-mayda 1806-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq sug‘urta tashkilotlari zaxiralarini turli obyektlarga joylashtiradilar. Sug‘urta tashkilotlari o‘z zaxiralarini daromadlilik, diversifikatsiya, likvidlik va qaytimlilik tamoyillari asosida joylashtirishlari belgilangan.

Diversifikatsiya – bu investitsiya qilinayotgan mablag‘larni, ularni yoki ulardan olinadigan daromadni yo‘qotish xavfini kamaytirish maqsadida turli obyektlar o‘rtasida taqsimlash.

Mablag‘larning qaytimliliigi – bu investitsion riskni mumkin qadar kamaytirish orqali qo‘yilmalar uchun maksimal xavfsiz sharoitni ta‘minlash.

Mablag‘larning daromadliliigi – investitsiyalardan daromad olish.

Mablag‘larning likvidligi – sug‘urtalovchi o‘z majburiyatlarini bajarishi uchun investitsiya mablag‘larining o‘z nominal

qiymatini saqlagan holda naqd to'lov vositalariga tez aylana olish qobiliyati.

Sug'urtalovchilar odatda, sug'urta zaxiralarini quyidagi obyektlarga joylashtiradilar:

- ko'chmas mulk;
- davlat qimmatli qog'ozlari;
- tijorat banklarining depozitlariga;
- aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga;
- boshqa ishtirok etish huquqlari, boshqa qimmatliklar;
- kassa, hisob raqamidagi mablag'lar va boshqa ularga tenglashtirilgan mablag'lar;
- sug'urta polisini garovga olgan holda qarz berish va boshqalar.

Mablag'larni quyidagi obyektlarga joylashtirish taqiqlanadi:

- sotib olish va sotish shartnomalarini tuzish, ushbu nizomda belgilangan sharoitlar bundan mustasno;
- intellektual mulkka qo'yish (dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, adabiyotlar, firma nomlari va tovar belgilari bundan mustasno);
- qonunchilikda belgilangan holatlardan tashqari hollarda yuridik va jismoniy shaxslar bilan kredit shartnomalarini tuzish;

Sug'urta zaxiralarini investitsiya qilish bo'yicha me'yorlar o'rnatilgan bo'lib, sug'urta tashkilotlari ushbu me'yorlarga amal qilishlari shart.

Sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urta zaxiralari joylashtirishining hisobi umumiy tartibda amalga oshiriladi.

### **Tayanch so'zlar**

- |  |  |
|--|--|
| ▪ <i>Ko'chmas mulk</i>                     | ▪ <i>Aksiyalar</i>                             |
| ▪ <i>Qimmatli qog'ozlar</i>                | ▪ <i>Aktivlarning qiymati</i>                  |
| ▪ <i>Bank depoziti</i>                     | ▪ <i>Investitsiya</i>                          |
| ▪ <i>Korxonalarining nizom jamg'armasi</i> | ▪ <i>Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari</i> |
| ▪ <i>Turli ishtirok etish huquqlari</i>    | ▪ <i>Kvota</i>                                 |

## Nazorat savollari

1. Sug'urtalovchilar sug'urta faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan qanday tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin?
2. Sug'urta tashkilotlari o'z zaxiralarini qanday tamoyillar asosida joylashtiradilar?
3. Diversifikatsiya nima?
4. Mablag'larning qaytimliligi, daromadliligi, likvidligi deganda nimani tushunasiz?
5. Sug'urtalovchilar odatda, sug'urta zaxiralarini qanday obyektlarga joylashtiradilar?
6. Sug'urtalovchilar sug'urta zaxiralarini qanday obyektlarga joylashtirish taqiqlanadi?
7. Sug'urta zaxiralarini investitsiya qilish bo'yicha qanday me'yorlar o'rnatilgan?

## **XVIII bob. SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA SUG‘URTA FAOLIYATINING MOLIYAVIY NATIJASINI ANIQLASH**

### **18.1. Sug‘urta tashkilotining daromadlari**

Sug‘urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi bo‘yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda barcha buxgalteriya hisobiga oid me‘yoriy hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori asosida tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida Nizom”ga asosan amalga oshiradilar.

Sug‘urta tashkilotlarining daromadlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Sug‘urta faoliyatidan daromadlar.
2. Sug‘urta faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar.
3. Sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyatdan olinadigan daromadlar.

Sug‘urta faoliyatidan olinadigan daromadlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- sug‘urta, birgalikda sug‘urtalash va qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha kelib tushadigan sug‘urta mukofotlari;
- sug‘urta zaxirasining qaytim summasi (sug‘urta zaxirasining keyingi yilga o‘tadigan qismi);
- qayta sug‘urtaga berilgan shartnomalar bo‘yicha olingan komission mukofotlar, tanyemalar va boshqalar;
- sug‘urta agenti, sug‘urta brokeri, syurveyer va avariya komissari xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun komission mukofotlar;
- qayta sug‘urtaga berilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha qayta sug‘urtalovchilar tomonidan zararning qoplangan qismi.

Sug‘urta faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- sugʻurta zaxiralarini joylashtirishdan olingan daromadlar;
- qayta sugʻurtaga qabul qilingan sugʻurta shartnomalari boʻyicha depo mukofotlarga hisoblangan foiz daromadlari;
- sugʻurta hodisasining sodir boʻlishida aybdor hisoblangan shaxsdan zararni qoplashni talab qilish huquqidan foydalanish orqali olingan daromadlar.

Sugʻurta faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- asosiy vositalar, materiallar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan daromadlar;
- oʻtgan davrlarda hisobdan chiqarilgan debitorlik qarzlarni qoplash uchun kelib tushgan summalar;
- hisobdan chiqarilgan kreditorlik qarzlari;
- qonunchilik bilan cheklanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromadlar.

Yuqorida keltirilgan daromadlarni hisobga olish tegishli schyotlardagi qoldiqlarning 9910 schyot “Yakuniy moliyaviy natija”ga oʻtkazish orqali amalga oshiriladi.

## **18.2. Sugʻurta tashkilotlarining xarajatlari**

Sugʻurta tashkilotlarining xarajatlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga qilinadigan ajratmalar.
2. Qayta sugʻurtaga qabul qilingan sugʻurta shartnomalari boʻyicha toʻlangan sugʻurta qoplamalari.
3. Qayta sugʻurtalash operatsiyalari boʻyicha toʻlangan komission mukofotlar va tantiemalar.
4. Ish yuritish xarajatlari:
  - sugʻurta tashkilotining xodimlariga toʻlanadigan mehnat haqi;
  - sugʻurta agenti va brokeri xizmatlarini koʻrsatganlik uchun toʻlangan komission haqlar;
  - sugʻurta agentlarining sugʻurtalanuvchilar joylashgan joylarga borish va qaytish xarajatlari;
  - sugʻurta tashkilotining boshqaruv apparati xodimlarini saqlash, kompaniyaning boʻlinma, filiallarini saqlash ularning moddiy-texnik bazasini taʼminlash xarajatlari;

– sugʻurta faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq xizmatlarni koʻrsatgan boshqa tashkilotlarga toʻlanadigan haqlar;

– sugʻurta polisleri blanklari, kvitansiyalari, ariza, mulkni koʻrikdan oʻtkazish, sugʻurta hodisasining yuz berganligi toʻgʻrisida dalolatnomalar blanklarini tayyorlash xarajatlari va boshqalar;

– sugʻurta tashkilotining faoliyati bilan bogʻliq safar xarajatlarning barchasi;

– boshqa sugʻurta tashkilotlarining vakillarini qabul qilish va xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq xarajatlar;

– kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan bogʻliq xarajatlar;

– reklama xarajatlari;

– axborot va konsultativ xizmatlarni toʻlash;

– yillik balans va moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotlarni matbuotda chop ettirish xarajatlari;

– asosiy vositalarning qayta tiklanishi uchun qilinadigan amortizatsiya ajratmalari;

– nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi;

– majburiy sugʻurta boʻyicha qilinadigan xarajatlar;

– oʻz mol-mulkini ixtiyoriy sugʻurtalash bilan bogʻliq xarajatlar;

– banklardan olingan kreditlar boʻyicha foizlarni toʻlash xarajatlar;

– soliqlar, yigʻimlar va boshqa majburiy tartibdagi yigʻimlar va toʻlovlar;

– budjetdan tashqari fondlarga majburiy ajratmalar.

Yuqorida keltirilgan barcha xarajatlar sugʻurta xizmatining tannarxiga kiritilib, ularning summasiga quyidagicha provodka beriladi:

### **Debet 9910 – Kredit 9130**

Lekin daromadni aniqlashda va daromad (foyda) soligʻini hisoblashda “Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish boʻyicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi toʻgʻrisida Nizom”da nazarda tutilgan jihatlardan hisobga olinadi.

5. Sug'urtalovchining sug'urta va moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sug'urta zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan zararlar;
- qayta sug'urtalash mukofotlari bo'yicha kompaniya tomonidan hisoblangan foizlar;
- sud bilan bog'liq xarajatlar;
- undirib olish mumkin bo'lmagan debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarish;
- avval vujudga kelgan qarzlardan voz kechish;
- moddiy qimmatliklarni sotish va yo'qotishdan olingan zararlar;
- tabiiy ofatlar va boshqa hodisalar oqibatida yetgan zararlar.

Mazkur xarajatlarning sug'urta xizmatining tannarxiga o'tkazilishi quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

**Debet 9130 – Kredit 9400**

### **18.3. Sug'urta tashkilotining moliyaviy natijasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari**

O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari moliyaviy natijalarini 2005-yil 18-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq shakllantiradilar.

Ushbu Nizomga muvofiq sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda barcha buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori asosida tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo'yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom"ga amal qiladilar, shu bilan birga, "Sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi Nizom"ning o'ziga xos jihatlari hisobga oladilar.

Unga muvofiq sug'urta xizmatining tannarxiga quyidagi xarajatlar qo'shimcha ravishda qo'shilishi lozim:



- sug‘urtalash (birgalikda sug‘urtalash) shartnomalari bo‘yicha to‘langan sug‘urta qoplamalari summasi;
- sug‘urta hodisasi bo‘yicha zararlarni bartaraf etish va sug‘urta qoplamasini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar;
- baxtsiz hodisalar, sug‘urtalangan mulkning shikastlanishi yoki zararlanishining oldini olish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish zaxirasiga qilinadigan ajratmalar;
- qayta sug‘urtalash operatsiyalari bo‘yicha hisoblangan kommission mukofotlar va tanyemalar.

Mazkur Nizomga asosan sug‘urta tashkilotining sug‘urta xizmatlarini sotishdan tushgan sof tushumi quyidagi tartibda aniqlanadi:

- sug‘urtalash va birgalikda sug‘urtalash bo‘yicha (birgalikda sug‘urtalash shartnomasida belgilangan ulush doirasida), kelib tushgan mukofotlarning umumiy hajmidan qayta sug‘urtaga berilgan shartnomalar bo‘yicha mukofotlar chegirilgan holda;
- plyus qayta sug‘urtaga qabul qilingan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha kelib tushgan mukofotlar;
- plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasining o‘zgarish natijasi (keyingi matnlarda RNP);
- plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining o‘zgarish natijasi;
- plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining o‘zgarish natijasi;
- plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi hayot sug‘urtasi bo‘yicha zaxiraning o‘zgarish natijasi;
- plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi boshqa texnik zaxiralarning o‘zgarish natijasi;
- plyus sug‘urta agenti, brokeri, vositachisi xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun kommission va boshqa hisoblangan mukofotlar;
- syurveyer, avariya komissari-adjaster xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun mukofotlar;
- bevosita sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

## **Tayanch soʻzlar**

- ♦ *Xizmatning tan narxi*
- ♦ *Daromadlar*
- ♦ *Xarajatlar*
- ♦ *Sotishdan tushgan yalpi tushum*
- ♦ *Yalpi imzolangan mukofot*
- ♦ *Adjaster*
- ♦ *Syurveyer*
- ♦ *Tantyema*
- ♦ *Moliyaviy natijalar*
- ♦ *Sugʻurta zaxiralarining oʻzgarishi*
- ♦ *Investitsion daromadlar*
- ♦ *Sof foyda*

## **Nazorat savollari**

1. Sugʻurta tashkilotining daromadlariga nimalar kiradi?
2. Sugʻurta tashkilotlari buxgalteriya hisobi boʻyicha moliyaviy natijalarni aniqlashda qanday meʼyoriy hujjatga asosan amalga oshiradilar?
3. Sugʻurta tashkilotlarining daromadlarini qanday guruhlariga ajratish mumkin?
4. Sugʻurta faoliyatidan olinadigan daromadlarga nimalar kiradi?
5. Sugʻurta faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan faoliyatdan olinadigan daromadlarga nimalar kiradi?
6. Sugʻurta tashkilotlarining xarajatlari qanday guruhlariga boʻlinadi va ularga nimalar kiradi?
7. Ish yuritish xarajatlariga nimalar kiradi?
8. Sugʻurta xizmatining tannarxiga kiritilgan xarajatlar summasiga qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
9. Sugʻurta faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlashning oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

## **XIX bob. SUG‘URTA KOMPANIYALARINING HISOBOT SHAKLLARI**

### **19.1. Sug‘urta tashkilotlari tomonidan topshiriladigan hisobotlarning umumiy shakllari**

O‘zbekiston Respublikasi 1998-yil 30-avgustda qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunining 19-moddasiga muvofiq Moliyaviy hisobot quyidagilarga taqdim etiladi:

- soliq organlariga;
- ta’sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga;
- davlat statistika organlariga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Moliya hisoboti hisobot yili boshdan qo‘shilib beruvchi jamlama tartibida yilning har choragida taqdim etiladi. Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilaydi.

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tuziladi.

Moliyaviy hisobot quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot;
- asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot;
- pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot;
- xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy hisoboti soddalashtirilgan shaklda tuziladi. Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmunini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilaydi.

Hozirda sug‘urta tashkilotlari uchun mo‘ljallangan alohida moliyaviy hisobot shakllari amaliyotda kiritilgan bo‘lib, sug‘urta tashkilotlari moliyaviy hisobotlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2009-yilning 19-martidagi 37-son bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 20-aprelda 1945-son bilan ro‘yxatga olingan “Sug‘urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to‘l-

dirish bo'yicha Qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida shakllantirmoqdalar.

Ushbu buyruqqa ko'ra sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobot shakllari hamda ularni to'ldirish Qoidalari tasdiqlangan. Mazkur sug'urta tashkilotlari uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobot shakllari hamda ularni to'ldirish bo'yicha Qoidalar 2009-yilning 30-aprelidan kuchga kirgan.

## **BUXGALTERIYA BALANSI – 1-sonli shakl – sug'urta** **БУХГАЛТЕРСКИЙ БАЛАНС – форма № 1 – страхование**

_____ 20__ yilga на _____ 20__ год	ВНУТ bo'yicha 1-shakl Форма № 1 по ОКУД	<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="padding: 2px;">Kodlar Коды</td> </tr> <tr> <td style="padding: 2px;">0710001</td> </tr> </table>	Kodlar Коды	0710001
Kodlar Коды				
0710001				
Sug'urtalovchi С траховщик _____	КТУТ bo'yicha по ОКПО	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		
Tarmoq Отрасл _____	ХХТУТ bo'yicha по ОКОНХ	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		
Tashkiliy-huquqiy shakli Организационно-правовая форма _____	ТНШТ bo'yicha по КОПФ	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		
Mulkchilik shakli Форма собственности _____	МШТ bo'yicha по КФС	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		
Vazirlik, idora va boshqalar Министерства, ведомства и другие _____	ДВІВТ bo'yicha по СООГУ	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		
Soliq to'lovchining identifikatsion raqami Идентификационный номер налогоплательщика	STIR ИИН	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		
Hudud Территория	МНОВТ СОАТО	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		
Manzil Адрес _____	Jo'natilgan sana Дата получения	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		
O'lchov birligi, ming so'm Единица измерения, тис. сум.	Qabul qilingan sana Дата получения	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		
	Taqdim qilish muddati Срок представления	<input style="width: 100%; height: 20px;" type="text"/>		

Ko'rsatkichlar nomi Naimenovanie pokazateley	Satr kodi Код стр.	Hisobot davri boshiga На начало отчетного периода	Hisobot davri oxiriga На конец отчетного периода
1	2	3	4
<b>Aktiv</b>			
<b>I. Uzoq muddatli aktivlar И. Долгосрочные активы</b>			
<b>Asosiy vositalar: Основные средства:</b>			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300) Первоначальная (восстановительная) стоимость (0100, 0300)	010		
Eskirish summasi (0200) Сумма износа (0200)	011		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 – 011) Остаточная (балансовая) стоимость (стр. 010 – 011)	012		
<b>Nomoddiy aktivlar: Нематериальные активы:</b>			
Boshlang'ich qiymati (0400) Первоначальная стоимость (0400)	020		
Amortizatsiya summasi (0500) Сумма амортизации (0500)	021		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 – 021) Остаточная (балансовая) стоимость (стр. 020 – 021)	022		
<b>Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr. 040 + 050 + 060 + 070 + 080), shu jumladan: Долгосрочные инвестиции, всего (стр. 040 + 050 + 060 + 070 + 080), в том числе:</b>	030		
Qimmatli qog'ozlar (0610) Ценные бумаги (0610)	040		
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620) Инвестиции в дочерние хозяйственные общества (0620)	050		
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630) Инвестиции в зависимые хозяйственные общества (0630)	060		
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalariga investitsiyalar (0640) Инвестиции в предприятия с иностранным капиталом (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690) Прочие долгосрочные инвестиции (0690)	080		
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090		

О борудование к установке (0700)			
Капитал қо'уilmalar (0800) Капитальные вложения (0800)	100		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940) Долгосрочная дебиторская задолженность (0910, 0920, 0930, 0940)	110		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990) Долгосрочные оцроченные расходи (0950, 0960, 0990)	120		
<b>I bo'lim bo'yicha jami</b> (satr. 012 + 022 + 030 + 090 + 100 + 110 + 120) <b>Итого по разделу И</b> (стр. 012 + 022 + 030 + 090 + 100 + 110 + 120)	130		
<b>II. Joriy aktivlar</b> <b>ИИ. Текущие активы</b>			
<b>Tovar-moddiy zahiralari, jami</b> (satr. 150 + 160), shu jumladan: <b>Товарно-материальные запасы, всего</b> (стр.150 + 160), в том числе:	140		
Materiallar (1000, 1500, 1600) М атериали (1000, 1500, 1600)	150		
Tugallanmagan xizmatlar (2000, 2300, 2700) Не завершенные услуги (2000, 2300, 2700)	160		
Kelgusi davr xarajatlari (3100) Расходи будущих периодов (3100)	170		
Kechiktirilgan xarajatlar (3200) О цроченные расходи (3200)	180		
<b>Debitorlar, jami</b> (satr. 200 + 310 + 320 + 330 + 340 + 350 + 360 + 370 + 380 + 390). <b>Дебитори, всего</b> (стр. 200 + 310 + 320 + 330 + 340 + 350 + 360 + 370 + 380 + 390)	190		
shundan: muddati o'tgan из нее: просроченная	191		
<b>To'lanadigan schyotlar, jami</b> (satr. 210 + 220 – 400) <b>С чета к оплате, всего</b> (стр. 210 + 220 – 400)	200		
Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi (4010, 4020) Задолженность покупателей и заказчиков (4010, 4020)	210		
<b>Sug'urta operatsiyalari bo'yicha debitorlar, jami</b> (satr. 230 + 240 + 250 + 260 + 270 + 280 + 290 + 300) <b>Дебитори по страховим операциям, всего</b> (стр. 230 + 240 + 250 + 260 + 270 + 280 + 290 + 300)	220		
Sug'urta qildiruvchilarning qarzlari (4030)	230		

Задолженность страхователей (4030)			
Sug'urta agentlari va brokerlarining qarzlari (4040) Задолженность страховых агентов и брокеров (4040)	240		
Qayta sug'urta qildiruvchilarning qarzlari (4050) Задолженность перестрахователей (4050)	250		
Qayta sug'urtalovchilarning komission mukofotlar, tante- ma va boshqa mukofotlar bo'yicha qarzlari (4051) Задолженность перестраховщиков по коммиссион- ным вознаграждениям, тантемам и другим вознагра- ждениям (4051)	260		
Qayta sug'urtalovchilarning qarzlari (4060) Задолженность перестраховщиков (4060)	270		
Hayot sug'urtasi bo'yicha ssudalar (4070) С суди по страхованию жизни (4070)	280		
Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo zarari (4080) Депозит убитков страховщика у других страховщи- ков (4080)	290		
Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo mukofotlari (4090) Депозит премий страховщика у других страховщи- ков (4090)	300		
Alohida bo'linmalarining qarzi (4110) Задолженность обособленных подразделений (4110)	310		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi (4120) Задолженность дочерних и зависимых хозяйственных обществ (4120)	320		
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200) Аванси, видание персоналу (4200)	330		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300) Аванси, видание поставщикам и подрядчикам (4300)	340		
Budjetga bo'nak to'lovlari (4400) Авансовые платежи в бюджет (4400)	350		
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500) Авансовые платежи в государственные целевые фон- ды и по страхованию (4500)	360		
Ta'sischiylarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600) Задолженность учредителей по вкладам в уставный капитал (4600)	370		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700) Задолженность персонала по прочим операциям (4700)	380		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800) Прочие дебиторские задолженности (4800)	390		

Ishonchsiz qarzlar bo'yicha rezerv (4900) Резерви по сомнительным долгам (4900)	400		
<b>Pul mablag'lari, jami</b> (sitr. 420 + 430 + 440 + 450), shu jumladan: <b>Денежные средства</b> , всего (стр. 420 + 430 + 440 + 450), в том числе:	410		
Kassadagi pul mablag'lari (5000) Денежные средства в кассе (5000)	420		
Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari (5100) Денежные средства на расчетном счете (5100)	430		
Chet el valutasidagi pul mablag'lari (5200) Денежные средства в иностранной валюте (5200)	440		
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700) Прочие денежные средства и эквиваленты (5500, 5600, 5700)	450		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800) Краткосрочные инвестиции (5800)	460		
Boshqa joriy aktivlar (5900) Прочие текущие активы (5900)	470		
<b>II bo'lim bo'yicha jami</b> (sitr. 140 + 170 + 180 + 190 + 410 + 460 + 470). <b>Итого по разделу II</b> (стр. 140 + 170 + 180 + 190 + 410 + 460 + 470)	480		
<b>Balans aktivi bo'yicha jami</b> (sitr. 130 + 480) <b>Всего по активу баланса</b> (стр. 130 + 480)	490		

<b>Passiv</b>			
<b>I. O'z mablag'lari manbalari</b>			
<b>И. Источники собственных средств</b>			
Ustav kapitali (8300) Уставный капитал (8300)	500		
Qo'shilgan kapital (8400) Добавленный капитал (8400)	510		
Zaxira kapitali (8500) Резервный капитал (8500)	520		
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600) Выкупленные собственные акции (8600)	530		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700) Нераспределенная прибил (непокрытый убиток) (8700)	540		
Maqsadli tushumlar (8800) Целевые поступления (8800)	550		
Kelgusi davr harajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900) Резерви предстоящих расходов и платежей (8900)	560		
<b>I bo'lim bo'yicha jami</b> (sitr. 500 + 510 + 520-530 + 540 + 550 + 560)	570		



<b>Итого по разделу И</b> (стр. 500 + 510 + 520-530 + 540 + 550 + 560)			
<b>II. Sug'urta zaxiralari</b> <b>ИИ. Страховые резервы</b>			
<b>Sug'urta zaxiralari, jami</b> (satr. 590 + 600 + 610 + 620 + 630 + 640 + 650 + 660) <b>Страховые резервы, всего</b> (стр. 590 + 600 + 610 + 620 + 630 + 640 + 650 + 660)	580		
Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi (8010) Резерв незаработанной премии (8010)	590		
Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (8020) Резерв произошедших, но не заявленных убитков (8020)	600		
Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi (8030) Резерв заявленных, но неурегулированных убитков (8030)	610		
Ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi (8040) Резерв предупредительных мероприятий (8040)	620		
Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi (8050) Резерв несоответствия активов (8050)	630		
Falokatlar zaxirasi (8060) Резерв катастроф (8060)	640		
Zararlilikning tebranishi zaxirasi (8070) Резерв колебания убиточности (8070)	650		
Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiralari (8090) Резервы по страхованию жизни (8090)	660		
